O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Moliya kafedrasi

«DAVLATNING MAQSADLI VA BUDJETDAN TASHQARI JAMG’ARMALARI»
fanidan

O’ Q U V - U S L U B I Y M A J M U A

Bilim sohasi:	200 000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	230 000	–	Iqtisod
Ta’lim yo’nalishi:	5230 600	–	Moliya

Termiz – 2018

O’quv uslubiy majmua Termiz davlat universiteti o’quv uslibiy Kengashininig 2018 yil "____" avgustdagi "___" - son buyrug’i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:
U.T.To’lakov – TerDU “Moliy”a kafedrasi katta o’qituvchisi

Taqrizchilar:
Avazov E.X.– TerDU «Moliya» kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Xatamov O.Q. – TerDU «Iqtisodiyot» kafedrasi mudiri, i.f.d.

O’quv uslubiy majmua Termiz davlat universiteti o’quv uslibiy Kengashininig 2018 yil "____" avgustdagi "___" - son yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

© TerDU “Moliya” kafedrasi

MUNDARIJA:

MUNDARIJA:**.....3**
I-BO'LIM. O'QUV MATERIALLAR.....5
1.1. MA'RUZA MATERIALLARI 5
1-MAVZU: "DAVLATNING MAQSADLI VA BUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARI" FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI 6
1. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari haqida tushuncha 6
2. "Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari " fanining predmeti va maqsadi....7
3."Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari" fanining zarurligi va vazifalari 8
2-MAVZU: DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....11
1. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati 11
2. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining guruhlanishi.....16
3. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanish manbalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari.....20
3-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI.....22
1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi 22
2. Davlat pensiyalari, ularning turlari va hisoblash tartibi. 29
3. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash. 41
4. Xo'jalik sub'ektlari va jismoniy shaxslar tomonidan Pensiya jamg'armasiga badallar ajratish tartibi 60
4-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI RESPUBLIKA YO'L JAMG'ARMASI..... **Ошибка! Закладка не определена.**
1. Respublika yo'l jamg'armasining maqsadi, asosiy vazifalari va funktsiyalari. ..... **Ошибка! Закладка не определена.**
2. Respublika yo'l jamg'armasi daromadlarini shakllantirish va sarflash tartibi. ..... **Ошибка! Закладка не определена.**
3. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash tartibi va ajratmalarga doir imtiyozlar..... **Ошибка! Закладка не определена.**
4. Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari tushumi va sarflanishi uchun javobgarlik hamda nazorat qilish..... **Ошибка! Закладка не определена.**
5-MAVZU: AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHGA KO'MAKLASHUVCHI DAVLAT JAMG'ARMASI.....64
1. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning maqsadi, mohiyati va ahamiyati. 64
2. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari. 66
3. Mamlakat mehnat bozorining shakllanishida ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning tutgan o'rni. 68
6-MAVZU: DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDAN TUSHGAN MABLAG'LAR JAMG'ARMASI.....75
1. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining tashkil etilishi zarurligi va ahamiyati. 75
2. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mablag'larini shakllantirish. 76
3. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mablag'laridan foydalanish.....78

7-MAVZU: TA’LIM TIZIMIGA YO’NALTIRILGAN DAVLAT MAQSADLI JAMG’ARMALARINING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**Ошибка! Закладка не определена.**
1. Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasining maqsadi va asosiy vazifalari.....**Ошибка! Закладка не определена.**
2. Jamg’arma moliyaviy resurslarining shakllanishi, xarajatlarining tarkibi va tuzilishi. **Ошибка! Закладка не определена.**
3. Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasini boshqarish .....**Ошибка! Закладка не определена.**
4. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika maqsadli kitob jamg’armasining tashkil etilishi va vazifalari .....**Ошибка! Закладка не определена.**
5. Byudjetdan tashqari Kitob jamg’armasi faoliyatini amalga oshirishda moliyaviy resurslarning shakllanishi hamda xarajatlarini moliyalashtirilishi. .....**Ошибка! Закладка не определена.**
8-MAVZU: O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG’ARMASI. 82
1.O’zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi tashkil etilishi, maqsadi va vazifalari. 82
2.Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasini shakllantirishning asosiy manbalari..... 84
3.Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi mablag’larining sarflanishi. 84
9-MAVZU: SUG’ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH JAMG’ARMASI .....**Ошибка! Закладка не определена.**
1. O’zbekiston Respublikasi Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi faoliyatining zarurligi, maqsadi va vazifalari.**Ошибка! Закладка не определена.**
2. Jamg’arma moliyaviy resurslarning shakllanishi. .....**Ошибка! Закладка не определена.**
3. Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasining xarajatlar yunalishlari. .....**Ошибка! Закладка не определена.**
4. O’zbekiston Respublikasida Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi faoliyatini boshqarish va takomillashtirish. ....**Ошибка! Закладка не определена.**
10-MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLARDA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG’ARMALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH..... 88
1. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va xususiyatlari. 88
2. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining tarkibi va turlari. 90
3. Xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg’armalarning shakllanish mexanizmi. 92
4. Xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg’armalardan foydalanish yo’llari..... 93
1.2. AMALIY MASHG’ULOT MATERIALLARI..... 100
II-BO’LIM. MUSTAQIL TA’LIM..... 114
III-BO’LIM. GLOSSARIY..... 117
IV-BO’LIM. ILOVALAR..... 126
4.1. FAN DASTURI..... 126
4.2. ISHCHI O`QUV DASTURI 133
4.3. TARQATMA MATERIALLAR..... 146
4.4. TESTLAR 154
4.5. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI 169
4.6. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: 173

I-BO'LIM. O'QUV MATERIALLAR

1.1. MA'RUZA MATERIALLARI

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respulikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlarini bajarish yuzasidan zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ularga zamonaviy bilim va ko'nikmalar berish ayni paytdagi dolzarb masaladir.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirish davom etmoqda. Umumdavlat moliya tizimining bo'g'ini - davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va xarajatlarini maqsadli yo'naltirilishini samarali tashkil etish amalga oshirilmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida real iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida talab etilayotgan ta'lim va mutaxassisliklarning yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish, davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish; o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish belgilandi. Shu nuqtai-nazardan ta'kidlash joizki, ushbu tizimga xizmat qiluvchi muayyan bilim va ko'nikmaga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlash davr talabidir.

"Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari" fanining asosiy maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini g'aznachilik tizimi asosida boshqarish va nazorat jarayonlarining muhim yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish; O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish; ijtimoiy va iqtisodiy fondlarning moliyaviy jihatlarini ochib berish; maqsadli fondlarni shakllantirishning xorij tajribalarini o'rganish; davlat byudjeti tarkibidagi maqsadli fondlarning daromadlarini shakllantirish mexanizmini ko'rib chiqish; davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlarni va xarajatlarni boshqarish jarayonlariga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tadbik etish masalalarini aniqlash; O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi sharoitida davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarini oshirish va xarajatlarini optimallashtirish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari va ularni shakllanirish hamda xarajatlarin moliyalashtirish munosabatlarini tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga oid bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy va umumiqtisodiy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda, davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari va moliyaviy qonunchilik borasidagi yangiliklardan, mamlakat va xorijiy davlatlar davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining byudjetning g'azna ijrosi orqali amalga oshirilishi amaliyotidan xabardor bo'lishlari lozim.

1-MAVZU: “DAVLATNING MAQSADLI VA BUDJETDAN TASHQARI JAMG’ARMALARI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

REJA:

1. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari haqida tushuncha
2. “Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari ” fanining predmeti va maqsadi.
3. “Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari i” fanining zarurligi va vazifalari.

TAYANCH SO’Z VA IBORALAR: Davlat moliyasi, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari fondlari, ijtimoiy fondlar, iqtisodiy fondlar, ijtimoiy himoya, sog’liqni saqlash fondlari, ekologik fondlar, jamlanma byudjet, pensiya jamg’armasi, kitob jamg’armasi, bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi, Respublika yo’l jamg’armasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi, Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasi, maqsadli jamg’armalar, maqsadli jamg’armalar daromadlari.

1. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari haqida tushuncha

Davlat maqsadli jamg’armalari byudjet paydo bo’lishidan ancha avval vujudga kelgan. Ularning paydo bo’lishi davlat faoliyatining kengayishiga yangi xarajatlar va tegishli ravishda ularni amalga oshirishga zarur bo’lgan qo’shimcha mablag’lar bilan bog’liq. Eng qadimgi davlat maqsadli fondlariga qadimgi dunyoda Xitoy, Hindiston, Misr, Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimda paydo bo’lgan hayriya fondlarini kiritish mumkin. Keyinchalik bu fondlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa funktsiyalarni bajara boshlagan.

Markazlashtirilgan davlatchilikning mustahkamlanishi ko’p sonli maxsus fondlari bir xillashtiriilishiga olib keldi, keyinchalik XVII asr oxirida ular davlat byudjetiga jamlandi. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida davlat maqsadlifondlarini tashkil etish davlatlar o’z funktsiya va vazifalarini to’liq ado etish maqsadida amalga oshirilmoqda. Masalan, XIX asr oxirida Germaniya kantsleri Otto fon Bismark tomonidan jahonda birinchi ijtimoiy sug’urta tizimi yaratildi, u dunyoning turli mamlakatlarida keng tarqaldi va pensiya fondlari tuzilishiga asos bo’lgan avlodlarning birgalikda javobgarligi printsipiga asoslandi.

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davrida davlatlarda, iqtisodiy rivojlanishga ta’sirni kengaytirish zaruratidan kelib chiqib,davlat maqsadli pul mablag’lariga ega qo’shimcha fondlarini tashkil etishga ehtiyoj paydo bo’ldi. Bu davrda iqtisodiy ko’maklashuv va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, ya’ni aholining alohida ijtimoiy guruhlari manfaatlarini himoya qilish uchun davlat davlat maqsadli fondlari paydo bo’ldi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiy tangliklar davrida davlat maqsadli fondlarining aktualligi saqlanib qolmoqda, chunki:

• bu fondlari byudjet bilan birgalikda davlatning iqtisodiyotga aralashuviga imkon beradi va tadbirkorlikni moliyaviy qo’llab-quvvatlashni ta’minlaydi;

• davlat maqsadli fondlarining maqsadli xarakteri va maqsadi ularning mablag’laridan samarali foydalanishni davlat tomonidan nazorat qilishni engillashtiradi;

• ma’lum bir hollarda (faol saldo mavjudligi) fondlarning mablag’lari byudjet defitsitini qoplash uchun jalb qilinishi mumkin.

Davlat maqsadli jamg’armalarini tashkil etishning maqsadi jamiyat uchun muhim bo’lgan xarajatlarni byudjet mablag’laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta’minlashdan iboratdir.

Davlat maqsadli jamg’armalarining mablag’lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini moliyaviy ta’minlaydi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko’rsatadi. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning izchil faoliyati natijasida aholi kuchli ijtimoiy himoya qilinishi bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham rivojlantiriladi.

Davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan byudjetdan tashqari maqsadli fondlar tegishli hukumat organlarining byudjetiga bog'liq bo'lmaydi va ko'pgina mamlakatlarda yuridik shaxs huquqiga ega. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi.

Davlat byudjetidan tashqari jamg'armalar tashkil etish uchun quyidagi omillar ta'sir etadi:

• Iqtisodiyot qisman nobarqaror bo'lgan bir sharoitda tijorat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, zarur bo'lgan sharoitlarda ularning moliyaviy operatsiyalarini rag'batlantirish uchun davlat boshqaruv organlari ortiqcha moliyaviy resurslar hisobidan yangi shakldagi qo'shimcha Davlat fondlarini tashkil etish;

• Davlatning byudjetidan xoli bo'lgan Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari muayyan bir muommoni bartaraf etish yoxud mavjud muommolari ko'lamini qisqartirishga qaratilgan bo'lib , davlat tomonidan qat'iy e'tiborga molik bo'ladi. Aynan ushbu jamg'armalar qat'iy maqsadli yo'nalishga ega bo'lib, ularning moliyaviy resurslarini tashkil etish, taqsimlash va foydalanishni davlat tomonidan samarali nazorat qilish imkoniyati tug'uladi;

• Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari muayyan bir sharoitlarda, ya'ni daromadlariga nisbatan xarajatlari kam bo'lgan hollarda, ortiqcha mablag'lardan Davlat byudjeti defitsitini kredit shaklda qisqartiradi yoki moliyaviy bozordan foiz va dividend shaklida manba olib, daromadlar hajmini yanada ko'paytiradi.

Byudjetdan tashqari maqsadli fondlar umudavlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan.

Ayni paytda «byudjetdan tashqari davlat fondlari nafaqat davlatning daromadlar bazasini ta'minlashi va kelib tushgan pul mablag'larini xarajat qilishi lozim, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda aholining optimal bandligini ta'minlashi zarur»[1].

2. "Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari " fanining predmeti va maqsadi

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat maqsadlimaqsadli pul fondlarining o'rni va roli juda muhimdir. Chunki, Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarishda, aholi turmush daraja-sini oshirishda, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda bevosita Davlat byudjeti bilan birga davlat maqsadli fondlaridan ham foydalaniladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida davlat maqsadli fondlarining roli ortib borar ekan, undan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga mamlakat ichida iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan edi. Ushbu ustuvor yo'nalishlardan kelib chiquvchi vazifalarni amalga oshirishda salmoqli natija va sezilarli o'zgarishlar qo'lga kiritildi: iqtisodiyotining yuqori barqaror sur'atlar bilan o'sishi va makroiqtisodiy mutanosibligi ta'minlandi, ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ishlari davom ettirildi.

O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yo'llari uchastkalarini qurish va rekonstruktsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, «O'zavtoyo'l» davlat aktsiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga avtomobil yo'llari qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash, yo'llar bo'yidagi

[1] Vahobov A. A. Qosimova.G.A. Jamolov X.N., O'quv qullanma. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. «Moliya». T., 2004. -96 b.

infratuzilmalarni rivojlantirish yuzasidan 2015 yil uchun belgilangan vazifalarni so'zsiz bajarish bo'yicha amaliy choralar ko'rish vazifasi topshiriladi2.

Ayni paytda davlat maqsadli davlat maqsadli fondlari nafaqat davlatning daromadlar bazasini ta'minlashi va kelib tushgan pul mablag'larini xarajat qilishi, balki jamiyatda ijtimoiy masalalarni ham o'z o'rniga ega bo'lishi kerak.

"*Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari fondlar" fanining predmeti*- davlat maqsadli va byudjetdan tashqari fondlarning qonuniy asoslari va faoliyat jarayonini nazriy jihatdan o'rganishdan iboratdir.

"Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari fondlar" fanining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida talabalarga davlat maqsadli jamg'armalarining zarurligi, ahamiyati, qonuniy asoslari, fondlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir.

3."Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari" fanining zarurligi va vazifalari

Har bir jamiyat o'zining milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlariga asosan mehnatga qobiliyatsiz aholi qatlamini, vaqtinchalik ishsiz aholi qatlamini himoya qilishni va boshqa vazifalarni o'z bo'yniga oladi. Jahon tajribasidan ko'rinadiki, ushbu maxsus davlat maqsadli funktsiyalarini davlat byudjetidan amalga oshirish hamma vaqt ham samarali emas. Qoidaga ko'ra, inqirozlar, yuqori inflyatsiya, ijtimoiy va siyosiy larzalar sharoitida ushbu funktsiyalarni davlat byudjetidan moliyalashtirish samarasining pasayishini kuzatish mumkin[3].

D. Karnegi aytganidek, har bir normal shaxs sog'lom bo'lishni, oziqlanishni, uyqu va dam olishni, pul va pulga sotib olinadigan predmetlarni, narigi dunyodagi yaxshi hayotni, his-tuyg'ularni, o'z farzandlarining muvaffaqiyatlarini, o'zining kerakli inson sifatida his etishni va boshqalarni istaydi.

Har bir shaxs (bola va katta yoshdagi shaxs, ayol va erkak, boy va kambag'al, bog'bon va prezident) ob'ektiv ravishda beshta guruhga bo'linganehteyojga ega bo'ladi:

1. *Moddiy exteyoj(oziq-ovqat, kiym-kechak, uy-joy, muhit);*
2. *Sensor exteyoj (his-tuyg'u, turmush qurish);*
3. *Taraqqiyot exteyoji (o'qish, o'rganish)*
4. *Ma'naviy va madaniy ehtiyojlar (kino, san'at, adabiyot)*
5. *Ijtimoiy ehtiyojlar (o'zini anglash, boylik, boshqaruvchilik)*

Exteyojlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlari, va jamiyat taraqqiyotiga qarab o'zgarib turadi va har doim mavjud bo'ladi. Exteyojlar shaxsning fiziologik organizm sifatida mavjud bo'lishini, inson shajarasining mavjud bo'lishini, o'rab turgan ijtimoiy muhitda o'zini anglashni va takomillashib borishini ta'minlaydi.

Inson ehtiyojining asosiy qismi, ayniksa fiziologik qismi individual ravishda hayot boyliklarini (oziq-ovqat, uy-joy va boshqalar) mustaqil o'zlashtirish asosida qanoatlantiriladi. Shuningdek, birlamchi exteyojga ega bo'lgan shunday exteyojlar borki, ular:

birinchidan, har bir shaxsga birdek zarur,
ikkinchidan, bajarilishi shart bo'lgan,
uchinchidan, ma'lum bir to'lovlarni talab etadi.

Ularga avvalo insonning yashash huquqi kiradi. Albatta ushbu exteyoj ma'lum bir sub'ektlar va organlar orqali tartibga solinadi. Ushbu xizmatlar avvalo ma'lum bir to'lovlarni talab etadi. Boshqa tomondan olib qaralganda inson dunyoga xech kanday boyliksiz va xech

2 Karimov I.A. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir", T.O'zbekiston, 2015

3 *Muhammad Yussu, Juan Luis Larrabure, Cihan Terzi "V*oluntary contributions in united nations system organizations. 2012n. Jeneva. P.24

"

nimasiz keladi. Bozor munosabatlari sharoitida pul barcha tovar va xizmatlar uchun umumiy ekvivalent hisoblanadi. Bu sharoitda inson uchun asosiy faoliyat ko'proq pul topish ilinji yotadi. Pul miqdori kanchalik ko'p bo'lsa, inson ehtiyoji shuncha ko'p va to'liqroq qoplanishiga yordam beradi va uning prestiji ortib boradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolar va jamiyat himoyasi, huquq tartibotni ta'minlash davlatning mavjud bo'lishini talab etadi. Bundan esa, pul mablag'larini shakllantirish va ularni sarf etish barcha iqtisodiy sub'ektlar: shaxs, jamoa va davlatning asosiy, ob'ektiv va birinchi darajali vazifasiga aylanib boradi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari o'zining daromadlarini aniq xarajatlariga biriktirilmasligi hisobiga mablag'larning moslashishiga ko'mak beradi. Ammmo xarajat moddalari bo'yicha mablag'larning ortiqroq yo'naltirishga erishmaslik lozim, xususan bunda ijtimoiy talablar maxsus e'tiborni talab etadi, chunki hamma vaqt ushbu maqsadlar uchun xarajatlarni kamaytirishdek xavf mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham rivojlanishning eng muhim yo'nalishlarini aniqlash va mablag'larni maqsadli ishlatilishi va yo'naltirilishi ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holatlar maqsadli umumdavlat vazifalarini moliyalashtirishda tegishli byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etish uchun asos bo'ldi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun ikki usuldan foydalanish mumkin:

– ma'lum maqsadli qismini davlat yoki mahalliy byudjetlardan ajratish;

– hukumat qarorlariga asosan aniq maqsadli yangi byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etish.

– Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ikala usuldan ham foydalanilmoqda.

– Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining iqtisodiy mohiyati davlat funktsiyalarini bajarishga yo'naltiriladigan markazlashgan pul fondining shakllantirilishi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi.

– Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy mohiyati, bir tomondan, alohida aholi qatlamlariga va iqtisodiy sub'ektlarga majburiy ajratmalar yukining darajasi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, jamg'armalar mablag'larini ishlatish yo'nalishlari bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning ijtimoiy mohiyati quyidagi ikki savolga javob berish bilan ochib beriladi:

– jamg'armalarni shakllanishida kim bevosita qatnashadi?

– jamg'armalarmablag'lari qanday maqsadlarga va kimning manfaatlari yo'lida sarflanadi?

"*Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari fondlar" fanining vazifalari:*

– Davlat maqsadli jamg'armalari ning zarurligi, maqsad va vazifalari;

– Davlat maqsadli jamg'armalari ning tashkil etishning huquqiy asoslari;

– Ijtimoiy xususiyat kasb etuvchi davlat maqsadli fondlari moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish amaliyotini tahlil qilish;

– Iqtisodiy xususiyat kasb etuvchi davlat maqsadli fondlari moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish amaliyotini tahlil qilish;

– Xorijiy davlatlarda davlat maqsadli fondlarini tashkil etish asoslarini o'rganish;

– Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekistonda davlat maqsadli fondalaridan samarali foydalanish masalalarini ko'rib chiqishdan iborat.

Byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etishning maqsadi[4] jamiyat uchun muhim bo'lgan xarajatlarni byudjet mablag'laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta'minlashdir.

Byudjetdan tashqari fondlarni tashkil etilishining muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil – bu byudjet taqchilligidir. Xarajatlarni daromaddan o'sib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruxlanishini xam talab etadi. Va nihoyat, xo'jalik yuritishning va

[4] *Richard Allen and Dimitar Radev "*Managing and Controlling Extrabudgetary Funds*" 2010 y. p.26*

xususiylashtirishning ko’p qirrali shakllari, byudjet shakllari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag’larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qo’llash zaruriyatini qat’iy talab etadi.

Byudjetdan tashqari fondlar dastlab, mahsus fondlar shaklida yoki byudjet kelib chiqqunga qadar mahsus hisoblar shaklida paydo bo’lgan. Hukumat o’zining faoliyatining kengayishi bilan ularni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan mablag’larni talab etuvchi yangi xarajatlarga ehtiyoj sezardi. Bu mablag’lar mahsus maqsadlar uchun mo’ljallangan alohida fondlarda yig’ilar edi. Bu fondlar qoidaga ko’ra vaqtinchalik xarakterga edi. Davlatning rejalashtirgan tadbirlarini amalga oshirib bo’lganidan keyin ushbu fondlar o’z faoliyatini to’xtatar edi. Shu bilan bog’liq ravishda fondlar soni doimiy o’zgarib turar edi.

Markazlashgan davlatning barqarorlashishi bilan birgalikda mahsus fondlarni muvofiqlashtirish davri boshlandi. Turli fondlarni birlashtirilishi asosida davlat byudjeti tuzildi. Bugungi kunda byudjet bilan bir qatorda byudjetdan tashqari fondlarning ahamiyati ortib bormoqda. Byudjetdan tashqari fondlarga badallarni to’lovchi sifatida yuridik va jismoniy shaxslar (tadbirkorlar)-ijtimoiy kafolatlarning iste’molchilari hisoblanar ekan, to’lovlar va fondlar pul mablag’larining taqsimlanishi mamlakatning barcha fuqarolariga ta’luqli bo’ladi va shuning uchun ham byudjetdan tashqari fondlar samarali faoliyat ko’rsatishida ularning qiziqishlari kuzatiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining zarurligi nimadan iborat?
2. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining ahamiyatini tavsiflang.
3. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining qanaqa funktsiyalari mavjud?
4. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari qanday manbalar hisobiga shakllantiriladi?
5. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari qanday tasniflanadi?

2-MAVZU: DAVLATNING MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

REJA:

1. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati
2. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining guruhlanishi
3. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanish manbalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Davlat moliyasi, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari fondlari, ijtimoiy fondlar, iqtisodiy fondlar, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash fondlari, ekologik fondlar, jamlanma byudjet, pensiya jamg'armasi, kitob jamg'armasi, bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, maqsadli jamg'armalar, maqsadli jamg'armalar daromadlari.

1. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida respublikamizda iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlarida inqirozli vaziyatlar yuzaga keladi. Milliy iqtisodiyotning ko'pgina sohalarida asbob-uskunalarining eskirganligi, ularni zamonaviy vositalar bilan qayta qurollantirish zaruriyatini keltirib chiqardi, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirish kabi vazifalarni qo'ydi. Ularning barchasi albatta moliyaviy inqirozlarning yuzaga kelishiga, byudjet yetishmovchiligini ko'payishiga sabab bo'ldi. Bu sharoitda esa aholining, ayniqsa ijtimoiy jihatdan himoyalanmagan aholining hayot darajasini keskin pasayishi yuzaga keladi.

Shundan kelib chiqib, respublikada tarmoqlararo manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy chora tadbirlarga mo'ljallangan moliyaviy resurslarni ko'paytirish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Moliyaviy resurslarni umumdavlat miqyosida tashkil etishning muhim ko'rinishi bo'lib, davlat va mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Lekin bunga mos ravishda byudjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etish ham muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy resurslarni cheklanganligi, har qanday sharoitda moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Iste'mol va qayta taqsimlash iqtisodiyotning murakkab moliyaviy sharoitida o'sib boradi. Davlat byudjet daromadlarini xarajat moddalari bo'yicha noo'rin sarf xarajatlarga yo'l qo'ymaslik, ulardan maqsadli foydalanishning muhim omili hisoblanadi. Qo'yilgan vazifani amalga oshirishning ikki usulidan foydalaniladi: davlat yoki mahalliy byudjetdan ma'lum qismini ajratma qilish, hamda qonun chiqaruvchi organning qarori bilan aniq maqsadga yo'naltirilga yangi byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish.

Davlat maqsadli jamg'armalari - Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari-bu operativ mustaqillik asosida davlat tomonidan ayrim turdagi ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirish va moliyaviy resurslardan foydalanish formasidir.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari davlat moliyasining eng asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari-bu hukumat organlari tomonidan milliy daromadni alohida guruhlari foydasini qayta taqsimlash usulidir.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari 2 ta vazifani bajaradi:

1. Iqtisodiyotning ustivor tarmoqlari qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilish tarmoqlari sohasini kengaytirish.

Har bir jamiyat o'zining milliy, madaniy va tarixiy an'analariga asoslangan holda mehnat qobiliyatini yo'qotgan, vaqtinchalik ishsiz qolgan, turli sabablarga ko'ra ijtimoiy muhofazaga muhloj aholi qatlamlarini himoya qilish vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Jahon tajribasidan ma'lumki, ushbu vazifalarni faqat davlat byudjetiga tayangan holda bajarish hamma vaqt ham yetarlicha samara bermagan. Odatda, inqirozlar, yuqori darajadagi inflatsiya, ijtimoiy va siyosiy la'rzalar sharoitida ushbu vazifalarni davlat byudjetidan moliyalashtirish samarasining pasayishi ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, davlat byudjetiga turli manbalardan va turli-tuman yo'llar (soliqlar, yig'imlar, bojlar, majburiy toiovlar) bilan mablag' to'planadi, o'z navbatida, bu mablag'lar turli maqsadiarda va yo'nalishlarda sarflanadi (masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va sh.k.) Bunda aniq bir daromad turi aniq xarajalni qopiash uchun biriktirilmaydi. Shu jihatdan davlat byudjeti universal pul jamg'armasi hisoblanadi. Lekin byudjet qonunchiligi mablag'larning aniq yo'nalishlar va xarajat moddalari bo'yicha sarfetilishini talab etadi. Bunday sharoitda alohida ijtimoiy ehtiyojlarni aniq manbalar hisobidan mablag' bilan barqaror ta'minlab borish zarurati tug'iladi, chunki iqtisodiyotdagi keskinlik va uning natijasi o'laroq, byudjetdagi yetishmovchiliklar davrida aynan ushbu maqsadlar uchun xarajatlarni kamaytirishdek xavf mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham, rivojlanishning eng muhim yo'nalishiarini aniqlash va mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holatlar umumdavlat vazilalarini moliyalashtirish uchun tegishli byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni tashkil etishga jiddiy asos bo'lib xizmat qildi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini ikki usul bilan shakllantirish mumkin:

– ma'lum maqsadga mo'ljallangan jamg'arma tuzish uchun mablag'larni davlat byudjeti (yoki tegishli hududiy byudjetlar) dan ajratish yo'li bilan;

– hukumat qarorlari bilan aniq maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish va ularga majburiy to'lovlarni joriy qilish yoli bilan.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida har ikkala usuldan ham foydalanilmoqda.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etishdan maqsad - jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni mustaqil manbalar hisobidan mablag' bilan ta'minlashdir.

Maqsadli jamg'armalar dastlab maxsus jamg'armalar shaklida yoki hukumatning maxsus hisoblari shaklida paydo bo'lgan. Hukumatlar o'z faoliyatining kengayib borishi bilan uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yangi-yangi xarajatlarga ehtiyoj sezardi. Bu mablag'lar maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan alohida jamg'armalarda yig'ilar edi. Bu jamg'armalar, odatda, vaqtinchalik amal qilib, davlatning rejalashtirilgan tadbirlari amalga oshirib bo'linganidan keyin o'z faoliyatini to'xtatar edi. Shu bilan bog'liq ravishda turli maqsadlarga mo'ljallangan jamg'armalarning soni ham doimo o'zgarib turar edi.

Markazlashgan davlatning mustahkamlanishi bilan uning funksiyalarini to'laqonli bajarilishining moddiy asosi bo'lgan davlat byudjet ham mustahkamlandi. Lekin jamiyat ehtiyojlari kengayib borayotgan bugungi kunda davlat byudjeti bilan bir qatorda, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati ortib bormoqda.

Shunday qilib, davlat moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan ***byudjetdan tashqari jamg'armalar*** milliy daromadni aholining ma'lum ijtimoiy guruhlari foydasiga qayta taqsimlashning bir usulidir (1-rasm).

Byudjetdan tashqari fondlar - davlat tomonidan byudjetga kiritilmaydigan ba'zi jamoat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun mustaqil tezkorlik asosida moliyaviy resurslardan qat'iy maqsadli foydalanishning shaklidir.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari quyidagi *asosiy funktsiyalarni*[5] bajaradi:

1. Yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funktsiyasi;
2. Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funktsiyasi;
3. Ijtimoiy funktsiyasi;
4. Nazorat funktsiyasi.

Yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funktsiyasi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda o'zining qayta taqsimlash funktsiyasi bilan ishtirok etadi. Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar daromadlari shakllanadi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, davlatning funktsiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funktsiyasi. Majburiy ajratmalar va davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlari orqali byudjet iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo'lib xizmat qiladi. Bunda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlari qo'llab-quvvatlanadi. Samaradorligi yuqori bo'lgan va o'zini tez qoplovchi loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham muhimdir.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy funktsiyasi. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar katta o'rin egallaydi. Davlatning ijtimoiy kafolatlari doirasidagi xizmatlarni ko'rsatadigan ijtimoiy ta'minot va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohalarini mablag' bilan ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish - ijtimoiy siyosatning ustuvorliklari hisoblanadi. Jamiyat a'zolarining imkoniyatlarini rivojlantirish taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shunday ekan, bu yo'nalishdagi davlat tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning ijtimoiy funktsiyasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining nazorat funktsiyasi orqali davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar daromadlarining shakllanishi, ular mablag'larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag' oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan moliya qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlari nazorat qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi va ishlatilishi ustidan nazoratning zarurligi va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Davlatning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholi o'rtasida sodir bo'ladigan moliyaviy munosabatlari *byudjet munosabatlari* deyiladi. Bu munosabatlarning moliyaviy munosabatlar tizimining bir qismi sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundaki, birinchidan, bu munosabatlar ko'pqirrali taqsimlash jarayonida sodir bo'ladi va bu jarayonning ishtirokchisi bo'lib davlat (tegishli hokimiyat organlari timsolida) qatnashadi. Ikkinchidan, bu munosabatlar umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan markazlashgan pul mablag'lari fondining shakllanishi va ishlatilishi bilan bog'liq.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari quyidagi ***asosiy vazjfalarni*** bajaradi

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash;
- aholi uchun ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish va ularni moliyalashtirish.

[5] *Richard Allen and Dimitar Radev "*Managing and Controlling Extrabudgetary Funds*" 2010 y. p.32*

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari davlat moliyasi tizimining tarkibiy bo'g'ini bo'lish bilan birga, bir necha ***o'ziga xos xususiyatlarga*** ega:

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan rejalashtiriladi hamda qat'iy maqsadli yo'naltirilgan bo'ladi;

– jamg'armalar mablag'laridan byudjetga kiritilmagan davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladi;

– asosan yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy va ixtiyoriy ajratmalari asosida shakllantiriladi;

– jamg'armalarga sug'urta badallarinf to'lash va bti boradagi o'zaro munosabatlar soliq xarakteriga ega, ya'ni badallarning rniqdori va sug'urta tariflari davlat tomonidan belgiiab qo'yiladi hamda barcha to'lovchilar uchun majburiy hisoblanadi;

– jamg'armalarning pul mablag'iariga davlat egalik qiladi, ular byudjetlar va boshqa jamg'armalartarkibiga kirmaydi hamda qonun hujjatlarida ko'zda tutilmagan maqsadlarga ishlatilmaydi;

– jamg'armalar mablag'laridan maxsus ko'rsatmalarga muvofiq davlat tomonidan belgilangan maqsadlarda foydalaniladi.



1-rasm. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ta'rifi

Yuqoridagi rasmda (1-rasm) ko'rsatilganidek, ***byudjetdan tashqari jamg'armalar*** - davlat tomonidan ba'zi jamoat ehtiyojlarini qo'shimcha moliyalashtirish uchun mustaqil tezkorlik asosida moliyaviy resurslardan qat'iy maqsadli foydalanish shaklidir.

Shunday qilib xo'jalik yuritish shakllarining xilma-xilligi sharoitida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlanishini byudjet usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari o'zining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha soliqlar, davlat va bojxona bojlari to'lashdan 2 yil muddatga ozod qilinadilar.

O'zbekistonda 1992 yilda belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida 6 ta davlat maqsadli jamg'armalari tashkil etilgan:

1. ***Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi*** – ishchi kuchining bandligini ta'minlash va ishsizlik yuzasidan mavjud muammolarni hal qilish uchun;
2. ***Mineral resurslarni tiklash jamg'armasi*** – respublikamizning o'z mineral-xom-ashyo bazasini rivojlantirish uchun;

3. ***Respublika yo'l jamg'armasi*** – O'zbekiston hududida avtotransport kommunikatsiyalarini saqlab turish va riovjlantirish bo'yicha muammolarni hal qilish maqsadida;

4. ***O'zdavjamg'arma*** – makroiqtisodiy vazifalarni hal qilish uchun

5. ***Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi*** – ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta uchun;

6. ***Kasaba uyushmalari kengashlari Federatsiyasi jamg'armasi*** – mehnatkashlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun

1995 yildan boshlab davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi saqlangan holda biriktirildi.

1998 yildan boshlab davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tarkibiga – O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami daromadlari va xarajatlari biriktirildi.

2005 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjeti parametrlarida, Maktab ta'limini rivojlantirish Dasturi tadbirlarini bajarish uchun zarur bo'ladigan Moliya vazirligi huzuridagi Maktab ta'limi jamg'armasi mablag'larini alohida satrlarda bo'lishligini ko'rib chiqdi.

Maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalar tartibga ko'ra davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'ladi ammo ularning operativ boshqarilishi turli maxsus tuzilgan ma'muriy bo'g'inlar tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruvchi tizimlar qonunda ko'rsatilgan muayyan bu jamg'armalardan foydalanish bo'yicha huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Respublikamizda ayni paytda, 20 tadan ortiq ishlab chiqarish bilan bog'liq byudjetdan tashqari jamg'armalar va jamg'armalar mavjud. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy muhofaza tadbirlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga muhim omil bo'ladi. G'arb davlatlarida bunday jamg'armalar 30-80 gacha etadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz moliya tizimida amalda bo'lgan daviat byudjetdan tashqari jamg'armalarini davlatning jamlanma (konsolidatsiyalashgan) byudjetiga kiruvchi jamg'armalarga va jamlanma byudjet tarkibiga kirmaydigan jamg'armalarga ajratish mumkin.

Hozirgi vaqtda jamlanma byudjet tarkibiga quyidagi davlat jamg'armalarining daromad va xarajatlari alohida satrda kiritilgan (1-jadval):

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat Pensiya jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qoshidagi Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami;

– O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi.

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasiga muvofiq Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami va Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi davlat maqsadli jamg'armalari hisoblanadi.

1-jadval

2018 YIL UChUN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINING ASOSIY PARAMETRLARI[6]

№	Ko'rsatkichlar	mlrd. so'm
	DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI	
I.	Davlat maqsadli jamg'armalari dan tashqari daromadlar - hammasi.	62 229,5
II.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari (Moliya vazirligiga huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi byudjetdan tashqari Yo'l jamg'armasi, Moliya vazirligiga huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, Davlat Bandlik jamg'armasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi)	31 451,9
III.	O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.	5 463,5
	DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI	
I.	Davlat maqsadli jamg'armalari dan tashqari xarajatlar - hammasi.	62 170,0
II.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari (Moliya vazirligiga huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi byudjetdan tashqari Yo'l jamg'armasi, Moliya vazirligiga huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, Davlat Bandlik jamg'armasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi)	31 451,9
III.	O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi.	8 979,9

2. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining guruhlanishi

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etishning asosiy sabablari:

1. Daromadlarning konkret xarajatlarga bog'lanmaganligi.
2. Davlat byudjetining mablag'lari har doim cheklanganligi.
3. Tezkor qarorlar qabul qilish zarurligi.
4. Yangi xo'jalik yuritish sharoitida qayta taqsimlashning yangi usullarini qo'llash zarurligi.
5. Jamiyat uchun zarur bo'lgan xarajatlarni maxsus guruhlarga ajratish va ularni daromad manbalari bilan ta'minlash kerakligi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari haqida gap ketganda shuni ta'kidlash lozimki, bu jamg'armalar har doim ham davlatga tegishli bo'lmaydi, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarning kengayishi jamiyat a'zolarining turli xil, kengayib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan nodavlat maqsadii

[6] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli Qarori

jamg'armalarning shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Maqsadli jamg'armalarni quyidagi xususiyatlar bo'yicha tasnifiash mumkin (2-rasm):



2-rasm. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining tasniflanishi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining dastlabki tuzilishiga ko'ra:

– maqsadli jamg'armalarni tashkil qilish uchun davlat byudjetidan maxsus ajratilgan byudjet mablag'lari hisobidan;

– jamg'armalarning o'z mablag'lari hisobidan (masalan, fuqarolarning badallari, korxonalarning to'lovlari, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari).

Shakllantirish usuliga ko'ra:

– maxsus o'rnatilgan soliqlar va majburiy ajratmalar hisobiga;

– davlat byudjetidan ajratmalar;

– maxsus yoki ixtiyoriy zayomlar chiqarish yo'li bilan;

– qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va joylashtirish orqali.

Amal qilish muddatiga ko'ra:

– doimiy va uzoq muddat amal qiluvchi jamg'armalar (masalan, pensiya jamg'armalari, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari, bu jamg'armalar bajaradigan vazifalar nisbatan doimiy xarakterga ega bo'ladi);

– vaqtinchalik (ma'lum bir muddatga) tashkil etilgan jamg'armalar, ular jamiyat rivojlanishining maium bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiyyoki ekologik vazifalarni bajarish

uchun tashkil etiladi.

Egalik qilish huquqi va mulkiy jihatdan tegishliligiga ko'ra:

– davlatga tegishli jamg'armalar;

– turli maqsadlarda tuzilgan davlatlararo jamg'armalar;

– xalqaro jamg'armalar.

Maqsad va vazifalariga ko'ra:

– ijtimoiy maqsadlardagi jamg'armalar (pensiya jamg'armalari, bandlik jamg'arma lari, nogironlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari);

– sug'urta jamg'armalari (ijtimoiy sug'urta jamg'armasi kabi);

– iqtisodiy maqsadlardagi jamg'armalar (masalan, Yo'l jamg'armasi, Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi kabilar);

– kredit jamg'armalari (fuqarolar va xo'jalik subektlariga u yoki bu maqsadda kredit resurslarini berish uchun maxsus tashkil etilishi mumkin);

– ilmiy-tadqiqot jamg'armalari (ma'lum bir ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish va aniq ilmiy natijalarga erishish maqsadida tuzilgan jamg'armalar);

– investitsion jamg'armalar;

– ekologik maqsadlardagi milliy, xalqaro yoki hududiy darajada tashkil etilgan jamg'armalar (masalan, "Ekosan", "Orol" kabi jamg'armalar);

– siyosiy jamg'armalar (u yoki bu siyosiy kuchlarning manfaatini ko'zlab tashkil etilishi mumkin) va boshqalar.

Markazlashish darajasiga ko'ra:

– markazlashgan jamg'armalar (bunday jamg'armalar, odatda, butun mamlakat miqyosida maxsus hukumat qarorlari bilan tuziladi va umumjamiyat maqsadlarida markazlashgan tartibda ishlatiladi);

– markazlashmagan jamg'armalar (hududiy yoki mahalliy darajada, yohud biron tarmoq miqyosida tuziladi va cheklangan manfaatlarni ko'zfaydi, masalan, ilmiy-tadqiqot jamg'armalari, investitsion jamg'armalar).

Demak, mablag'larning maqsadli yo'naltirilishiga ko'ra byudjetdan tashqari jamg'armalar ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa jamg'armalarga ajratiladi.

Davlatning ijtimoiy jamg'armalari fuqarolarning pensiya va nafaqalar olish, kasalligi, nogironligi, boquvchisini yo'qotganligi holatlarida ijtimoiy ta'minlanish, sog'lig'ini muhofaza qilish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, ishsizlikdan himoyalanish kabilar bilan bog'liq konstitutsion huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ijtimoiy ahamiyatdagi jamg'armalar hukumatga faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jamg'armalar mablag'larining shakllanishida asosan sug'urtalanuvchi shaxslarning va tadbirkorlarning sug'urta badallari, davlat subsidiyalari va foizsiz ssudalaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy maqsadlardagi jamg'armalarga Pensiya jamg'armasini, Bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasini[7] va boshqa nodavlat jamg'armalarni ("Nuroniy", "Mehr nuri", "Sen yolg'iz emassan" jamg'armalari) kiritish mumkin.

Iqtisodiy jamg'armalar jamiyat xo'jalik va ijtimoiy hayotining rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy maqsadlardagi jamg'armalarga Respublika Yo'l jamg'armasi, Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi kabilar kiradi.

Oltmishinchi yillarning boshlaridan rivojlangan davlatlarda *ilmiy-texnik* jamg'armalarni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jamg'armalarning daromad qismini shakllantirishda byudjet mablag'lari bilan bir qatorda, yirik kompaniyalarning mablag'lari, universitellarning badallari va boshqa manbalardan foydalaniladi. Ushbu jamg'armalarning mablag'lari fundamental tadqiqotlar olib borish, ilmiy markazlar qurish, kadrlar tayyorlash sohasidagi dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

[7] Ayrim adabiyotlarda va me'yoriy hujjatlarda «fond» atamasining oornida «jamg'arma» so'zi ishtatilgan boolib, pul mablag'lari fondi ma'nosini anglatadi.

Turli mamlakatlarda tanlangan moliya siyosatiga mos ravishda turli yo'nalishdagi jamg'armalar tashkil etiladi. Bir mamlakatda amalda bo'lgan jamg'armaning mavjudligi, hatto u umuminsoniy va umumbashariy maqsadlarni ko'zlasada, boshqa bir mamlakatda ham xuddi shunday jamg'armaning mavjud bo'lishiga asos bo'lmaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mavjud, O'zbekiston Respublikasida esa ijtimoiy sug'urta ftinksiyalarini Pensiya jamg'armasi bajaradi.

Davriylik xususiyatiga ko'ra byudjetdan tashqari jamg'armalarni *doimiy va vaqtinchalik* jamg'armalarga ajratish mumkin, dedik. Vaqtinchalik jamg'armalar ma'lum bir davrga tuzilib, o'zining pirovard maqsadini amalga oshirganidan so'ng tugatiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida vaqtinchalik jamg'armalar jumlasiga Maktab ta'limi jamg'armasini misol qilish mumkin. Ushbu jamg'armaning tashkil etilishi va foydalanilishi 2004-2009-yillarga mo'ljallangan Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy Dasturini amalga oshirish bilan bog'liq.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida jamlanadigan davlat maqsadli jamg'armalari.

O'zbekiston Respublikasida jamlanma byudjet tarkibiga kiruvchi byudjetdan tashqari jamg'armalar *davlat maqsadli jamg'armalari* hisoblanadi. 3-rasmda O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida jamlanadigan davlat maqsadii byudjetdan tashqari jamg'armalar tarkibi keltirilgan.

2007-yildan boshlab davlat byudjeti parametrlarida alohida satr bilan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ko'zda tutila boshlandi. Mazkur jamg'arma iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida tuzilgan.

3. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanish manbalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari maqsadli foydalanish uchun yo'naltirilgan. Odatda, jamg'armaning nomida uning maqsadi va xarajatlarning maqsadli yo'naltirilishi aks etadi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanish manbalari quyidagilar:

– jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to'lovlari;
– byudjetdan ajratmalar;
– tushumlar (lotareyalar, yo'llanmalar uchun to'lovlar va boshqalar);
– vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni investitsiya qilishdan daromadlar (moliya bozorida ishtirok etish);
– bank kreditlari;
– belgilangan muddatlarda majburiy to'lovlarni to'lamaganlik uchun penya va shtraflar summasi;
– jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy badallari (homiylik).

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish manbalari ularning oldida turgan vazifalarning xarakteri va ko'lamiga qarab belgilanadi. Manbalarning turli-tumanligi va hajmiga rivojlanishning u yoki bu bosqichidagi mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy holati bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanish manbalari ham nisbatan doimiy, ham vaqtinchalik bo'lishi, shuningdek, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari bo'yicha ham turlicha bo'lishi mumkin.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari jamg'armalarning maqsadi, aniq iqtisodiy sharoitlar hamda ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan dasturlardan kelib chiqib belgilanadi. Mablag'larning ma'lum bir qismi ta'sischilik faoliyatiga, shuningdek, qimmatli qog'ozlarga qo'yiladi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari investor hamda moliya bozori subekti sifatida ishtirok etishi mumkin, chunki ko'p hollarda jamg'armalar mablag'larining shakllanish vaqti bilan ishlatish vaqti mos kelmaydi va natijada jamg'armalar ixtiyorida vaqtincha bo'sh mablag'lar paydo bo'ladi, ularni moliya bozorida foydali joylashtirishga imkon tug'iladi, ikkinchidan, mablag'larni investitsiyalashdan olingan daromadlar tegishli jamg'armaga qo'shimcha daromad keltiradi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish ularning bajarilayotgan vazifalariga va faoliyat xarakteriga bog'liq bo'ladi. Manbalar va ularning miqdorlari muayyan davrdagi mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy holatiga ta'sir etadi. Shunday qilib byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish manbalari doimiy nisbiy, shuningdek vaqtinchalik xarakteriga ega. Ular davlatning turli hududlarida ma'muriy birliklar bo'yicha turlicha bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy vaziyatlarni tezda o'zgarishi, shuningdek moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash sohasida ham boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini bermaydi. Byudjet jamg'armalaridan foydalanish davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi organlari tomonidan, byudjetdan tashqari jamg'armalar esa ijro etuvchi organlar tomonidan tartibga solinadi. Mos ravishda ikkinchi holatda byudjetdan tashqari jamg'armalarning sarflanishi operativ xarakterni kasb etsa, ular

qonunchilik organlar tomonidan qattiq nazoratni talab etmaydi, shuningdek qat'iy rejalar asosida xarajat qilish belgilanmaydi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish, shu bilan birga byudjet taqchilligini oldini olishda ham muhim omil bo'ladi. Xarajatlarning daromadlardan oshinb ketishi, ularni qoplash uchun nafaqat qo'shimcha moliyaviy resurslarni qidirib topishni shuningdek korxona, tashkilot, muassasalarda tushadigan resurslarni qayta guruhlarga ajratish asosida xarajat turlarini kamaytirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari yordamida, korxonalar ishlab chiqarish jarayoniga moliyalashtirish, subsidiyalash, kreditlash orqali ta'sir etish maxsus yo'naltirilgan manbalar va jarimalar orqali tabiatni muhofaza etish tadbirlarini belgilash va moliyalashtirish kabi chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatini tashkil etish-davlat hokimiyat organlari-respublika va mahalliy organlar tomonidan amalga oshiriladi. Ularni shakllantirish va foydalanish tegishli qonunchilik asosida tartibga solinadi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalaridan tushadigan mablag'larning sarflanishi konkret iqtisodiy vaziyatlardan kelib chiqib hamda ishlab chiqilgan va tadbiq etilayotgan dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Mablag'larning ayrim qismi ta'sichilik faoliyatiga ham yo'naltiriladi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari moliya bozorining investorlari va ishtirokchilari bo'lishlari mumkin. Bu esa birinchidan, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ikkinchidan esa investitsiya qo'yish orqali qo'shimcha daromadlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari o'z faoliyatini asosiy yo'nalishiga muvofiq soliq to'lovchilardan, davlat hamda bojxona bojlarini to'lashdan ozod etiladi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini markaziy davlat hokimiyat organlari, shuningdek mahalliy organlar ham tashkil etishlari mumkin. Markazlashgan tartibdagi byudjetdan tashqari jamg'armalar hududlaridagi byudjetdan tashqari jamg'armalariga ma'lum miqdordagi to'lovlarni amalga oshirish orqali tashkil etiladi. Mana shu asosda Pensiya jamg'armasi, Bandlik jamg'armasi, Yo'l jamg'armalari tashkil etilgan.

Hududlar miqyosida esa o'zining mahalliy manbalari hisobiga byudjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining zarurligi nimadan iborat?
2. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ahamiyatini tavsiflang.
3. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining qanaqa funktsiyalari mavjud?
4. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari qanday manbalar hisobiga shakllantiriladi?
5. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari qanday tasniflanadi?

3-MAVZU: BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI

REJA:

1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining o'rni va ahamiyati, maqsadi va vazifalari.
2. Davlat pensiyalari, ularning turlari va hisoblash tartibi.
3. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash.
4. Xo'jalik sub'ektlari va jismoniy shaxslar tomonidan Pensiya jamg'armasiga badallar ajratish tartibi

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Pensiya jamg'armasi, pensiya turlari, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy sug'urta, majburiy ajratmalar, yagona ijtimoiy to'lov, sug'urta badallari, yoshga doir pensiya, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, nogironlik pensiyasi, bola tug'ilganda beriladigan nafaqa, homiladorlik va tug'ish nafaqasi, dafn marosimi uchun nafaqa, pensiya va nafaqalarni hisoblash, pensiya va nafaqalarni to'lash.

1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining o'rni va ahamiyati, maqsadi va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi 1996 yil 27 dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasini shakllantirish to'g'risida"gi 459-sonli qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi SSSR Pensiya jamg'armasining O'zbekiston Respublikasi bo'limi bazasida 1993 yil 4 avgustda tashkil etilgan ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tarkibida shakllantirildi.

1997 yil 1 yanvardan boshlab Pensiya jamg'armasining pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tarkibiga, jamg'arma daromadi va xarajatlarining maqsadli yo'naltirilishi saqlangan holda biriktirildi. 2000 yil 14 dekabrdagi 158-11-sonli O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuniga asosan jamg'armaga, davlat maqsadli jamg'armasi maqomi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 oktabrdagi 490-sonli "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi 2005 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huziridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi.

Hozirgi vaqtda jamg'arma faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-sonli qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirishga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlaydi.

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlarning yigilishini ta'minlash, shuningdek ushbu mablag'larning Jamg'armaga to'liq tushishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari mablag'larni shakllantirish va sarflashning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolingan holda O'zbekiston Respublikasining yig'ma byudjeti tarkibiga kiritiladi va Jamg'arma balansida aks ettiriladi.

Jamg'arma yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida mustaqil balansga, hisob raqamlariga, shu jumladan xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan gerbli muxrga ega bo'ladi.

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlardan tushgan mablag'larni jamlash yo'li bilan ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish, shuningdek mablag'larning pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish Jamg'arma faoliyatining ***maqsadi*** hisoblanadi.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari va funktsiyalari hisoblanadi:

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

– pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

– tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

– mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;

– tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

a) Jamg'armaning daromadlari bo'yicha:

– jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi (keyingi o'rinlarda G'aznachilik deb yuritiladi) hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi;

– har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg'arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;

– davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

– badallar va boshqa to'lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo'jaliklari a'zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi;

b) pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo'yicha:

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi;

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko'rib chiqadi va tekshiradi;

– Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;

– zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;

– pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi;

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

– tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo’jaliklari a’zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, Davlat ijtimoiy sug’urtasi bo’yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchliligini tekshiradi;

v) pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to’lovlarga xarajatlarni amalga oshirish bo’yicha:

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblab chiqish bo’yicha operatsiyalarni amalga oshiradi, ishlamaydigan pensionerlarga aloqa tashkilotlari va banklar orqali, ishlaydigan pensionerlarga esa - tashkilotlar orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to’lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi;

– aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o’z vaqtida va to’g’ri yetkazib berilishi hamda to’lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

– yuridik shaxs bo’lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslarga, shuningdek dehqon xo’jaliklari a’zolariga - ular tomonidan ijtimoiy sug’urta bo’yicha badallar to’langan taqdirda, chaqaloq tug’ilganda beriladigan nafaqalar hisoblaydi va to’laydi;

– tashkilotlarning ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, 16 yoshgacha bo’lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo’shimcha dam olish kuni uchun to’lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko’rgan fuqarolarga kompensatsiya to’lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to’lovlarga xarajatlarini moliyalashtiradi;

g) fuqarolarning pensiya ta’minoti bilan bog’liq boshqa masalalar bo’yicha:

– ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta’minoti masalalari bo’yicha xabardor qiladi;

– belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to’lanishini tashkil etadi;

– imtiyozli pensiya ta’minoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko’rsatkichlar ro’yxatlarini qo’llash masalalari bo’yicha davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari bilan o’zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo’yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;

– fuqarolarning murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko’rib chiqadi, fuqarolarni qabul qiladi;

– "O’zbekiston pochtasi" ochiq aktsiyadorlik jamiyati va O’zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo’linmalarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to’lovlari hamda boshqa to’lovlarning to’liq va o’z vaqtida to’lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi;

– normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta’minoti masalalari bo’yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o’rganadi;

– Jamg’armaning mablag’larini oluvchilar, pensiyalar hamda Davlat ijtimoiy sug’urtasi bo’yicha nafaqalar tayinlash va to’lash to’g’risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi;

– pensiya ta’minoti masalalari bo’yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o’zaro hamkorlik qiladi;

– Jamg’arma vakolatiga tegishli bo’lgan masalalar bo’yicha qonun hujjatlarini qo’llash amaliyotini umumlashtiradi;

– pensiya ta’minoti masalalari va Jamg’armaning vakolatiga tegishli bo’lgan boshqa masalalar bo’yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi;

d) Jamg’armaning vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo’yicha:

– Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspektsiyasi, bosh, tumanlararo, tuman, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

– Jamg’arma vakolatiga tegishli bo’lgan masalalar bo’yicha e’tiroz-da’vo ishlari olib borilishini tashkil etadi va amalga oshiradi.

– Jamg’arma o’ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

– Jamg’arma vakolatiga tegishli masalalar bo’yicha axborotni davlat organlari va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so’rash va olish;

– o’z vakolatlari doirasida Jamg’armaning vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni va metodik hujjatlarni ishlab chiqish;

– majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlar miqdorlarini belgilash, shuningdek pensiya ta’minotiga tegishli bo’lgan boshqa masalalar bo’yicha takliflar kiritish;

– Jamg’arma vakolatiga kiradigan masalalar bo’yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Jamg’arma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo’lishi mumkin.

Pensiya jamg’armasining daromadlari, ularning tarkibi, shakllanish mexanizmi.

Jamg’arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi (2-jadval):

a) majburiy to’lovlar va badallar:

– belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to’lov tushumlari (3-jadval);

– alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug’urta badallari;

– fuqarolarning sug’urta badallari[8];

– jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug’urta badallari;

– majburiy ajratmalar[9] (4-jadval);

2-jadval

2018 yil uchun Moliya vazirligiga huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining asosiy ko’rsatkichlari[10]

№	Ko’rsatkichlar	mlrd. so’m
	JAMI DAROMADLAR	**23 240,1**
1.	**2018 yil boshida kutilayotgan qoldiq.**	**3 007,5**
2.	**Daromadlar.**	**20 232,6**
	shu jumladan:	
2.1.	Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to’lov.	11 808,0
2.2.	Fuqarolarning ish haqidan majburiy ijtimoiy sug’urta badallari.	4 466,3
2.3.	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning hajmidan majburiy ajratma.	2 059,9
2.4.	Boshqa daromadlar.	1 852,4
2.5	Soliqsiz tushumlar	46,4
	XARAJATLAR	**23 240,1**
1.	Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to’lash.	19 586,9
2.	Ishlaydigan pensionerlarga pensiya to’lash.	616,6
3.	Qariganda va ishga yaroqsiz bo’lganda, vafot yetganda beriladigan nafaqalar va boshqa to’lovlar.	237,7
4.	Boshqa xarajatlar.	34,0
5.	**2018 yil oxiridagi qoldiq.**	**2 765,0**

[8] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yil uchun ish haqi fondiga nisbatan 8 foiz qilib belgilangan.

[9] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sonli qaroriga asosan 2018 yil uchun majburiy ajratma 3,2 foiz qilib belgilangan.

[10] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sonli qarori.

3-jadval

Yagona ijtimoiy to‘lov
STAVKASI[11]

	Soliq to‘lovchilar	***Mehnatga haq to‘lash fondiga nisbatan % stavkasi***
1	Mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo‘jaliklari	15*
2	1-bandda nazarda tutilmagan boshqa soliq to‘lovchilar	25*

**) Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari.*

Mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov summasi belgilangan tartibga muvofiq davlat maqsadli jamg‘armalari hamda O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi o‘rtasida quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo‘jaliklari bo‘yicha:

budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga	*14,8%*
Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga	*0,1%*
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga	*0,1%*
budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga	*24,8%*
Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga	*0,1%*
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga	*0,1%*

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan davlat maqsadli jamg’armalariga majburiy ajratmalar miqdori ***3,2 foiz***[12] qilib belgilangan holda quyidagi taqsimlanadi.

4-jadval

Majburiy ajratmalarni Davlat maqsadli jamg’armalariga taqsimlash
NORMATIVLARI

Davlat maqsadli jamg’armalari	**Taqsimlash, majburiy ajratmalarga nisbatan %larda**
byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga	46,88%
Respublika yo’l jamg’armasiga	43,75%
Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasiga	9,37%

Izohlar:

Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga qonun hujjatlariga ko’ra ilgari taqdim etilgan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armasiga majburiy ajratmalar bo’yicha imtiyozlar O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasiga majburiy ajratmalarga ham tatbiq etiladi.

Respublika yo’l jamg’armasi va (yoki) Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasi bo’yicha imtiyozga ega bo’lgan korxonalar davlat maqsadli jamg’armalariga majburiy ajratmalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga to’liq hajmda o’tkazish bilan imtiyozli 1,5% stavkasi bo’yicha to’laydilar.

[11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi 3454-sonli qarori.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sonli qarori.

b) boshqa to’lovlar:

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida"gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo’lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo’lganlarga pensiyalar to’lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da’volar) bo’yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag’larning 85 foizi;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida"gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to’lash xarajatlarini qoplash uchun o’tkaziladigan O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko’maklashish jamg’armasi mablag’lari;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida"gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to’lash xarajatlarini qoplash hisobiga o’tkaziladigan yuridik shaxslar mablag’lari;

– dehqon xo’jaliklari a’zolarining ixtiyoriy tartibda to’lanadigan sug’urta badallari;

– hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlar o’z vaqtida to’lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta’minlash maxsus jamg’armasiga hamda Jamg’arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag’batlantirish jamg’armasiga undiriladigan summalardan tashqari);

– yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo’jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo’jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog’liq holda mayib bo’lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog’lig’iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yetkazilgan zararni qoplash uchun to’lanadigan summalar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan, Davlat byudjeti mablag’lari va ixtiyoriy badallar.

Majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlarni o’tkazish Jamg’arma daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi bo’yicha Jamg’armaning banklardagi tegishli hisob raqamlari bo’yicha amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

– manbalar turlari bo’yicha Jamg’armaga majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlarning to’g’ri hisoblanishi, to’liqligi va o’z vaqtida to’lanishi nazorat qilinishini;

– manbalar turlari va to’lovchilar bo’yicha Jamg’armaga majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlar hisobi yuritilishini;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Jamg’armaga majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlar to’g’ri hisoblanishini, shuningdek Jamg’arma bilan o’zaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;

– qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlarni hisoblash tartibi va to’lash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma’muriy javobgarlik choralari qo’llanilishini;

– badallarning shaxslar bo’yicha hisobini amalga oshirish va mehnat daftarchalarini yuritish uchun har chorakda Jamg’armaga yuridik shaxs bo’lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanadigan shaxslar va dehqon xo’jaliklari a’zolari tomonidan to’langan badallarning miqdorlari to’g’risidagi ma’lumotlar taqdim etilishini ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi Jamg’armaning ijro etuvchi apparatiga:

– tushgan majburiy to’lovlar, badallar va to’lovlar to’g’risidagi, Jamg’armaga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to’lovlar turlari bo’yicha qarzlar to’g’risidagi tezkor hisobotni har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha;

– majburiy to’lovlar, badallar va boshqa to’lovlarni hisoblash va to’lash to’g’risidagi hisobotni yuridik shaxslar tomonidan choraklik va yillik hisobot taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida taqdim etadi.

Pensiya jamg'armasi xarajatlari va ularning tarkibi.

***Jamg'arma mablag'lari* (2-jadval):**

a) ishlamaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash uchun;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar uchun sarflanadi.

To'lovlarni moliyalashtirish tartibi. Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiya to'lovlarini moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning joylardagi organlari tomonidan alohida hisob, raqamlari ochiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj miqdorini to'lov to'lanadigan har bir oyning 10-kunigacha aniqlaydi va Ijro etuvchi direktsiyaga buyurtmanoma beradi.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktsiyasi Jamg'arma mablag'larini Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan:

– joriy to'lov oyining 15-kunigacha o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobining 50 foizi miqdoridagi summani;

– joriy to'lov yilining 27-kunigacha amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani sarflaydi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, o'z navbatida, ikki bank kuni mobaynida tegishli mablag'larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining hisob raqamlariga o'tkazadi, ular buyurtmanomalar asosida mablag'larni tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlariga belgilangan tartibda va muddatlarda o'tkazadi.

Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlar uchun mablag'larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisob raqamlariga o'tkazadi.

Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo'yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn marosimi uchun nafaqalar, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarning ota-onalaridan biriga qo'shimcha dam olish kunlari uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni to'lashga mablag'larni moliyalashtiradi.

Jamg'armaning hisob raqamlaridan mablag'larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o'tkazish va vaqtincha olib qo'yish taqiqlanadi.

Jamg'arma mablag'larining to'g'ri hisoblanishi, to'lanishi va foydalanilishi ustidan nazorat. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lashda Jamg'arma mablag'laridan to'g'ri foydalanilishini nazorat qilish Jamg'armaning ijro etuvchi apparati va uning hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlari, shuningdek tashkilotlarning rahbarlari va bosh buxgalterlari tomonidan amalga oshiriladi.

Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarning to'g'ri tayinlanishi va to'lanishini, shuningdek Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning mahalliy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Zarurat bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi organlari tomonidan, mustaqil ekspertlar jalb qilingan holda bosh, tumanlararo, tuman va shahar tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan ko'rikdan o'tkazish dalolatnomalari va xulosalar hujjatlari takroran ekspertizadan o'tkazilishi mumkin.

Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash bo'yicha xarajatlarning, shuningdek tashkilotlarning ijtimoiy sug'urta bo'yicha xarajatlarining o'z vaqtida moliyalashtirilishi yuzasidan monitoring olib borish Jamg'armaning ijro etuvchi apparati va uning hududiy boshqarmalari hamda joylardagi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. Davlat pensiyalari, ularning turlari va hisoblash tartibi.

Davlat pensiyalari va ularning turlari.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi 938-XII sonli "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, basharti, davlatlararo bitimlar (shartnomalar)da o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

Qonun bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi:

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin.

Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

Harbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Ularga Qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi bitimlar (shartnomalar)da Qonundagidan boshqacha qoidalar nazarda tutilgan hollarda, ana shu bitimlar (shartnomalar)da belgilangan qoidalar tegishli ravishda qo'llaniladi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga (“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunning 7-moddasi):

– erkaklar - 60 yoshga to’lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo’lgan taqdirda;

– ayollar - 55 yoshga to’lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo’lgan taqdirda ega bo’ladilar.

To’liq pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo’lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar bor stajga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan 1, 2, 3-sonli ro’yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo’ladilar, chunonchi[13]:

Yoshidan qat’i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro’yxati;

Umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko’rsatkichlarning 2-sonli ro’yxati;

Umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko’rsatkichlarning 3-sonli ro’yxati. Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga, shuningdek urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar, pakanalar va ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar egadirlar.

Yoshidan qat’i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo’ladilar (“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunning 10-moddasi):

a) kon sanoatidagi etakchi kasb egalari bo’lgan xodimlar - basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo’lsalar (1-sonli ro’yxat, I qism);

b) bevosita erosti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko’mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to’liq ish kuni davomida band bo’lgan xodimlar - basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo’lsalar (1-sonli ro’yxat, II qism);

v) uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo’ysunuvidan qat’i nazar, belgilanganxizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (1-sonli ro’yxat, III qism).

Yuqorida qayd etib o’tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko’ra uchish ishlaridan bo’shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini - erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo’lsalar;

g) teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari:

– ijodiy ish staji kamida 20 yil bo’lganda (1-sonli ro’yxat, IV qism qism);

– ijodiy ish staji kamida 25 yil bo’lganda (1-sonli ro’yxat, V qism);

– ijodiy ish staji kamida 30 yil bo’lganda (1-sonli ro’yxat,VI qism);

d) sportchilarning ayrim toifalari - ish staji kamida 20 yil bo’lganda (1-sonli ro’yxat, VII qism).

Oxirgi ish joyidan qat’i nazar, quyidagilar “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo’ladilar (“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunning 11-moddasi):

a) yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o’ta zararli va o’ta og’ir ishlarda to’liq ish kuni davomida band bo’lgan xodimlar (2-sonli ro’yxat, I qism):

– erkaklar - ish staji kamida 20 yil bo’lib, bundan kamida 10 yili ko’rsatib o’tilgan ishlarga to’g’ri kelgan taqdirda;

[13] O’zR VMning 1994 yil 19 maydagi “Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko’rsatkichlarning ro’yxatini tasdiqlash to’g’risida” gi 250-sonli Qarori

– ayollar - ish staji kamida 15 yil bo'lib, bundan kamida 7 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Yer osti ishlaridagi mehnat staji erkaklarda 10 yildan kam va ayollarda 7 yilu 6 oydan kam bo'lgan hollarda xodimlarga bu ishlardagi har bir to'liq yil "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi 1 yilga qisqartiriladi.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda - erkaklar kamida 5 yil, ayollar kamida 3 yil 9 oy - ishlagan xodimlarga pensiya "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi shunday ishda band bo'lingan har bir to'liq yil uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

b) sirklar va kontsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda (2-sonli ro'yxat, II qism).

Oxirgi ish joyidan qat'i nazar, quyidagilar "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar ("Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 12-modda):

a) urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar;

b) mehnat sharoiti zararli va og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar (3-sonli ro'yxat, I qism):

– erkaklar - ish staji kamida 25 yil bo'lib, bundan kamida 12 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

– ayollar - ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda. Mehnat sharoiti zararli va og'ir ishlarda - erkaklar kamida 6 yilu 3 oy, ayollar kamida 5 yil - ishlagan xodimlarga pensiya "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi erkaklarning bunday ishdagi har 2 yilu 6 oyi uchun va ayollarning bunday ishdagi har 2 yili uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

z) bolalikdan nogiron farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan bo'lsa - ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda. Basharti, ayol o'gay o'g'il va o'gay qizni ular 8 yoshga to'lguniga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo'lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinadi;

k) nogiron bolalar uchun ixtisoslashgan ta'lim muassasalari, «Mehribonlik» uylari, harbiy akademik litseylar, tarbiya koloniyalari o'qituvchilari - maxsus ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda (3-sonli ro'yxat, VII qism);

l) ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning shifokorlari va o'rta tibbiy xodimlari - maxsus ish staji qishloq joyda kamida 25 yil va shaharlarda kamida 30 yil bo'lgan taqdirda (3-sonli ro'yxat, VIII qism);

m) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining qariyalar, nogironlar va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatishda bevosita band bo'lgan xodimlari (3-sonli ro'yxat, IX qism):

– erkaklar-maxsus ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

– ayollar-maxsus ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda.

Belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga girofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar:

– erkaklar - ish staji kamida 20 yil bo'lganda;

– ayollar - ish staji kamida 15 yil bo'lganda ega bo'ladilar.

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar:

– erkaklar - 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

– ayollar - 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda pensiya oish huquqiga ega bo'ladilar.

Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyati to'liq yoki qisman yo'qotilgan quyidagi hollarda tayinlanadi:

a) mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Nogironlik sabablari[14] va Kasb kasalliklari ro'yxati bo'yicha[15] **(1-2 ilovalar);**

b) umumiy kasallik (shu jumladan, ish bilan bog'liq bo'lmagan shikastlanish, mayiblik, bolalikdan nogironlik) tufayli.

Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi **(5-jadval)**:

5-jadval

Umumiy kasallik tufayli nogironlik pensiyalari uchun talab etiladigan ish stajlari[16]

Yosh	Ish staji
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

To'liq pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlik pensiyalari bor stajga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

Vafot etgan boquvchining qaramog'ida ("Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi) bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va 20-moddaning «v» bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

[14] Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 1 iyuldagi 195-son qaroriga 1-Ilova

[15] Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 1 iyuldagi 195-son qaroriga 2-Ilova

[16] O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi 938-XII sonli "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining 17-moddasi

Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadilar *("Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 20-moddasi):*

a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 16 yoshdan katta bo'lsa ham 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa;

b) ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar;

v) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er(xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, orasingillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa;

g) buva va buvi - agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar.O'gay ota va o'gay ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Vafot etganlar oilalariga taalluqli hamma qoidalari bedarak yo'qolganlarning oilalariga ham, agar boquvchining bedarak yo'qolganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan bo'lsa, tegishli ravishda joriy qilinadi.

Ko'rsatib o'tilgan oila a'zolari, agar ular marhumning to'liq boquvida bo'lgan yoki undan yordam olib turgan bo'lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbai hisoblangan bo'lsa, marhumning qaramog'ida turgan deb hisoblanadilar.

Marhumning biron turdagi pensiya olayotgan oila a'zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbai hisoblangan bo'lsa - boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga o'tish huquqiga egadirlar.

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Basharti, boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo'lgan bo'lsa, umumiy kasallik yoki ish bilan bog'liq bo'lmagan mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanadi.Boshqa mamlakatlardan ko'chib kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, basharti, boquvchi O'zbekiston Respublikasida ishlamagan bo'lsa, pensiyalar quyidagi hollarda tayinlanadi:

a) boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olgan oilalarga - boquvchisining ish stajidan qat'i nazar;

b) pensiya olmagan oilalarga - basharti, boquvchi ishlash to'xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo'lgan bo'lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chaliganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa - boquvchining ish stajidan qat'i nazar.

Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini to'liq tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

Er (xotin)ning vafot etganligi sababli tayinlangan pensiya pensioner yangi nikohdan o'tganida ham saqlanib qoladi.

Oilaning pensiya olish huquqiga ega bo'lgan barcha a'zolariga bitta umumiy pensiya tayinlanadi.Oila a'zosining talabi bilan uning pensiyadagi ulushi ajratilib, alohida to'lanadi.

Pensiyadan ulush ajratib berish pensiyani bo'lish to'g'risida ariza tushgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi.

Pensiyalarni va ish haqini hisoblab chiqish tartibi.

Pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi:

- pensiyaning tayanch miqdoridan;
- ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan;
- pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan.

Pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilanadi:

a) yoshga doir to'liq pensiya uchun - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

g) oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

d) ota-onasidan judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida.

To'liq pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari quyidagicha oshiriladi:

a) yoshga doir pensiyalar - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari - pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

g) boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a'zosi uchun - boquvchining o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

Otasidan ham, onasidan ham judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, eng kam oylik ish haqining yetti hissa miqdori doirasida amalga oshiriladi.

Hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi ("Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 28-moddasi):

a) I guruh urush nogironlariga - eng kam oylik ish haqining 150 foizi;

b) II guruh urush nogironlariga - eng kam oylik ish haqining 125 foizi;

g) ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironlariga - eng kam oylik ish haqining 100 foizi;

d) I guruh nogironlariga - eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

e) II guruh yolg'iz nogironlariga - eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

j) urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga - eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

z) Ulug' Vatan urushi yillarida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga - eng kam oylik ish haqining - 30 foizi;

i) vafoti harbiy xizmat burchlarini bajarish bilan bog'liq harbiy xizmatchilarning ota-onalari va xotinlariga (yangi nikohdan o'tmaganlarga) - eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

k) O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga - xizmatlariga qarab - eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;

l) yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga - eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

m) teatr-kontsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san'ati ijodiy xodimlari tayyorlovchi o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va

kontsertmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ro'yxatga ko'ra - eng kam oylik ish haqining - 50 foizi.

Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar:

– yoshga doir pensiyalar uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

– I guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun - eng kam oylik ish haqining 100 foizidan;

– II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

– oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

– ham otasi, ham onasidan judo bo'lgan (chin yetim) har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun - eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Ustama haqlar tayinlanayotgan pensiyaning turidan qat'i nazar qo'shib hisoblanadi. Pensiya so'rab murojaat etgan kishiga "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun 28-moddasining «a», «b» yoki «v» bandlarida nazarda tutilgan ustama haq bilan bir paytda shu moddaning «k» bandida ko'rsatilgan ustama haq qo'shib hisoblanishi mumkin.

Pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun 28-moddasining «g», «d» yoki «e» bandlarida nazarda tutilgan ustama haq bilan bir paytda shu moddaning «j» yoki «z» bandlarida ko'rsatilgan ustama haqlardan biri, shuningdek «k» bandida ko'rsatilgan ustama haq qo'shib hisoblanishi mumkin.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat'i nazar, oxirgi o'n yllik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yil uchun (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) amaldagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi.

O'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oydagi ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga qarab, ishga kirish yoki ishdan bo'shash munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar ishlangan to'liq kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiya so'rab murojaat etgan kishi besh yildan oz vaqt ishlagan hollarda o'rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylaridagi ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda amaldagi o'rtacha oylik ish haqi istalgan ketma-ket besh mavsumdagi ish haqini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam ish haqining sakkiz hissasidan ortiq bo'lmagan ish haqi olinadi. Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar umuman bo'lmagan hollarda ish staji uchun pensiya eng kam oylik ish haqiga qarab hisoblab chiqariladi.

Pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun ish haqiga amaldagi qoidalarga ko'ra sug'urta badallari olinadigan mehnat haqining barcha turlari qo'shiladi, amaldagi ish haqi to'lash tizimida nazarda tutilmagan bir martalik xususiyatga ega bo'lgan to'lovlar bundan mustasnodir. Davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalanmaydigan shaxslarning pensiyasini hisoblab chiqarish uchun ish haqiga sug'urta badallari olinadigan mehnat haqi turlariga o'xshash pul ta'minotining barcha turlari qo'shiladi. Pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga binoan o'quv davrida to'langan stirendiya ish haqiga tenglashtiriladi.Ish vaqtini hisob-kitob qilish mumkin bo'lmagan xodimlarning (fermerlar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, ayrim fuqarolarning yumushlarini bajaruvchilar va hokazo) pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun ish haqi miqdori O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallari miqdoriga qarab aniqlanadi. Ish haqining natural qismi ijtimoiy sug'urtaga o'tkazilgan badallar miqdoriga qarab baholanadi.

Ishlovchilarning ish haqiga mintaqaviy koeffitsient belgilangan hududlarda yashovchi shaxslar va oilalarga pensiya tayinlashda mintaqaviy koeffitsient e'tiborga olingan holda hisoblab chiqilgan amaldagi ish haqi hisobga olinadi.

Pensioner larning oilalariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari pensionerning (boquvchining) o'z pensiyasi qaysi ish haqidan hisoblab chiqarilgan bo'lsa, o'sha ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Boshqa davlatlardan ko'chib kelgan, O'zbekiston Respublikasida ishlamagan fuqarolarga pensiyalar O'zbekistondagi tegishli kasb hamda malakadagi xodimlarning pensiya tayinlanayotgan vaqtdagi o'rtacha oylik ish haqiga asoslangan holda hisoblab chiqariladi.Basharti, bunday kasb hamda malakalar resrublikada bo'lmasa, o'rtacha oylik ish haqini aniqlash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab beradi.

Chet elda ishlashga yuborilgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarishda ular chet elga yuborilishidan oldin olgan ish haqi hisobga olinadi.

Quyidagilar ish stajiga qo'shib hisoblanadi ("Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun 37 –moddasi):

a) faoliyat turi, mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan har qanday ish, agar u Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsa.

1965 yildan keyingi davr uchun jamoa xo'jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo'jaligi a'zosi uzrsiz sabablarga ko'ra jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi.

Ijodiy faoliyat bilan mashg'ul xodimlarning ish stajini, basharti ular Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana shu muallifning asari e'lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e'tiboran belgilaydilar;

b) harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo'shilmalarida bo'lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;

v) idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog'-kon-qutqaruv qismlaridagi xizmat;

g) yakka tartibdagi mehnat faoliyati, shu jumladan yakka (guruhli) ijara sharoitidagi yoki shaxsiy yordamchi, dehqon (fermer) xo'jaligidagi faoliyat - Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langan taqdirda;

d) I guruh nogironiga yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaga, shuningdek o'zgalarning rarvarishiga muhtoj bo'lgan (davolash muassasasining xulosasiga ko'ra) 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt;

e) oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, bilim yurtlarida, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va yangi ixtisosni o'rganish maktablari va kurslarida, asriranturada, doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o'qish, shu jumladan chet elda o'qish;

j) onaning (o'gay onaning) bolalarini (o'gay o'g'illarini, o'gay qizlarini) go'daklik yoshida rarvarishlagan vaqti, lekin ko'ri bilan har bir bola 3 yoshga to'lguncha, hammasini jamlaganda 6 yil doirasida;

z) ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslarning praporshchiklarning, michmanlarning va muddatdan tashqari xizmat harbiy xizmatchilarining xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo'lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;

«e» - «z» bandlarda nazarda tutilgan davrlar «a» - «g» bandlarida ko'rsatib o'tilgan umumiy staj kamida 5 yil bo'lgan taqdirda ish stajiga qo'shib hisoblanadi. Nogiron bo'lib qolgan shaxslar stajiga «e» - «z» bandlarda nazarda tutilgan davrlar «a» - «g» bandlarida ko'rsatib o'tilgan staj muddatidan qat'i nazar qo'shiladi.Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida I va II guruh nogironligida bo'lingan vaqt yoshga doir yoki boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanayotganida stajga qo'shib hisoblanadi.Yoshga doir pensiya tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt pensiyani hisoblab chiqarish uchun stajga qo'shib hisoblanmaydi. Ota-

onasidan judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish ham ota, ham onaning umumiy ish stajiga qarab, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi «g» bandida ko'rsatib o'tilgan miqdorlarda amalga oshiriladi.

Stajga quyidagilar imtiyozli tarzda qo'shib hisoblanadi:

a) harakatdagi armiya tarkibiga kiruvchi harbiy qismlar, shtablar va muassasalardagi, jangovar harakatlar davrida partizan otryadlari va qo'shilmalaridagi xizmat va erkin yollanganlar tarkibidagi ish, baynalmilal burchni bajarishda jangovar harakatlarda ishtirok etish - uch hissa barobarida;

b) Ulug' Vatan urushi yillarida (1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 mayga qadar) mamlakat ichkarisida ishlash, shu jumladan harbiy qismlardagi erkin yollanganlar tarkibidagi ish va «a» bandda nazarda tutilgan xizmatdan tashqari harbiy xizmat - ikki hissa barobarida;

v) imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan - erkaklarda 10 yildan ortiq va ayollarda 7 yilu 6 oydan ortiq ishlangan har bir to'liq yil - ikki hissa barobarida;

g) moxovxonalarda, vaboga qarshi muassasalarda, immunodefitsit virusi bilan kasallangan shaxslar davolanadigan yuqumli kasalliklar muassasalarida ishlash - ikki hissa barobarida;

d) patologoanatomiya muassasalari va sud-tibbiy eksrertiza muassasalarining tibbiy xodimlaridan ayrim toifalarining ishi - bir yarim hissa barobarida;

e) asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan, asossiz ravishda qatag'on qilingan va keyinchalik oqlangan fuqarolarning qamoqda bo'lish va hibsda saqlash joylarida turgan vaqti - bir yarim hissa barobarida.

Sanoatning mavsumiy tarmoqlariga oid korxonalar va tashkilotlarda band bo'lgan xodimlarning to'liq mavsum mobaynidagi ishi bir yil ishlagan deb, to'liq mavsum davomida ishlamagan bo'lsa, haqiqiy ishlagan davri hisobga olinadi.Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya olish huquqini beradigan erosti ishlari stajini hisoblab chiqishda "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun 10-moddasining «a», «b» bandlari va 11-moddasining «a» bandi) ana shu ishda orttirilgan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida nogironlikda bo'lgan vaqti "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun 38-moddasining «v» bandida belgilangan qoidalar qo'llanmasdan ko'rsatib o'tilgan stajga qo'shiladi.

Chet elda ishlangan davrlar Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan taqdirda, agar davlatlararo bitimlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanma (bitim) asosda chet elda ishlaganligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar mehnat daftarchasiga kiritgan qaydnomalarga qarab aniqlanadi.Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga chet eldagi ishi O'zbekiston Respublikasida ishlanganiga to'g'ri keladigan stajning 1/3 hissasidan oshmagan miqdorda, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, stajga qo'shiladi.

Imtiyozli shartlarda pensiya tayinlashda, basharti, hisobga o'tadigan ishlar ayni shunday yoki ancha imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini bergan taqdirda, 1, 2 va 3-sonli ro'yxatlarda nazarda tutilgan ish davrlari o'zaro hisobga olinadi.

Mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mehnat daftarchasi yoki unda tegishli yozuvlar bo'lmagan taqdirda ish stajini tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Pensiyalarni tayinlash, qayta hisoblash va to'lash.

Xodimlarga va ularning oila a'zolariga (boquvchisini yo'qotgan taqdirda) pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza oxirgi ish joyidagi korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati orqali beriladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), boshqa kooperativlarning a'zolariga va ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza kooperativ boshqaruvi orqali beriladi.

Ma’muriyat (boshqaruv) ariza tushgan kundan e’tiboran 10 kunlik muddat ichida staj va ish haqi to’g’risidagi zarur hujjatlarni rasmiylashtiradi hamda ularni berilgan ariza va o’z taqdimnomasi bilan birga arizachi istiqomat qiladigan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limiga yuboradi. Basharti, pensiya tayinlashni so’rab murojaat etgan xodimga pensiya tayinlashga tavsiya etish rad qilinsa, unga rad etish sabablari ko’rsatilgan holda yozma xabar qilinadi.

Pensiya tayinlashni so’rab murojaat etgan shaxs ma’muriyatning (boshqaruvning) pensiya tayinlashga tavsiya etishni rad etgan qaroriga rozi bo’lmagan hollarda, u pensiya tayinlanishini so’rab bevosita O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limiga ariza berishi mumkin.

Dehqon xo’jaliklari a’zolariga, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslarga, boshqa fuqarolarga va ularning oila a’zolariga pensiya tayinlash to’g’risidagi ariza bevosita arizachining istiqomat joyidagi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limiga beriladi.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limlari pensiyalar tayinlash masalalari yuzasidan tushuntirish va ma’lumotlar berishlari, shuningdek arizachiga zarur hujjatlarni olishida ko’maklashishlari shart.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limlari korxonalar, tashkilotlar va ayrim shaxslardan tegishli hujjatlarni talab qilish, zarur hollarda esa, ularning berilishi asosliligini tekshirish huquqiga egadirlar.

Korxonalar va tashkilotlar pensiya uchun (pensiya qayta hisoblanishi uchun) hujjatlarni o’z vaqtida taqdim etmaslik yoki ishonchsiz ma’lumotlari bo’lgan hujjatlarni taqdim etish oqibatida pensionerga yetkazilgan zarar uchun uning oldida qonun hujjatlarida belgilanganidek javobgar bo’ladilar.

Korxona yoki pensioner tomonidan ma’lumotlari ishonchsiz hujjatlar taqdim etilganligi oqibatida davlatga zarar yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan zararning o’rni O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga qoplanadi. Bunda korxona tomonidan yetkazilgan zararning o’rni O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limidan tegishli xabarnoma olingan kundan e’tiboran bir oy ichida, pensioner tomonidan yetkazilgan zararning o’rni esa Qonunning 65-moddasida nazarda tutilgan tartibda qoplanadi.

Pensiyalarni O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limlari tayinlaydi.

Pensiya tayinlash to’g’risidagi hujjatlar ular tushgan kundan e’tiboran 10 kundan kechiktirmasdan qarab chiqiladi.

Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limi tegishli qaror chiqarilganidan keyin besh kun ichida korxona, tashkilot yoki arizachiga pensiya tayinlash rad etilgani haqida rad etish sabablari va shikoyat berish tartibi ko’rsatilgan xabarnomani beradi yoki jo’natadi hamda ayni chog’da barcha hujjatlarni qaytaradi.

Taqdimnoma yoki ariza barcha zarur hujjatlar bilan qabul qilib olingan kun pensiya uchun murojaat etilgan kun deb hisoblanadi. Taqdimnomaga yoki arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limi korxona, tashkilot ma’muriyatiga yoki arizachiga qo’shimcha ravishda qaysi hujjatlar taqdim etilishi kerakligi haqida xabar qiladi. Basharti, ular qo’shimcha hujjatlar taqdim etilishi zarurligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e’tiboran uch oy ichida taqdim etilsa, unda pensiya tayinlanishi to’g’risidagi taqdimnoma yoki ariza qabul qilingan kun pensiya tayinlanishi uchun murojaat etilgan kun deb hisoblanadi.

Pensiyalar:

a) yoshga doir pensiya - agar pensiya olish huquqi paydo bo’lgan kundan boshlab uch oy ichida uni so’rab murojaat etilgan bo’lsa, pensiya yoshiga to’lgan kundan e’tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi;

b) nogironlik pensiyasi - agar nogironlik belgilangan kundan boshlab uch oy ichida pensiya so'rab murojaat etilgan bo'lsa, TMEK nogironlikni belgilagan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya butun nogironlik davri uchun tayinlanadi. 60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayol nogironlarga - nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi. Ana shu nogironlarni qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi;

v) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi - pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab, lekin pensiya tayinlanishi uchun murojaat etishdan oldingi 6 oydan oshmagan muddatdan e'tiboran tayinlanadi. Pensiya Qonunning 19-moddasiga muvofiq marhumning oila a'zosi mehnatga qobiliyatsiz deb hisoblangan butun davr uchun, oilaning: erkaklar - 60 yoshga, ayollar - 55 yoshga to'lgan a'zolari uchun esa - umrbod tayinlanadi. Boshqa barcha hollarda pensiya murojaat etilgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Bir pensiyadan boshqasiga o'tkazish pensioner tegishli ariza va barcha zarur hujjatlar bilan murojaat etgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran amalga oshiriladi.

Pensiya tayinlash to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat tuman (shahar) sudiga berilishi mumkin.

Pensiyalarni qayta hisoblash:

– pensioner pensiya miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo'lgan ish staji va ish haqi to'g'risidagi hamda boshqa) qo'shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda;
– nogironlik guruhi o'zgarganda;
– boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oladigan oila a'zolari soni o'zgarganda;
– eng kam oylik ish haqi miqdorlari o'zgargan taqdirda;
– daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana shunday huquq paydo bo'lganidan keyin istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin.

Pensiyani oshirish huquqi paydo bo'lganida tayinlangan pensiyani qayta hisoblash pensioner pensiyani qayta hisoblash uchun murojaat etgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi. Pensiya miqdorini kamaytirishga sabab bo'ladigan holatlar vujudga kelgan taqdirda qayta hisoblash ana shu holatlar paydo bo'lgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi.

Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarni ular istiqomat qilib turgan joydagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlari to'laydi.

Ishlab turgan pensionerlarga pensiyalar ularning ish joyida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

Qayta ko'rikdan o'tkazilgan shaxs mehnatga qobiliyatli deb tan olingan taqdirda pensiya uni mehnatga qobiliyatli deb torilgan oyning oxirigacha, lekin nogironlik belgilab qo'yilgan kungacha bo'lgan muddatga to'lanadi.

Agar nogiron uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda qayta ko'rikdan o'tish uchun TMEKga bormagan bo'lsa, unga pensiya to'lash to'xtatib qo'yiladi, uni yana nogiron deb tanolingan taqdirda to'xtatib qo'yilgan kundan, lekin ko'ri bilan o'tgan bir oydan boshlab pensiya to'lash davom ettiriladi.Uzrli sababga ko'ra qayta ko'rikdan o'tish muddati o'tkazib yuborilganda, agar TMEK uni ana shu davrda nogiron bo'lgan deb torsa, pensiya to'lash to'lov to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab to qayta ko'rikdan o'tish kunigacha, lekin ko'ri bilan o'tgan uch yil uchun davom ettiriladi. Bunda nogiron qayta ko'rikdan o'tkazish chog'ida nogironlikning boshqa guruhiga (yuqori yoki rast guruhga) o'tkazilgan bo'lsa, pensiya ko'rsatib o'tilgan vaqt uchun avvalgi guruh bo'yicha to'lanadi.Umumiy kasallik oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotgan nogironga mehnat qobiliyati tiklanganligi sababli pensiya to'lash to'xtatilgan yoki uzrsiz sabablarga ko'ra qayta ko'rikdan o'tishga kelmaganligi oqibatida to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda, agar pensiyani to'lash to'xtatilganidan keyin besh yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lsa, ilgari tayinlangan pensiyani to'lash nogironlik belgilangan kundan boshlab davom ettiriladi. Agar besh yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, pensiya yana umumiy asoslarda tayinlanadi.

Chin yetim bolalarga to'liq davlat ta'minotida turgan davrida eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida pensiya to'lanadi. Ota-onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida turgan bolalarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida pensiya to'lanadi. Shu davrdagi to'lanishi lozim bo'lgan pensiya puli bolaning nomiga jamg'arma bankida ochilgan omonatga o'tkazib qo'yiladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi to'lashni to'xtatishga sabab bo'luvchi holatlar paydo bo'lganida pensiyani to'lash ana shunday holat paydo bo'lgandan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab to'xtatiladi.

Mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari uchun boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olayotgan pensioner oilaning pensiya to'lanayotgan a'zolari tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risida, ular o'qishni to'xtatganligi, shuningdek to'liq davlat ta'minotiga o'tkazilganligi to'g'risidagi o'zgarishlar haqida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlariga xabar qilishi shart. Pensioner (boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olayotgan pensionerdan tashqari) ishga kirgan taqdirda o'zi istiqomat qilib turgan joydagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limini bundan xabardor qilishi shart.

Pensionerga hisoblab chiqarib qo'yilgan, lekin uning tomonidan o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi uch yildan oshmagan davr uchun to'lanadi. Pensiyani tayinlovchi yoki to'lovchi organning aybi bilan o'z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o'tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to'lanadi.

Qariyalar va nogironlar internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg'iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi to'lanadi. Ruhiy bemorlar internat uylarida yashovchi pensionerlarga pensiya to'lanmaydi.

Pensionerning statsionar davolanishda bo'lgan davri uchun pensiya to'liq to'lanadi.

Pensioner ozodlikdan mahrum qilingan taqdirda tayinlangan pensiyani to'lash ozodlikdan mahrum qilingan davr uchun to'xtatib qo'yiladi.

Pensioner olishi lozim bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a'zolariga to'lanadi. Ota-onasi, eri (xotini), shuningdek pensioner bilan u vafot etgan kunigacha birgalikda yashab turgan oila a'zolari bu pulni, ular boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadiganlar doirasiga kirmaganlari taqdirida ham olish huquqiga ega bo'ladilar. Pensioner vafot etgan oy uchun olinmay qolgan pensiya puli ko'rsatib o'tilgan oila a'zolariga oyning u vafot torgunga qadar o'tgan kunlari uchun to'lanadi. Oilaning bir necha a'zosi murojaat etgan taqdirda pensiyaning ularga tegishli summasi ularning o'rtasida teng taqsimlanadi. Pensioner vafot etgan taqdirda uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan oz bo'lmagan miqdorda dafn etish nafaqasi to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan pullar, ularni olish uchun pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etilgan taqdirda to'lanadi.

Chet elga doimiy yashash uchun chiqib ketishdan oldinroq tayinlangan pensiyalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limiga chiqib ketish to'g'risida ariza berilgan kundagi holatga ko'ra pensiya miqdori hisobidan chet elga chiqib ketish oldidan 6 oy avval to'lanadi. Bu fuqarolarning chet elda bo'lgan vaqti uchun, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o'zga qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan pensiyalargina to'lanadi.

Pensiyalardan chegirmalar:

a) sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari va hukmlari (mulkiy undirishlar borasida), notarial idoralarning ijro varaqalari hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ijrosi sud hal qiluv qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladigan boshqa hal qiluv qarorlari va qarorlar asosida;

b) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limining qaroriga binoan - pensionerga uning tomonidan qilingan suiiste'molliklar oqibatida (qasddan noto'g'ri hujjatlarni taqdim etish, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan oila a'zolari tarkibidagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar taqdim etmaslik natijasida) yoxud hisoblashdagi yoki boshqa texnik xato oqibatida pensiya miqdoridan ortiqcha pullar to'langan taqdirda qilinishi mumkin. Pensiyalardan yuqorida ko'rsatib o'tilganidan tashqari boshqa hech qanday chegirmalar qilish mumkin emas. Pensiyadan chegirmalar qilish miqdori pensionerga to'lanishi lozim bo'lgan puldan hisoblab chiqariladi. Har oylik chegirmalar miqdori pensiyaning 50 foizidan oshishi mumkin emas. Ortiqcha to'langan pensiya puli bo'yicha qarzdorlik to'liq uzilgunga qadar pensiya to'lash to'xtatilgan hollarda (masalan, mehnat qobiliyati tiklanganligi tufayli) qolgan qarz sud tartibida undiriladi.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunga muvofiq tayinlangan pensiyalarni, shuningdek dafn etish nafaqasini to'lash Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya jamg'armasini shakllantirish tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlar korxonaning aybi bilan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik uchun tayinlangan pensiyalarni to'lash, shuningdek xodim pensiya yoshiga to'lgunga qadar tayinlangan pensiyalarni to'lash uchun ish haqi to'lashga mo'ljallangan mablag'lar hisobidan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga xarajatlarni qoplovchi pul o'tkazadilar. Pensioner "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan yoshga to'lguniga qadar tayinlangan pensiyalarni to'lash Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Qonunchilikka muvofiq to'lanadigan pensiyalarga soliq solinmaydi.

3. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarning mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2002 yil 1 apreldagi 21-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muofiq ***quyidagi ijtimoiy sug'urta bo'yicha naqfaqalar beriladi:***

a) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik uchun;
b) homiladorlik va tug'ish uchun;
v) bola tug'ilgani uchun;
g) dafn marosimi uchun.
d) qo'shimcha dam olish kuni uchun.

2007 yil 1 yanvardan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to'lash bilan bog'liq xarajatlar[17]:

Byudjet tashkilotlari tomonidan - mehnat haqi jamg'armasiga ajratiladigan byudjet mablag'lari doirasida;

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan - foyda solig'ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ushbu nafaqalar ijtimoiy sug'urta joriy qilinadigan xodimlarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda boshqa fuqarolarga ham beriladi.

[17] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2007 yil 28 iyuldagi 1136-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza ыilish vazirligining 2007 yil 25 iyundagi M-31-sonli Buyrug'iga muvofiq chiqarib tashlangan

Ish beruvchining davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha badal to'lamaganligi, sug'urta qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalari bilan ta'minlanish huquqidan maxrum qilmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra xodimga nafaqa, agar uni olish huquqi ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan davrda (sinov davri hamda ishdan bo'shatilgan kunni ham qo'shib) paydo bo'lsa beriladi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga hamda dehqon xo'jaligi a'zolariga nafaqa, agar uni olish huquqi ular tomonidan belgilangan tartibda sug'urta badalini to'lash davrida paydo bo'lsa, beriladi.

Ayrim hollarda, ya'ni mehnat shartnomasi aloxida asoslarga ko'ra bekor qilingandan (Mehnat kodeksining 67-moddasi) keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlangan bo'lsa, nafaqa yashash joyidagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan to'lanadi.

Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlaridagi muddatli xizmat safidan bo'shatilgan sobiq harbiy xizmatchilarga ham qo'llaniladi.

Nafaqa, mehnat qobiliyati tiklangan, nogironlik belgilangan, homiladorlik va tug'ish ta'tili tugagan, vafot etgan yoki bola tug'ilgan kundan boshlab 6 oy muddat ichida murojaat qilinganda to'lanadi. Bunda, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi uni olish uchun murojaat qilingan kungacha bo'lgan 12 oydan oshmagan davr uchun beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) kunlari xodimning ishdan noqonuniy bo'shatilgani to'g'risida nizo ko'rilayotgan davrga to'g'ri kelgan hollarda, u ishga tiklangan taqdirdagina (barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun) nafaqa olish huquqiga ega bo'ladi.

Nafaqa oyiga bir marta - oyning ikkinchi yarmi uchun beriladigan ish haqi bilan birga to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarning to'g'ri hisoblanishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Korxona, muassasa, tashkilotlar tomonidan ish joyida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar uchun maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazorat qilish Davlat soliq xizmati organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarning turlari.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda (shikastlanishda);

b) sanatoriy-kurortlarda davolanganda;

v) kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;

g) karantinda;

d) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda **(2-ilova)**;

e) mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotkizilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun faqat belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asos bo'ladi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo'qolgan hollarda, nafaqa, uning o'rniga takroriy berilgan vaktincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnat qobiliyati yo'qolgan birinchi kundan to u tiklangunga qadar yoki tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan

nogironlik belgilangunga qadar, xatto bu davrda xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham beriladi.

Uzoq vaqt kasal bo'lganlarni TMEK ko'rigiga yuborish muddatlari Mehnatga layoqatsizlik varaqalari va ma'lumotnomalar berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga (Ro'yxat raqami 873, 2000 yil 19 yanvar) binoan belgilanadi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga nafaqa ular ishga chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Ish haqi, sutkalik va ko'chish bo'yicha xarajatlarni olish huquqiga ega bo'lgan xodimga ish joyiga borayotgan davrda boshlangan mehnatga qobiliyatsizlik kunlari uchun nafaqa to'lanadi.

Xodimning mehnatga kobiliyatsizlik kunlari yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'til davriga to'g'ri kelgan hollarda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa to'lanadi.

Sanatoriy-kurortda davolanishda, agar asosiy va qo'shimcha ta'til xodimning sanatoriyda davolanishi uchun etarli bo'lmasa, nafaqa beriladi, Bunday holda sanatoriy - kurortda davolanishning barcha davri uchun (yo'llanma, davolanish muddati) sanatoriyga borish-kelish vaqtini qo'shib, ammo xodimning yillik ta'tilini chiqarib tashlagan holda nafaqa beriladi.

Asosiy va qo'shimcha ta'tildan sanatoriyga borishdan oldin foydalangan bo'lsa ham nafaqa uni chiqarib tashlagan holda beriladi. Bunda ish beruvchi ta'tilning etmaydigan vaqti uchun xodim bilan kelishib, unga ish haqi saqlanmagan ta'til beradi.

Ikkinchi jahon urushi nogironlariga, baynalminal jangchilarga, Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek, sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o'tkir miokard infarkti bilan kasallangan, jarroxlik uslubi bilan yurakning aortakoronar shuntrovkasi va anevrizmlari, oshqozonning yaralik kasalligi, o'n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o't pufagini olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek sil kasalligi bilan og'riganlarga nafaqa sanatoriyda bo'lgan barcha vaqt uchun beriladi.

O'n olti yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga (homiyga yoki vasiyga), nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun (sanatoriyga borib-kelish vaktini hisobga olib) unga yakka tartibda parvarish zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa mavjud bo'lganda nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbi etmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muxtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan, davr uchun beriladi.

O'n to'rt yoshga etmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan, davr uchun beriladi.

Agarda xodim karantin vaqtida sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan atrofidagi shaxslar orqali yuqumli kasallikka chalinish xavfini oldini olish maqsadida ishdan chetlatilgan bo'lsa nafaqa beriladi.

Sil kasalligi yoki kasb kasalligiga chalingan xodim, davolanish koidasini buzmagan holda boshqa ishni bajarish imkoniga ega bo'lib, u tibbiy maslaxat komissiyasi (TMEK) xulosasi (bunday komissiyalar bo'lmagan joylarda esa davolovchi shifokorning, davolash muassasasining bosh shifokori tomonidan tasdiqlagan xulosasi) asosida vaqtincha boshqa ishga o'tkazilishi mumkin.

Xodimga, vaqtinchalik kamroq xaq to'lanadigan ishga o'tgan vaqt uchun, lekin ikki oydan ortiq bo'lmagan muddat davomida,kasallik varaqasi bo'yicha yangi ishda beriladigan ish haqiga qo'shilganda avvalgi ishidagi to'liq ish haqidan oshib ketmaydigan miqdorda nafaqa to'lanadi.

Bunda kasb kasalligi oqibatida boshqa ishga o'tkazilgan shaxslarga nafaqa, agar u amaldagi qonun hujjatlariga binoan avvalgi ish haqi bilan yangi ish haqi o'rtasidagi farqni korxonadan olish huquqiga ega bo'lmasa beriladi.

Basharti, kasallik varaqasida ko'rsatilgan muddatda ish beruvchi xodimga boshqa ish topib berolmagan bo'lsa, u holda shuning oqibatida bekor o'tgan ish kunlari uchun nafaqa umumiy asoslarda to'lanadi.

Reabilitatsiya muassasalarida bo'lgan barcha vaqt uchun va unga kelib-ketish vaqti uchun nafaqa to'lanadi.

Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlarga mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa umumiy asoslarda, boshqa sabablar oqibatidagi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mavsumiy yoki vaqtinchalik ish to'g'risida tuzilgan mehnat shartnomasida ko'rsatilgan ish kunlari doirasida to'lanadi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa, mehnatda mayiblanish xodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari, ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi.

Ishlayotgan Ikkinchi jahon urushining nogironlariga va imtiyozlari jixatdan ularga tenglashtirilgan boshqa nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi (mehnatda mayiblanish xodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari) ketma-ket to'rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi.

Agar ishlovchi nogironning vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to'la sog'aygunga yoki mehnatda mayiblanish yoxud kasb kasalligi bilan bogliq nogironlik guruxi qayta ko'rib chiqilgunga qadar to'lanadi.

Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa shaxs to'la sog'aygunga qadar, lekin ko'pi bilan 10 oyga beriladi. Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb topilganda nafaqa ko'pi bilan 6 oyga beriladi.

TMEK ko'rigidan belgilangan muddatda qayta o'tmagan nogironga nafaqa yuqorida belgilangan muddatlarga to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

– ish haqi saqlanmagan ta'til;
– bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;
– ish vaqtincha to'xtatilgan;
– xodim ishdan (lavozimdan) chetlashtirilib, ish haqi to'lash to'xtatib qo'yilganligi sababli ishlamagan;
– harbiy o'quv yoki tekshiruv yig'ini;
– ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida taxsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til.

Ushbu davrlarda boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda berilmaydi:

– ishdan yoki boshqa vazifalardan bo'yin tovlash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o'zini kasallikka solganda;
– giyoxvandlik yoki mastlik bilan bog'liq xarakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyoxvandlik moddalarini iste'mol qilish natijasida, kasallikka chalinganda (jaroxatlanganda);
– jinoyat sodir qilish vaqtida jaroxatlanganda;
– sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda (ruxiy kasallardan tashqari);
– xibsda bo'lgan davrda;

– sud-tibbiyot ekspertizasidan o’tish davrda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanishidan oldin uzrsiz sabablarga ko’ra ishga kelmagan, ular uchun shifokor belgilagan tartibni buzgan, yoki uzrsiz sabablarga ko’ra belgilangan muddatda shifokor ko’rigiga yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasiga (TMEK) kelmagan xodimlar, qoidani buzish ro’y bergan kundan boshlab korxonaning Ijtimoiy sug’urta bo’yicha komissiyasi belgilaydigan muddatga nafaqadan maxrum qilinadilar.

Yuridik shaxs bo’lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslar hamda dehqon xo’jaligi a’zolari, byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga sug’urta badallarini to’lamagan, shifokor belgilagan tartibni buzgan yoki uzrsiz sabablarga ko’ra belgilangan muddatda shifokor ko’rigiga yoki TMEKga kelmagan hollarda, buzish sodir bo’lgan kundan boshlab ijtimoiy ta’minot bo’limi tomonidan belgilangan muddatga nafaqadan maxrum qilinadilar.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat’iy nazar ish xaqining 100 foizi miqdorida quyidagilarga to’lanadi:

– ishlayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga;

– baynalminal jangchilariga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog’ida 16 yoshga (o’quvchilar 18 yoshga) etmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo’lgan xodimlarga;

– Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga;

– Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko’chirilgan qon xosil qiluvchi organlar kasalliklari (o’tkir leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o’smalar bilan bog’liq kasalliklarga chalingan xodimlarga;

– mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi **(1-2-ilovalar)** natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo’lgan xodimlarga.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, yangidan paydo bo’ladigan xatarli o’simtalar, jinsiy yo’l bilan o’tadigan kasalliklar, SPID, moxov (lepra) kasalligi, ruxiy kasalliklar) bo’yicha hisobda turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug’urta badali to’lagan davrining (umumiy ish stajining) davomiyligiga bog’liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorlarda to’lanadi:

a) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo’lgan xodimlarga – ish haqining 100 foizi miqdorida;

b) umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo’lgan xodimlarga – ish haqining 80 foizi miqdorida;

v) umumiy ish staji 5 yilgacha bo’lgan xodimlarga – ish haqining 60 foizi miqdorida.

Yuqoridagi xodimlardan tashqari qolgan xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqa quyidagi miqdorlarda to’lanadi:

a) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo’lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sagir) etimlarga - ish haqining 80 foizi miqdorida;

b) umumiy ish staji 8 yilgacha bo’lgan xodimlarga - ish haqining 60 foizi miqdorida.

Ayrim hollarda, ya’ni mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko’ra bekor qilingandan (Mehnat kodeksining 67-moddasi) keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug’ish ta’tili boshlangan bo’lsa, nafaqa quyidagi miqdorlarda to’lanadi:

a) O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar safidagi muddatli xizmatdan bo’shatilgandan so’ng bir oy ichida kasal bo’lib qolgan sobiq harbiy xizmatchilarga - respublikada belgilangan eng kam ish haqi miqdorida;

b) boshqa hollarda-ish haqining 60 foizi miqdorida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo’lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo’lmasligi lozim.

Nafaqa miqdori vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kungacha, mehnat daftarchasi yoki uning o’rniga berilgan boshqa hujjat, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limlari tomonidan berilgan ma’lumotnoma, asosida hisoblangan umumiy ish stajiga muvofiq aniqlanadi.

Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqani tayinlash va to’lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo’ladi.

Ayollarga tuqqanga qadar 70 kalendar kun va tuqqandan keyin 56 kalendar kun (tug’ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug’ilgan hollarda - 70 kalendar kun) muddati bilan homiladorlik va tug’ish ta’tilllari berilib, davlat ijtimoiy sug’urtasi bo’yich nafaqa to’lanadi.

Homiladorlik va tug’ish bo’yicha berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo’qolgan hollarda nafaqa uning o’rniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa (shu jumladan homila tushgan hollarda) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko’rsatilgan barcha davr uchun to’lanadi.

Xodim ishdan bo’shatilishining noto’g’riligi xaqida nizo ketayotgan davrda homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til berilganda, nafaqa u ishga qayta tiklangan taqdirda beriladi. Bunda homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa ayolni ishga qayta tiklash to’g’risida qaror chiqqandan so’ng, nafaqa to’lanmagan barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun to’lanadi.

Oliy, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug’ish bo’yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa, ayol ishga kelishi lozim bo’lgan kundan boshlab beriladi.

Ishni vaqtinchalik to’xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o’quv yurtlarida taxsil olish munosabati bilan berilgan qo’shimcha ta’til davrida homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til berilgan holda, nafaqa ko’rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo’lgan kundan boshlab beriladi.

Xodim yillik (asosiy va qo’shimcha) ta’tilda va bolani parvarishlash uchun ta’tilda bo’lgan vaqtda homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko’rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo’yicha ta’til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta’til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o’rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo’lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Ish haqi to’lash to’xtatilib, ishdan (lavozimdan) chetlashtirish oqibatida ayol ishlamagan davrda, homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilgan holda nafaqa to’lanmaydi.

Agar homiladorlik va tug’ish bo’yicha ta’til ishga qo’yilgandan keyin ham davom etadigan bo’lsa, nafaqa u ishga chiqishi lozim bo’lgan kundan boshlab beriladi.

Homiladorlik va tug’ish bo’yicha nafaqa, shu jumladan, mazkur Nizomning 4-bandiga muvofiq nafaqa tayinlanganda ham, ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

Bola tug’ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O’zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi.

Ish haqiga koeffitsient qo’llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Ishlayotgan ayollarga, hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida, magistratura,aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturada taxsil olayotgan ayollarga bola tug’ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o’qish joyidan to’lanadi.

Bolaning onasi ishlamaydigan va o’qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o’qiydigan otasi yoki ota-ona o’rnini bosuvchi shaxslarga to’lanadi.

Ishlamaydigan va o’qimaydigan ota-onalarga bola tug’ilganda nafaqa O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limlari tomonidan tayinlanadi va to’lanadi.

Farzandlikka olingan bolalarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Agar ayol homiladorlik bo'yicha ta'til davrida ishdan bo'shab shu davr mobaynida homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa olgan bo'lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi.

Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida xaq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

a) turmush o'rtog'i;

b) 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'iy nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;

v) ota-onasi;

g) bobosi yoki buvisi.

Yashash uchun mustaqil mablag' manbaiga ega bo'lgan (ish haqi, pensiya, stipendiya oluvchi, shirkat xo'jaligining mehnatga qobiliyatli a'zolari hisoblanuvchi va hokazo) oila a'zolari qaramog'ida turgan deb hisoblanmaydi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa, uning oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga beriladi.

Oilaning vafot etgan a'zosini dafn etish marosimi uchun nafaqa ishlovchi xodimga beriladi.

Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining to'rt baravari miqdorida beriladi.

Ishlamaydigan pensioner vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo'lmagan miqdorda, ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan to'lanadi.

Ish haqiga tuman koeffitsienti belgilangan joylarda dafn etish marosimi uchun nafaqa miqdori ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar uchun beriladigan tuman koeffitsientini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa, agar unga so'nggi ish haqi to'langan kundan bir oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa beriladi.

Oliy, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida, magistraturada, aspiranturada, klinik ordinaturada, doktoranturada taxsil olayotgan shaxslar, shuningdek, ularning oila a'zolari vafot etgan taqdirda, dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda to'lanadi.

Maktablar, kurslarning (kadrlar malakasining oshirish, qayta tayyorlash va tayyorlash bo'yicha), shuningdek, malaka oshirish institutlari o'quvchilari va tinglovchilari yoki ularning oila a'zolari vafot etganda, agar ular kurslarga, maktablarga, institutlarga korxona tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash.

Umumiy ish staji belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan mehnat daftarchasi yoki uning o'rniga berilgan boshqa hujjat asosida aniqlanadi.

Umumiy ish staji to'g'risidagi hujjatlar bo'lmaganda ish davri guvoxlar ko'rsatmasi asosida belgilanadi.

Tabiiy ofat, falokat, fojia yoki boshqa favqulodda xolatlar tufayli ish staji to'g'risidagi hujjatlar to'liq yoki qisman saqlanmagan bo'lsa, ish stajini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman (shahar) hokimiyatlari tomonidan tuziladigan ish stajini aniqlash bo'yicha maxsus komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Qisman saqlangan hujjatlar hamda guvoxlar ko'rsatmalari asosida yuqorida ko'rsatilgan komissiyalar tomonidan belgilangan mehnat faoliyati davrlari hujjatlar bilan tasdiqlangan ish davri singari ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa olish huquqini beradigan umumiy ish stajiga hisoblanadi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs va dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajiga ular byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davrlari kiritiladi.

Umumiy ish stajiga quyidagilar kiradi:

a) faoliyat turi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'iy nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan har qanday ish, agar u byudjetdan tashqari Pensiya jag'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsa.

Shirkat xo'jaligi (fermer xo'jaligi) a'zosi uzrsiz sabablarga ko'ra xo'jalikda belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlagan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi.

Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarga ish staji ijodiy uyushmalar boshqaruvi tomonidan, uning birinchi bosilgan yoki dastlabki ijro etgan yoxud mazkur muallifning asari birinchi marta ommaga ko'rsatilgan kundan boshlab, agar u byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lab turgan bo'lsa, ish stajiga hisoblanadi;

b) harbiy xizmat, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar, milliy xavfsizlik organlaridagi hamda chegara qo'shinlaridagi xizmat davri;

v) harbiylashtirilgan soqchilik, maxsus aloqa organlari hamda tog'-qutqaruv qismlaridagi xizmat davri, qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'iy nazar;

g) diniy tashkilotlarda ishlagan davr, agar ular byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga suturta badali to'lab kelgan bo'lsalar;

d) yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs va dehqon xo'jaligi a'zosining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davr;

e) alohida fuqarolarga yollanib ishlagan davr (uy xodimlari, kotibalar, enagalar, xaydovchilar, qorovullar va boshqalar), agar ular byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lab kelgan bo'lsalar;

j) asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan va keyinchalik oqlangan fuqarolarning qamoqda bo'lgan va maxbuslikni o'tagan davri.

Sanoatning mavsumiy tarmoqlaridagi korxonalarda band bo'lgan xodimlarga mavsum davomidagi ish bir yilga, mavsumda to'liq ishlamagan taqdirda, haqiqiy ishlagan davr hisobga olinadi.

Chet elda ishlagan ish davri, agar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'lab kelingan bo'lsa va davlatlararo bitimlarda boshqa imtiyozliroq xolat ko'zda tutilmagan bo'lsa, ish stajiga hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda yollanib (bitim asosida) ishlagan ish davri Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan mehnat daftarchasiga kiritilgan yozuvlar bo'yicha, agar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lab kelingan bo'lsa, ish stajiga hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi a'zosi, yil mobaynida ishlab undan kamida 9 oy byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan tartibda sug'urta badali to'lagan bo'lsa, ushbu davr kalendar yil hisoblanadi.

To'liq kalendar yil mobaynida yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash bo'lgan hollarda, agar mazkur yilda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari belgilangan tartibda kamida 9 oy mobaynida to'langan bo'lsa stajga kalendar yil qo'shiladi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning va dehqon xo'jaligi a'zolarining ish faoliyati va uning davomiyligi guvoxlik ko'rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar barcha hollarda xodimning xaqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Nafaqalarni hisoblashda asos qilib olinadigan xaqiqiy ish haqiga ish joyidan, sug'urta badallari undirilib to'lanadigan jami ish haqi to'lovlari kiradi.

Sug'urta badali hisoblanmaydigan ish haqi turlari Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11-maydagi 249-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta badallari qo'shilmaydigan va pensiyani hisoblab chiqishda hisobga olinmaydigan ish haqi va boshqa to'lov turlari ro'yxati" asosida aniqlanadi.

Nafaqalarni hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan ish haqining barcha turlari, shu jumladan mazkur oyda ish haqi bilan birgalikda to'lanadigan oylik mukofotlar ularning xaqiqatda olingan vaqti bo'yicha emas, balki ular hisoblab yozilgan vaqt bo'yicha ish haqiga qo'shiladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik ta'tili boshlangan oydan oldingi 12 oy mobaynida olgan va sug'urta badallari chegirilgan barcha mukofotlarning 1/12 qismi, nafaqa hisoblab chiqariladigan oylik ish haqiga qo'shilib, o'rtacha oylik ish haqi miqdori aniqlanadi (nizomning[18] 52-bandi).

Xodim vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi sababli to'la ishlamagan, homiladorlik va tug'ish, bola uch yoshga to'lgunga qadar bolaga qarash ta'tilida bo'lgan, harbiy o'quv yoki sinov yig'inlarida yoki boshqa korxonada ishlash uchun yuborilgan oylar mukofot summasi bo'linadigan oylardan chiqarib tashlanadi. Agar hisoblash uchun uch oydan kam bo'lgan davr olinsa, har bir oyda chorak mukofotining uchdan biridan ko'p bo'lmagan qismi hisobga olinadi (nizomning[19] 53-bandi).

Avvalgi yoki joriy kalendar yilida ishga kirgan xodimga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik ta'tili boshlangunga qadar ish davrida hisoblangan mukofotlar hisobga olinadi, lekin u dastlabki 12 oyidan ko'p bo'lmaydi va ularning yig'indisi mana shu oylarning soniga bo'linadi. Agar mukofotlash tizimi mazkur korxonada yangidan joriy etilgan bo'lsa hamda to'la bo'lmagan kalendar yili amal qilsa, shuningdek korxonada yoki aniq xodimga nisbatan mukofotlash shartlari va tartibi o'zgarsa, mukofotlar yuqoridagi tartibda hisobga olinadi (nizomning[20] 54-bandi).

Mehnatiga vaqtbay xaq to'lanadigan xodimlarga nafaqa hisoblab chiqarishda oylik ish haqi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlangan kungacha doimiy ravishda olib kelingan qo'shimcha va ustamalarni qo'shgan holda kunlik yoki soatbay tarif stavkasi va "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 52-54-bandlariga binoan hisoblab chiqarilgan o'rtacha oylik mukofotlar summasi hisobga olinadi.

Xodim to'liq bo'lmagan mansab maoshini olgan xolatlarda, nafaqa maoshning xaqiqatda olinadigan qismi asosida hisoblanadi.

Nafaqani hisoblab chiqarish uchun o'rtacha kunlik ish haqi yuqorida ko'rsatilgan ish haqi summasini vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik ro'y bergan oydagi barcha ish kunlariga (jadval bo'yicha) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. (Eslatma: ushbu va keyingi barcha hollarda ish vaqti soatlari normasi doirasida tuzilgan ish jadvali nazarda tutiladi).

Kunlik nafaqa o'rtacha kunlik ish haqining nafaqa miqdorini belgilash uchun ish haqiga qo'llaniladigan foizi hisobida aniqlanadi.

---

[18] Adliya vazirligida 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

[19] Yuqoridagi Nizom

[20] Yuqoridagi Nizom

Nafaqaning umumiy summasi kunlik nafaqani ushbu oyda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) tufayli ishga kelmagan ish kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishbay ish haqi oluvchi xodimlarga nafaqa ularning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan oyning birinchi kunidan oldingi so'nggi kalendar oydagi ish haqidan hisoblab chiqariladi hamda oylik ish haqiga "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 52-54-bandlariga binoan hisoblab chiqarilgan mukofotlarning o'rtacha summasi qo'shib hisoblanadi (nizomning[21] 56-bandi).

Ko'rsatib o'tilgan oyda xodim jadvalda belgilangan kunlarda to'liq ishlamagan bo'lsa, nafaqa mazkur oyda xaqiqiy ishlagan kunlar uchun to'langan ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Agar ko'rsatilgan oyda xodim ish haqi olmagan bo'lsa (masalan, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tufayli), nafaqa mehnatga qobiliyatsizlik oyidagi xaqiqiy ishlangan kunlar uchun ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Agar ish haqi asos qilib olinadigan davrda xodim jadval bo'yicha barcha kunlarda ishlamagan bo'lsa, mazkur oydagi mukofotning o'rtacha summasi ishlangan vaqtga mutanosib ravishda hisobga olinadi.

Nafaqa hisoblab chiqarish tartibi ish haqi miqdori ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan, shuningdek vaqtbay mehnat haqi oluvchi, ushbu oyning ish haqi bilan birgalikda oylik mukofotni oluvchi xodimlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Nafaqani hisoblab chiqarish uchun o'rtacha kunlik ish haqi "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 56- bandi va 58-bandida ko'rsatilgan ish haqini ushbu ish haqi olingan davrdagi jadval bo'yicha barcha ish kunlari soniga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda ish haqi taqsimlanadigan ish kunlar soniga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik kunlari, homiladorlik va tug'ish ta'tili, yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'til, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollardagi ishdan ozod etilgan kunlar qo'shilmaydi.

Kunlik nafaqa o'rtacha kunlik ish haqining nafaqa miqdorini belgilash uchun ish haqiga qo'llaniladigan foizi ("Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 26-30 va 48-bandlari) hisobida aniqlanadi.

Nafaqaning umumiy summasi kunlik nafaqani ushbu oyda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) tufayli ishga kelmagan ish kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Shirkat xo'jaligi a'zolariga, shu jumladan mexanizatorlar va mutaxassislarga, nafaqa umumiy asoslarda hisoblab chiqariladi.

Agar shirkat xo'jaligida keyinchalik hisob-kitob qilinadigan (davrlar bo'yicha, yil oxirida) avansli xaq to'lash amalga oshirilsa, nafaqa vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) boshlangan kungacha olingan avansdan hisoblab chiqariladi va yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilgandan keyin qayta hisoblanadi.

Mehnatga xaq to'lash pul bilan berilmasdan, mehnat kunlari yozilsa va vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tillari) mehnat kunlari uchun xaq to'lanadigan kungacha boshlangan bo'lsa, nafaqa eng kam ish haqidan to'lanadi va keyinchalik qayta hisoblanadi.

Agar nafaqani hisoblab chiqarish uchun ish haqi asos qilib olinadigan davr mobaynida xodimning ish haqi miqdori o'zgarsa, nafaqani hisoblashda ish haqi o'zgargan kundan boshlab to'langan ish haqi olinadi.

Xodim uzrli sabablarga ko'ra ish haqiga ega bo'lmagan, qonun hujjatlariga muvofiq ish haqidan nafaqa hisoblab chiqarilishi lozim bo'lgan hollarda nafaqa tarif stavkasi (lavozim maoshi) va mukofotlarning o'rtacha oylik summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilishi lozim. Bunda tarif stavkasi yoki eng kam ish haqi tuman koeffitsenti va ustamalar belgilangan joylarda ishlaganlik uchun beriladigan ustamalarni hisobga olgan holda asos qilib olinadi.

[21] Adliya vazirligida 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

Agar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish davrida ish haqi o'zgargan bo'lsa, shu davrdan boshlab nafaqa miqdori ham tegishli ravishda qayta hisoblab chiqariladi.

Agar nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqiga qo'shimcha xaq hisoblangan bo'lsa, nafaqa ham tegishli ravishda oshadi.

Xodim asosiy ish joyidan tashqari o'sha yoki boshqa korxonada o'rindoshlik asosida (shu jumladan yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs sifatida) ishlasa, nafaqa barcha ish joyidagi umumiy ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Bunda yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs sifatidagi ish haqi miqdori tadbirkorning aniq bir oy uchun to'lagan ijtimoiy sug'urta badalini ish beruvchi va xodimlar uchun rasmiy belgilangan sug'urta badallarining jami foiziga bo'lish va natijasini 100 ga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili xodimning vaqtinchalik boshqa vazifani bajarish davriga to'g'ri kelib, ushbu ish o'rnida yuqoriroq mansab maoshi belgilangan bo'lsa, nafaqa ushbu o'rinda ishlashi lozim bo'lgan davrgacha (bunday kun belgilanmagan bo'lsa, vaqtincha ishda bo'lmagan xodim ishga chiqishi lozim bo'lgan kungacha) mana shu yuqoriroq ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili ish vaqtida boshlanib, korxona (tsex, bo'limning) ishni vaqtincha to'xtatishi davrida davom etsa, nafaqa o'sha kasb va malakaga ega bo'lgan xodimlarga mana shu to'xtatilgan davr uchun to'lanadigan ish haqi miqdorida beriladi. Bunda nafaqa miqdori - umumiy qoidalar bo'yicha hisoblangan va olishi lozim bo'lgan nafaqa miqdoridan oshmasligi lozim.

Agar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili ishning vaqtincha to'xtatilgan davrida boshlangan bo'lsa, ish to'xtatib ko'yilgan davr uchun nafaqa O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 155-moddasida belgilangan eng kam ish haqi miqdorida beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili (qachon boshlanishidan qat'i nazar) korxona (sex, bo'lim)ning ishga tushirilishidan (tugatilishidan) keyin ham davom etsa, nafaqa, ishga tushirilgan (tutatilgan) kundan boshlab, xodim ish to'xtatilgunga qadar olgan ish haqidan hisoblanadi.

Agar xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini ish haqiga tuman koeffitsienti va ustamalar belgilangan joylarda ishlash davrida olgan bo'lsa, bu joylardan tashqarida bo'lgan vaqt uchun vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa (shu jumladan mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi munosabati bilan) ustamalar hisobga olinmagan holda hisoblab chiqariladi.

Ushbu qoida homiladorlik va tug'ish nafaqasini hisoblab chiqarishda qo'llanilmaydi.

Ish haqiga ustama yoki muayyan muddatga yoxud muayyan joyda vaqtinchalik bo'lganligi uchun ish haqiga oshirilgan koeffitsent belgilangan xodimga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa bu ustama yoki koeffitsent hisobga olingan holda ustama yoxud oshirilgan koeffitsent belgilangan kungacha, yoki esa vaqtinchalik bo'lganligi munosabati bilan ular to'langan joyidan chiqib ketgan kungacha beriladi.

Gazetalar va jurnallar, telegraf va axborot agentliklari, nashriyotlar, radio va televidenie, boshqa korxonalarning ijodiy xodimlariga mualliflik (saxnalashtirganlik uchun) mukofoti ham hisobga olinib ish haqi to'lash yoki mualliflik ishi uchun oladigan mukofotidan kelib chiqadigan stavka bo'yicha vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqasi, sug'urta badali joriy qilinib, mualliflik (saxnalashtirganlik uchun) mukofotini ham hisobga olgan holda mazkur korxonada to'langan xaqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Mualliflik (saxnalashtirganlik uchun) mukofoti o'rtacha ish haqiga "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 52-53-bandlarida bayon qilingan qoidalar bo'yicha qo'shiladi.

Ma'lum normadagi ishni bajarganlaridan so'ng mansab maoshini oluvchi xodimlarga (artist va boshqalar) nafaqa, shu jumladan, mehnatda mayiblanganlik, kasb kasalligi, shuningdek

homiladorlik va tug'ish nafaqasi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan oyning birinchi sanasidan oldingi kalendar oyidagi ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Ish sharoitlariga ko'ra (nizomning[22] 68-bandi) yilning turli davrlari bo'yicha turlicha ish xaqlari belgilangan taqdirda (daryo floti va baliqchilik sanoati floti ekipajlari a'zolaridan tashqari), nafaqa xodim o'z ish joyida qolgan taqdirda oladigan ish haqi miqdoriga qarab belgilanadi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik ma'lum bir davrda boshlanib, ikkinchi davrda davom etgan taqdirda ikkinchi davrning ish haqi bo'yicha nafaqa ishlovchilar uchun ish haqi o'zgargan muddatdan boshlab to'lanadi. Mehnatga ishbay asosida xaq to'laganda yuqorida qayd etilgan hollarning ikkinchi davri uchun nafaqa ishbaychining tarif stavkasidan kelib chiqqan holda to'lanadi.

Daryo floti hamda baliqchilik sanoati floti ekipajlari a'zolariga nafaqa vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlangan yildan oldingi kalendar yildagi xaqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik sodir bo'lgan yilda ishga kirgan shaxslarga, shuningdek to'liq kalendar yil ishlamaganlar uchun nafaqa hisoblab chiqarishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik sodir bo'lgan davrdan oldingi vaqtdagi ish haqi inobatga olinadi.

Kunlik o'rtacha ish haqi miqdori o'tgan yil davomida olingan ish haqi yig'indisini o'sha yilning kalendar kunlariga taqsimlangan holda belgilanadi. Bunda yillik ish haqi bo'linadigan kunlardan bayram va dam olish kunlari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan kunlar, homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollar bo'yicha ishdan ozod qilingan kunlar olib tashlanadi.

Boshqa dam olish kunlari (otgul) uchun nafaqa lavozim maoshidan (tarif stavkasidan) kelib chiqqan holda to'lanadi.

Daryo floti va baliqchilik sanoati floti ekipajlarining vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) kunlari xaq to'lanmaydigan zahirada (rezervda) bo'lgan davrga to'g'ri kelgan hollarda nafaqa to'lanmaydi.

Ish (nizomning[23] 69-bandi) soatlarini hisoblab chiqish imkoni bo'lmagan xodimlarga (uyda ishlovchilarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ikkilamchi va boshqa xil ashyolarning shtatli tayyorlovchilariga, oziq-ovqat chiqindilarini yig'uvchilarga, tarqatish va tashish savdosi sotuvchilariga, suratga olish korxonalari agentlariga va boshqa shunday toifadagi xodimlarga) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish munosabati bilan tayinlanadigan nafaqa so'ngi 12 oy ish mobaynidagi kunlik o'rtacha ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ushbu korxonada 12 oydan kam ishlagan shaxslarga nafaqalar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish munosabati bilan beriladigan ta'tilga qadar ishlangan vaqtning kunlik o'rtacha ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Kunlik o'rtacha ish haqi yuqorida aytib o'tilgan davr uchun tayinlangan xaqiqiy ish haqini mazkur davrning kalendar kunlariga bo'lib chiqish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda ish haqi bo'linayotgan kunlar hisobiga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik kunlari, homiladorlik va tug'ish ta'tillari, yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'tillar, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan ishdan ozod qilish kunlari qo'shilmaydi.

Kunlik tarif stavkasi soatbay tarif stavkasini 40 ga ko'paytirish va hosil bo'lgan summani 7 ga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Kunlik hisob-kitob stavkasi yoki kunlik o'rtacha oylik ish haqi hisob-kitob stavkasini oyning nafaqa to'lanadigan barcha kalendar kunlariga bo'lib chiqish yo'li bilan aniqlanadi.

Nafaqa vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish munosabati bilan beriladigan ta'tilning barcha kalendar kunlariga to'lanadi.

---

[22] Adliya vazirligida 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

[23] Adliya vazirligida 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

Shtatsiz xodimlar, agar ular mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan bo'lsalar, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa bilan ta'minlanadilar.

Barcha hollarda shtatsiz xodimlarga nafaqalar "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 56-bandida ishbay ish haqi oluvchi xodimlar uchun belgilangan qoidalar bo'yicha xaqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Ishga chiqish jadvali o'rnatilmagan shtatsiz xodimlarga nafaqa "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 69-bandida belgilangan qoidalar bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Soatbay mehnati uchun ish haqi oladigan shtatsiz (o'quv yurtlari, malaka oshirish kurslarning o'qituvchilari, to'garaklar raxbarlari va boshqalar) xodimlarga nafaqalar bir soat uchun bo'lgan to'lovdan kelib chiqqan holda hisoblanib va vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili sababli qoldirilgan (bajarilmagan) ish soatlariga to'lanadi.

Advokatlarga - advokatlar kollegiyasi a'zolariga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, shuningdek homiladorlik va tug'ish nafaqasi "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 56-bandida ishbay ish haqi oluvchi xodimlar uchun belgilangan qoidalar bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini akkord-mukofot tizimi bo'yicha etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, shuningdek homiladorlik va tug'ish nafaqasi bajarayotgan ishlari va olayotgan haqlari hisob-kitob qilib borilayotgan xodimlargagina beriladi. Barcha hollarda shu jumladan, mehnatda mayiblanganda, kasb kasalligiga duchor bo'lganda, homiladorlik va tug'ish munosabati bilan ta'tilga chiqilganda nafaqa bajarayotgan mazkur ishlar uchun to'lanayotgan xaqiqiy ish haqi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi.

Nafaqa hisoblab chiqarishda o'rtacha kunlik ish haqi nafaqani hisoblab chiqarish uchun olingan ish haqini (Nizomning[24] 56-bandi) ish haqi olingan davrdagi kalendar kunlari soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) kunlari chiqarib tashlanadi. Nafaqa kalendar kunlari uchun to'lanadi.

Agar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) qishloq xo'jalik ekinlarini parvarish qilish davriga to'g'ri kelsa va bu ishlar tamom bo'lgandan so'ng davom etsa, nafaqa ko'rsatilgan davrning tugash kunidan boshlab Nizomning 68-bandiga binoan xodimning bu davr mobaynida bajarishi lozim bo'lgan ishning tarif stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarish qilish davri tugagandan keyin xodim ishlamasligi kerak bo'lgan davr uchun nafaqa to'lanmaydi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs va dehqon xo'jaligi a'zolariga hamda ayrim shaxslarnikida shartnoma asosida ishlayotgan fuqarolarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan aniq bir oy uchun daromadi to'langan oylik sug'urta badali summasini ish beruvchilar va xodimlar uchun sug'urta badallari ajratishning qonun hujjatlarida belgilangan jami foiziga bo'linadi va olingan natijani 100 ga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

O'tgan yilda sug'urta badallari to'lanmagan bo'lsa, ko'rsatib o'tilgan xodimlarga nafaqa eng kam ish haqi miqdorida belgilanadi va u keyinchalik qayta hisob-kitob qilinadi.

Asosiy ish joyida ish haqi to'la yoki qisman saqlab qolingan holda qishloq xo'jaligi va boshqa korxonalarga ishlarni bajarish uchun yuborilgan xodimlarga ayni vaqt ichida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hollari ro'y berganligi tufayli to'lanadigan nafaqaning miqdori, ular mazkur ishlarni bajarishga yuborilgan paytda asosiy ish joylarida olgan ish haqi miqdoriga qarab belgilanadi va nafaqa asosiy ish joyidan umumiy asoslarda to'lanadi.

Maktablarning, malaka oshirish, xodimlar tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv kurslarining, shuningdek malaka oshirish institutlarining tinglovchilariga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar ular kurslarga, maktablarga, (institutlarga) korxona tomonidan yuborilganda va o'qish davrida ularning ish xaqlari to'liq yoki qisman saqlangan taqdirda umumiy asoslarda beriladi.

[24] Adliya vazirligida 2002 yil 8 mayda 1136-son bilan ro'yxatga olingan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqaning miqdori o'quv davrida, stipendiyani hisobga olmagan holda, ularning saqlanadigan ish xaqlari miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti davrida ish haqi to'lanadigan ishchi o'rinlarga yoki lavozimlarga tayinlangan oliy o'quv yurtlari talabalariga, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari, umumiy ta'lim maktablari o'quvchilariga ishlab chiqarish amaliyotini o'tash kunlariga to'g'ri kelgan vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish nafaqasi ishlab chiqarish amaliyoti o'tayotgan joylaridan umumiy asoslarda, lekin ishlab chiqarish amaliyoti yakunlanishi lozim bo'lgan kuniga qadar to'lanadi.

Ushbu tartib qurilish ob'ektlarida va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida talabalar guruxlarida ishlayotgan o'quvchilarga ham joriy etilib, nafaqa miqdori guruxda olgan ish haqidan hisoblab chiqariladi va Nizomning 20-bandida ko'zda tutilgan muddatlarda ish joyidan beriladi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tugatgan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish nafaqasining miqdori umumiy qoidalar bo'yicha hisoblab chiqiladi va ularning egallashlari lozim bo'lgan lavozim maoshlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Axloq tuzatish ishlariga xukm qilingan shaxslarga nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bunda avvalgi ish joylarida jazoni o'tayotgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa miqdori jazoni o'tash boshlanishiga qadar bo'lgan umumiy ish stajiga qarab belgilanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish munosabati bilan mazkur shaxslarga beriladigan nafaqalar sud xukmi bilan ularning ish xaqlaridan undirishlar ushlab qolingan holda amalga oshiriladi.

Nafaqalar xodimning asosiy ish joyidan korxonaning Ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi yoki shu ish uchun vakil qilingan komissiya a'zosi tomonidan tayinlanadi. Komissiya tarkibi, a'zolari soni va raisi korxona raxbarining buyrug'i yoki boshqaruvining qarori bilan tasdiqlanadi.

Komissiya mehnatda mayiblanganlarga, kasb kasalligiga chalinganlarga nafaqa tayinlash, nafaqa to'lashni rad etish, nafaqadan (to'liq yoki qisman) maxrum etish va nafaqa olish huquqi yuzasidan kelib chiqqan nizolarni, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va boshqa hujjatlarning asosli ravishda va to'g'ri berilganligini ko'rib chiqish huquqiga ega. Qolgan barcha hollarda nafaqalarni komissiyaning shu ishga vakil qilingan a'zosi tayinlaydi.

Komissiyalar bo'lmagan korxonalarda nafaqalar, ish beruvchi tomonidan shu ishga buyruq bilan vakil qilingan shaxs tomonidan tayinlanadi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, dehqon xo'jaligi a'zolariga, shuningdek ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlarga nafaqalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanib, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi.

O'quvchi, talaba va aspirantlarga nafaqalar o'qish joylarida tayinlanadi va to'lanadi.

Qurolli kuchlar safidan ozod etilgandan keyin vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan sobiq harbiy xizmatchilarga nafaqa tuman (shahar) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlari tomonidan tayinlanadi.

Xodimlar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik muddati tugaganidan so'ng chiqishining birinchi kunidayoq korxonaga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini taqdim etadilar. Mehnatga qobiliyatsizlik davom etayotgan hollarda, navbatdagi ish haqi berilishi vaqti kelganda topshirilishi mumkin.

Korxonada vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasining «Tabelchi tomonidan va kadrlar bo'limi tomonidan to'ldiriladi» degan bo'limlariga zarur ma'lumotlar yoziladi va

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (bemor xaqidagi ma'lumotlar yozib imzo qo'yiladi) ijtimoiy sug'urta komissiyasiga topshiriladi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanganda nafaqa ishlab chiqarishda baxtsiz xodisa sodir bo'lganlik xaqidagi (N-1-shaklda) dalolatnoma asosida tayinlanadi.

Agar baxtsiz xodisa boshqa sharoitlarda ro'y bersa (uyda, ishga borish yoki ishdan qaytishda, davlat yoki jamoatchilik burchini bajarayotgan paytda), nafaqa ro'y bergan baxtsizlik sabablari ish beruvchi tomonidan o'rganib chiqilgandan keyingina tayinlanadi.

Quyidagi sharoitlarda yuz bergan (jinoyat sodir qilish vaqtida jaroxatlanish hollaridan tashqari) jaroxatlanish mehnatda mayiblanish deb hisoblanadi:

a) mehnat burchini bajarayotgan paytda (shu jumladan xizmat safari vaqtida), shuningdek, maxsus topshiriq bo'lmagan hollarda ham korxona manfaatini ko'zlab qilingan xatti-xarakatlar paytida;

b) ish beruvchining transportida ishga borayotgan yoki ishdan qaytayotganda;

v) ish vaqti davomida (shu jumladan belgilangan tanaffus vaqtida) korxona hududida yoki biron bir boshqa ish joyida, ish boshlashdan oldin yoki ishdan keyin ish qurollarini, kiyim-kechaklarini va hokazolarni tartibga keltirish paytlarida;

g) ichki mehnat tartib-qoidalariga zid bo'lmagan taqdirda, ish vaqti davomida korxonaga yaqin bo'lgan joyda yoki boshqa ish joyida (belgilangan tanaffuslarda) xozir bo'lganda;

d) asosiy ish bilan bog'liq bo'lmasa ham, davlat va jamoatchilik oldidagi burchlarini bajarayotgan chog'ida;

e) inson xayotini qutqarish, huquq-tartibotni, davlat va jamoat mulkini, shuningdek, fuqarolar mulklarini muhofaza qilish bo'yicha fuqarolik burchini bajarayotgan paytida;

j) donorlik vazifalarini bajarish natijasida mehnat qobiliyatining yo'qotilishi.

Kasb kasalliklari bo'yicha vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi tayinlashda Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi 249-son qarori bilan tasdiqlangan Kasb kasalliklari ro'yxatida ko'rsatilgan kasalliklar hisobga olinadi.

Nafaqa olish huquqi ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiya yoki vakil qilingan komissiya a'zosi har bir vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo'yicha to'lov amalga oshirilishi lozim bo'lgan kunlar sonini va ish haqiga nisbatan belgilanadigan nafaqa foizi miqdorini belgilaydi. Nafaqa foizi miqdori nafaqa belgilash bayonnomasida va komissiya raisi yoki vakil qilingan komissiya a'zosining imzosi qo'yilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida qayd qilinadi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa komissiya tomonidan (jaroxatlangan xodimning axvoli komissiya majlisiga kelishga imkon bergan taqdirda uning ishtirokida) tayinlanadi. Nafaqadan maxrum etish, nafaqadan to'liq yoki qisman rad etish masalasi nafaqa oluvchining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega bo'lmagan taqdirda, komissiya nafaqa bermaslik to'g'risida qaror chiqaradi va rad etish sabablarini vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasiga qayd etadi.

Nafaqa tayinlangandan so'ng komissiya yoki vakil qilingan komissiya a'zosi korxonaning hisob-kitob bo'limiga nafaqa chiqarish va to'lash uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini topshiradi.

To'lanadigan va to'lanmaydigan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari, shuningdek, nafaqa olish uchun taqdim etilgan barcha boshqa hujjatlar korxona buxgalteriyasida pullik hujjatlarga teng holda, barcha xarajat hujjatlaridan aloxida holda saqlanadi.

Ish vaqtini, umumiy ish stajini hisobga olib borish, ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar to'lash uchun hisob-kitoblarni bajarishda elektron-hisoblash mashinalari (EHM) qo'llaniladigan korxonalarda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari ma'muriyat tomonidan hisoblash markaziga topshiriladi. U erda ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa tayinlash va hisoblab chiqarish to'g'risida belgilangan shaklda ikki nusxada ro'yxat tuziladi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari EHMda hisob-kitoblarni chiqarish uchun mas'ul shaxsning imzosi qo'yilgan ikki nusxadagi to'lov ro'yxati bilan birga aniq muddatlarda (maoshlar bo'yicha hisob-kitob qilishga 5-6 kun qolganda) ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyaga topshiriladi.

Komissiya hisob-kitobning, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasining davolash muassasasi tomonidan to'ldirilishining to'g'riligini, zarur hollarda boshqa hujjatlarni ham (baxtsiz xodisalar to'g'risidagi dalolatnomalar va boshqalar) tekshiradi va nafaqa tayinlash, belgilangan hollarda esa nafaqadan maxrum qilish bo'yicha qaror chiqaradi. Ikki nusxadagi to'lov ro'yxatlar ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi raisi tomonidan imzolanadi.

To'lov ro'yxatining bir nusxasi vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bilan buxgalteriyaga yuboriladi. Ular tekshiruvdan o'tkazilgandan so'ng bosh (katta) buxgalter tomonidan imzolanib, hisoblash markaziga uzil-kesil hisob-kitob qilish va nafaqa summasini ish haqi to'lash ro'yxatiga kiritish uchun qaytarib yuboriladi. Shundan so'ng to'lov ro'yxati vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari bilan saqlash uchun buxgalteriyaga topshiriladi.

To'lov ro'yxatining ikkinchi nusxasi esa nafaqa tayinlash bayonnomasi sifatida ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyada saqlanadi.

Nafaqani hisoblashda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasining orqa tomoni to'ldirilmaydi.

EHM yordamida faqat nafaqa miqdori hisoblab chiqiladigan korxonalarda nafaqa belgilash va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalarini to'ldirish («Buxgalteriya tomonidan to'ldiriladi» degan bo'limdan tashqari) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

«Buxgalteriya tomonidan to'ldiriladi» degan bo'limdagi maosh va uning asosida chiqarilgan nafaqa miqdori xaqidagi ma'lumot EHMda tayyorlanganda, EHMda hisob-kitob ishlari uchun mas'ul shaxsning va bosh (katta) buxgalterning imzolari bo'lgan to'lov ro'yxatida keltiriladi.To'lov ro'yxatlariga kasallik varaqalari ilova qilinadi.

Nafaqalar, mashina-hisoblash stantsiyalarida hisoblab chiqaradigan korxonalarda nafaqalarni tayinlash va mehnatga layoqatsizlik varaqalarini rasmiylashtirish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha tayinlangan nafaqalar, shu jumladan sil kasalligi sanatoriylarida davolanish uchun beriladigan nafaqalar, ish haqi to'lash uchun belgilangan muddatlarda to'lanadi.

Boshqa turdagi sanatoriylarda davolanish uchun beriladigan nafaqalarni to'lash, xodim sanatoriydan qaytgandan so'ng amalga oshiriladi.Bunda nafaqa, agar bir tomonga borish vaqti bir sutkadan ortiq bo'lsa, sanatoriyda bo'lgan vaqt ko'rsatilgan «yo'llanmaning qaytish tomoni», shuningdek yo'l chiptalari ijtimoiy sug'urta komissiyasiga yoki vakil qilingan komissiya a'zosiga topshirilgandagina beriladi. Yo'llanma bo'yicha foydalanilmagan hamda sanatoriyda, shuningdek etib borish yoki qaytish yo'li belgilangan muddatdan ortiq bo'lgan kunlar uchun nafaqa berilmaydi.

Homiladorlik va tug'ish nafaqasi tug'ishdan oldin amalda foydalanilgan kunlarning sonidan qat'i nazar, ta'tilning to'liq davri uchun bir yo'la to'lanadi.

Bola tug'ilganda bir yo'la to'lanadigan nafaqani olish uchun ota yoki ona komissiyaga Fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish (FXDYo) bo'limi tomonidan berilgan bolaning tug'ilganlik xaqidagi ma'lumotnomasini topshirishi lozim. Berilgan hujjatlar asosida vakillik qiluvchi komissiya a'zosi nafaqa olish huquqini belgilaydi va belgilangan miqdorda uni tayinlash to'g'risida qaror chiqaradi va tayinlash bayonnomasiga yozadi. Shundan so'ng hujjatlar korxonaning hisob-kitob qilish bo'limiga topshiriladi.

Bola tug'ilganligi xaqidagi ma'lumotnoma yo'qotilgan taqdirda bir yo'la to'lanadigan nafaqa FXDYo bo'limlari tomonidan berilgan bola tug'ilganligi xaqidagi takroriy ma'lumotnomaning hamda otaning ish joyidan (o'qish joyidan) nafaqa olmaganligi xaqidagi ma'lumotnoma topshirilganidan so'ng beriladi.

Xodimning vafoti tufayli uni dafn etish marosimini o'tkazish nafaqasini olish uchun ijtimoiy sug'urta komissiyasiga FXDYo bo'limi tomonidan berilgan vafot etganlik to'g'risidagi

ma’lumotnoma topshiriladi. Oila a’zosi vafot etganda esa vafot etganligi xaqidagi ma’lumotnomadan tashqari uy-joydan foydalanish idorasi (binodan foydalanish direktsiyasi,maxalliy o’z-o’zini boshqarish organlari) tomonidan vafot etgan shaxsning xodim bilan qarindoshlik aloqalari borligi va u xodimning qaramog’ida bo’lganligi to’g’risida ma’lumotnoma ham topshirilishi lozim.

Topshirilgan hujjatlar asosida vakil qilingan komissiya a’zosi nafaqa olish huquqini, uning miqdorini belgilaydi va nafaqa tayinlash xaqida qaror chiqaradi va nafaqa tayinlash bayonnomasiga yozib qo’yadi.

Korxona tugatilganda nafaqa olish huquqiga ega bo’lgan fuqarolarga, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug’ish nafaqasi tugatilgan korxonaning huquqiy vorisi yoki tugatish komissiyasi tomonidan beriladi.

Tugatish komissiyasi ishni yakunlagan (yakuniy balans topshirilgan) hollarda, nafaqa ijtimoiy ta’minot bo’limlari tomonidan tayinlanib, to’lanadi. Bunda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug’ish nafaqasini tayinlash uchun qo’shimcha hujjatlar, ya’ni tugatish komissiyasi tomonidan to’langan nafaqa (komissiya tomonidan yakuniy balans topshirilib barcha hisob raqamlar yopilganligi) to’g’risidagi ma’lumotnoma taqdim etiladi.

Yuridik shaxs bo’lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxs, dehqon xo’jaligi a’zosiga, shuningdek ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlar nafaqa olish uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalarini, bola tug’ilganlik xaqidagi ma’lumotnomani va vafot etganlik to’g’risidagi ma’lumotnomani O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi bo’limiga topshiradilar. Topshirilgan hujjatlar asosida byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromadlari va xarajatlari sho’’balari tomonidan nafaqa tayinlash (tayinlamaslik) va uning miqdorlari masalasi ko’rib chiqilib, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limi boshlig’ining qarori chiqariladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiradi.

Nafaqalar, fuqarolarning foizsiz shaxsiy hisob raqamiga nafaqa summasini o’tkazish yo’li bilan bank orqali to’lanadi.

Nafaqa tayinlashda belgilangan qoidalar qo’llaniladi.

Ortiqcha to’lab yuborilgan nafaqa summasi, agar ortiqcha to’lash sanashda (arifmetik) adashish yoki nafaqa oluvchining qalbaki ma’lumotnoma taqdim qilishi (hujjatlarga o’zgartirish kiritish va hokazolar) tufayli sodir bo’lgan bo’lsa, nafaqa oluvchidan undirib olinadi.

Chegirish keyingi safar to’lanadigan nafaqa yoki ish haqidan amalga oshiriladi. Xar safar xodim olishi kerak bo’lgan summadan 20 foizdan ortiq bo’lmagan summa chegirib qolinadi. Chegirib qolish korxonaning hisob-kitob bo’limi orqali komissiyaning qarori asosida amalga oshiriladi.

Bu qaror sanash jarayonida yo’l qo’yilgan xato tufayli ortiqcha to’lash sodir bo’lganda nafaqa tayinlangan kundan 3 oydan kechiktirmay, o’z huquqini suiiste’mol qilish bo’yicha sodir bo’lganda esa cheklanmagan muddatda qabul qilinishi mumkin.

Agar xodim mazkur korxonada ishlamayotgan bo’lsa, unga ortiqcha to’lab yuborilgan nafaqa summasi sud orqali undirilib olinadi. Nafaqa olishda suiiste’mollikka yo’l qo’yilsa (qalbaki hujjat taqdim etish, firibgarlik va hokazolar), hujjatlar qonunda belgilangan choralarni qo’llash uchun huquqni muhofaza qilish organlariga yuboriladi.

Sudlarning qaroriga asosan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug’ish nafaqalaridan aliment, mayib bo’lganlik va salomatlikka yetkazilgan va boshqa zararlarni qoplash bo’yicha xarajatlar chegirilishi mumkin. Nafaqalardan boshqa xech qanday chegirma amalga oshirilmaydi.

Xodimning vafoti kunigacha olinmay qolgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug’ish nafaqasi u bilan birga yashagan oila a’zolariga, shuningdek, uning qaramog’ida bo’lganlarga beriladi.

Xodimning vafot etgan kuniga qadar olinmagan nafaqa vafot etgan xodim bilan qarindosh va birga istiqomat qilganlik yoki vafot etganning qaramog'ida bo'lganlikni tasdiqlovchi dalil bo'lgan hujjat topshirilganidagina berilishi mumkin.

Bola tug'ilganda bir yo'la to'lanadigan nafaqani olish huquqiga ega bo'lgan ona vafot etganda mazkur nafaqa otaga yoki bolani o'z tarbiyasiga olgan boshqa shaxsga beriladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'idan beriladigan nafaqa belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'yicha to'lanishi, fuqarolarning arizasiga binoan bank muassasalaridagi hisob raqamiga o'tkazilishi hamda aloqa bo'limi orqali jo'natilishi mumkin.

Nafaqani jo'natish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar nafaqa summasidan ushlab qolinadi.

Korxona, tashkilot, muassasa, jamoa xo'jaligi, o'quv yurtining ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiya korxona, tashkilot, muassasa, jamoa xujaligi, kopirativ, uquv yurtining ma'muriyati tomonidan hodimlarni ishtimoiy sug'urta qildirish uchun yig'lishi va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'larni tug'ri va samarali yig'ish hamda sarflashga oid tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, ishlovchi pensiyanirlarga pensiya to'lashni tartibga solish uchun tuziladi.

Komissiya azolari soni, tarkibi, rais, zarur hollarda, rais movini Kasaba uyushmasi qumitasi bilan kilishilgan holda raxbarning buyrug'i yoki xujalik boshqaruvining nqarori bilan tastiqlanadi. Komissiya tarkibiga korxona rahbarining movini va kasaba uyushmasi vakili hamda kadirlar bo'limi hodimi kiritiladi.

Ishtimoiy sug'urta komissiyaning taklifiga binoan, komissiya a'zolarining biri, raxbar buyrug'i bilan, nafqalarni tayinlash va hujjatlarni rasmiylashtiruvchi vakil qilib tayinlanadi.

Komissiya raisi (vakili) Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan qilinadign barcha xarajat hujjatlarigan imzo quyadi va mablag'larning to'g'ri sarflanishini nazorat qiladi. Komissiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ishtimoiy taminot vazirligi huzurida Pensiya jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi 2010 yil 19 fevraldagi 30-sonli qaroriga asosan, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom va boshqa meyoriy hujjatlarga binoan ishchilar, xizmatchilar va ularning oila azolarining ijtimoiy sug'urtasini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga binoan hodimlarning pensiya ta'minotini amalga oshirishida tashkilot ma'muriyatiga yordam beradi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinganligi oqibatida kelib chiqqan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlaydi, nafaqa tayinlashni rad etish, undan (to'liq yoki qisman) mahrum etish masalalarini hal etish, kasallik varaqalarini va nafaqa tayinlash bo'yicha boshqa hujjatlarning asosli va to'g'ri berilganligini ko'rib chiqadi.

Ishtimoiy sug'urta badallarining to'g'ri hisoblab chiqarilgnligini, ularning Pensiya jamg'armasiga o'z vaqtida o'tkazilishi, mablag'larni to'g'ri sarflanishi shuningdek bu mablag'lar bo'yicha Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limiga beriladigan hisobotlar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Komissiya mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida kelib chiqgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik uchun nafaqa to'lashga xarajatni pensiya jamg'armasiga qaytarilishini ta'minlaydi. Ma'muriyat tomonidan sug'urta badallari kam hisoblanib o'tkazilgani aniqlansa badallarning yo'liq va o'tgan kunlar uchun ustama hisoblanib to'lashni talab qiladi.

Ishayotgan pensionerlar hisobini olib boradi va pensiyaning to'g'ri to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Mehnatda mayiblanish hamda kasb kasalligiga chalinganlik oqibatidagi nogironlik pensiyalarni, shuningdek "Fuqoralarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-("b "- "j " bandlari) va 15-moddasiga binoan tayinlangan

pensiyalarni to’lash uchun sarflangan mablag’larni Pensiya jamg’armasiga qaytarilishi ustidan nazoratni ta’minlaydi.

Ishlayotgan pensiyanerlar, nogironlar va urush qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslarga ijtimoiy- maishiy xizmat ko’rsatilishi bilan bog’liq masalarni hal qilishda yordamlashadi.

Mehnat jamoasida ijtimoiy sug’urta va pensiya ta’minoti bo’yicha amaldagi qonunlar to’g’risida leksialar, maslahat kengashlari va suhbatlarni tashkil qiladi.

Mehnat jamoasida xodimlar va ular oilalarining ijtimoiy sug’urtasi, pensiya ta’minoti bo’yicha olib borilayotgan ishlarning oshkorligini ta’minlaydi.

Sog’liqni saqlash organlari bilan birgalikda pensiyalar nafaqa tayinlash uchun taqdim etilgan hujjatlarning asosligini tekshiradi.

Komissiya majlislari zarur hollarda o’tkaziladi .

Ijtimoiy sug’urta bo’yicha komissiya qarorida norozilik tug’ilganda Pensiya jamg’armasi tuman (shahar) bulimiga, ishtimoiy sug’irta bo’yicha kamisiyaning vakil qilingan azosining qarori bo’yicha esa Ishtimoiy sug’irta bo’yicha komissiyaga shikoyat qilish mumkin.

Ishtimoiy sug’urta bo’yicha vakil qilingan komissiya azosi:

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug’ish, bola tug’ilganlik, dafin ma’rosimi bo’yicha nafaqalarni tayinlaydi.

Ishtimoiy sug’irta bo’yicha komissiyaning ish yurutuvchilik, shuningdek, ishtimoiy sug’urta bo’yicha nafaqa tayinlash to’g’risidagi bayonnomalarini yozish ishlarini olib boradi.

Tashkilotning hisob-kitob bo’limiga nafaqa tayinlanganligi tug’risidagi hujjatlarni hisoblash va to’lash uchun taqdim etadi hamda 4-PJ hisobotini tayyorlashda ishtirok etadi.

Korxonaning bosh buxgalteri komissiya bilan bir qatorda nafaqa to’lash bo’yicha mablag’larning to’g’ri sarflanishi uchun javobgardir.

Agar nafaqa tayinlash yoki xodimning umumiy ish stajini aniqlash paytida qonunchilikda ko’zda tutilgan qoidalar buzilishiga yo’l qo’yilgan yoki to’lov uchun taqdim qilingan hujjatlar noto’g’ri rasmiylashtirilgan bo’lsa bosh buxgalter to’lovni amalga oshirmay, ularni yo’l qo’yilgan xatolar to’g’risidagi yozma bayonnomasi bilan ijtimoiy sug’urta bo’yicha komissiyaga qaytarib berishi shart.

Hududiy soliq organlarining talabiga binoan korxona ma’muriyati tekshirish o’tkazish uchun zarur bo’lgan nafaqalar hujjatlarni taqdim etadi. Boshqa davrlar bo’yicha tekshirishlar nafaqalar to’lanadigan mablag’larni sarf qilishda suiste’mollik fosh etilgan taqdirda o’tkaziladi.

Barcha tekshirishlar belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ish beruvchi tomonidan mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari buzilishi oqibatida xodimning mehnatda mayiblanganligi yoki kasb kasalligiga chalinganligi aniqlansa, korxona ma’muriyati byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasiga ushbu shikastlanish va kasallik sababli berilgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo’yicha nafaqani to’lashga ketgan barcha xarajatlarni qoplashi lozim.

Nafaqalarni to’lash uchun qilingan xarajatlar qonunchilikka xilof ravishda amalga oshirilganda korxona, tashkilot, muassasalar tomonidan qilingan xarajatlar Pensiya jamg’armasi hisobiga o’tkazilgan badallar hisobiga qabul qilinmaydi va ular korxona hisobiga yozib qo’yiladi.

Vakil qilingan ijtimoiy sug’urta komissiyasi a’zosi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan Ijtimoiy sug’urta bo’yicha komissiyaga shikoyat qilinishi mumkin. Komissiyaning qarori ustidan tuman va shahar soliq organlariga va ijtimoiy ta’minot bo’limlariga shikoyat qilinishi mumkin.

Nafaqalarni noto’g’ri hisoblash va belgilash hamda to’lash ustidan shikoyat tuman, shahar sudiga berilishi mumkin.

4. Xo'jalik sub'ektlari va jismoniy shaxslar tomonidan Pensiya jamg'armasiga badallar ajratish tartibi

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari.

Yagona ijtimoiy to'lov hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar bo'yicha barcha hisob – kitoblar Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Markaziy bank Boshqaruvining 2004 yil 25 fevraldagi 35, 74, 2004-24, 245-V-son qarori bilan tasdiqlangan "Yagona ijtimoiy to'lov hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar va ajratmalarni hisoblash, to'lash va taqsimlash to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

Mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o'rtasida taqsimlanadi.

Mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov stavkalari va uning summalarini byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga taqsimlash miqdorlari hamda ijtimoiy sug'urtalashga oid boshqa majburiy ajratmalar va badallar stavkalari O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori bilan belgilanadi va to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan yetkaziladi.

Yagona ijtimoiy to'lov va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar davlat soliqlari va yigimlariga tenglashtiriladi.

Mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov to'lovchilari bo'lib yuridik shaxslar hisoblanadi. Yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida alohida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beruvchi, shuningdek, o'z mustaqil balansi va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan barcha turdagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar (bundan keyin - yuridik shaxslar) tushuniladi.

Fuqarolarning ish haqidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallarining to'lovchilari bo'lib, yollanish bo'yicha ishlovchi jismoniy shaxslar hisoblanadi. Yollash bo'yicha ishlovchi fuqarolarning majburiy sug'urta badallarining hisoblab yozilishi va ushlanishi bo'yicha majburiyat, shuningdek ularning to'gri hisoblab yozilishi uchun javobgarlik ish beruvchi yuridik shaxs zimmasiga yuklanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolar majburiy sug'urta badallarining hisoblab yozilishi ijtimoiy sug'urtalash tatbiq etiladigan barcha toifadagi xodimlarga haqiqatda hisoblab yozilgan mehnatga haq to'lash jamg'armasi (daromad) va ish haqidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari moliyalash manbalaridan qat'i nazar, soliq ushlanmalarini hisobga olishlarsiz, barcha ish haqi (daromad) turlariga hisoblanadi, bundan quyida ko'rsatib o'tilgan to'lovlar[25] mustasno:

1. Foydalanilmagan ta'til uchun kompensatsiya.
2. Ishdan bo'shash chog'idagi ishdan bo'shash nafaqasi.
3. Moddiy yordam sifatida beriladigan pul nafaqalarining turli xillari.
4. Kompensatsiya to'lovlari (xizmat safarlariga oid sutkalik pullar va sutkalik pul o'rniga to'lanadigan to'lovlar, ish bilan bog'liq shikastlanish yoki boshqa xildagi sog'liqqa etkazilgan zarar natijasida ko'rilgan zararning qoplanishiga oid to'lovlar).
5. Ayrim toifadagi xodimlarga tekinga beriladigan kvartiralar, kommunal xizmatlar, yoqilg'i, oylik yo'l chiptalari qiymati yoki ularni qoplash qiymati.
6. Berilgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal va yakka tartibdagi boshqa himoya vositalari, sovun, yog'sizlantirish vositalari, sut va davolash-profilaktika ovqatlanishining qiymati.

[25] YaIT bo'yicha Nizom

7. Bepul ovqatlanish qiymati.

8. Tushliklarga oid dotatsiyalar, sanatoriy-kurortlarda davolanishga, dam olish uylariga yo'llanmalarning qiymati, statsionar va ambulatoriyada davolanish uchun to'lovlar.

9. Ishlash uchun boshqa hududga o'tkazish yoxud ko'chib o'tish chog'ida borish, mol-mulkni tashish va xonani ijaraga olish bo'yicha xarajatlarning qoplanishi.

10. Doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki sayyor tusga ega bo'lgan yoxud xizmat safarlari munosabati bilan bog'liq hollarda ish haqiga sutkalik to'lov puli o'rniga qo'shimcha to'lov va ustamalar.

11. Mehnat uchun taqdirlashlarsiz ishlangan kunlar (shanbaliklar, yakshanbaliklar va sh.k.) uchun tegishli byudjet yoki xayriya jamg'armalari hisobiga o'tkaziladigan ish haqi.

12. Ish haqi jamg'armasi (mehnatga haq to'lash jamg'armasi) hisobidan o'tkaziladigan yubiley sanalari, tug'ilgan kunlar munosabati bilan, uzoq yillik va nuqsonsiz mehnat faoliyati, faol jamoatchilik ishi uchun va boshqa shunga o'xshash hollarda rag'batlantirish to'lovlari (bunga mukofotlar ham kiradi).

13. Musobaqalar, ko'riklarda, tanlovlar va shu kabilarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan pul mukofotlari.

14. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish uchun yuborilgan o'quvchilarga to'lanadigan stipendiyalar.

15. Korxona, muassasa va tashkilotlar hisobidan yosh mutaxassislarga oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun to'lanadigan nafaqalar.

16. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar.

Mehnatga haq to'lash fondini tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan kelib tushgan mablag'lar hisobidan shakllantiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari uchun YaIT stavkasi 15%dan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilanadi[26]. Mazkur norma 2018 yil 1 iyundan kuchga kirdi.

2018 yilgi YaITning asosiy stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan[27]*:*

mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklari uchun - 15%;

qolgan korxonalar uchun - 25%.

Bunda ayrim qonun hujjatlarida NNT tomonidan qo'llanilishi shartlaridan kelib chiqib qo'llanishi mumkin bo'lgan YaITning pasaytirilgan stavkalari (25%dan kam) nazarda tutilgan.

6-jadval

YaIT stavkasining pasaytirilishi

Pasaytirilgan stavkalarni qo'llashi mumkin bo'lgan korxonalar	***Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi***
"SOS - O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi* (VMning 26.06.2001 yildagi 271-son qarorining 1-bandi)	7%
1.01.2018 yildan boshlab o'qishni bitirganiga 3 yil bo'lmagan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarining **bitiruvchilari** ishlaydigan korxonalar (byudjet tashkilotlari, tabiiy monopoliyalar sub'ektlari, ustav fondida davlat ulushi 50%dan ortiq bo'lgan tashkilotlar bundan mustasno) (24.05.2017 yildagi PF-5052-son Farmonning 6-bandi):	
bitiruvchi ishga joylashganidan keyingi bir yil ichida	bitiruvchilarning MHTFdan belgilangan stavkaning 50%i
bitiruvchi ishlayotgan ikkinchi va uchinchi yil davomida	bitiruvchilarning MHTFdan belgilangan stavkaning 75%i

[26] 4.05.2018 yildagi PF-5430-son Farmonning 4-bandi

[27] 29.12.2017 yildagi PQ-3454-son qarorga 23-ilova

Pasaytirilgan stavkalarni qo'llashi mumkin bo'lgan korxonalar	*Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi*
1.01.2023 yilgacha maktabgacha ta'lim nodavlat muassasalari (MTNM) (5.04.2018 yildagi PQ-3651-son qarorning 10-bandi)	10%
Davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil qilingan MTNM davlat-xususiy sherikchiligi to'g'risidagi bitim imzolangan oydan boshlab 10 yil muddatga (PQ-3651-son qarorning 10-bandi)	5%
1.07.2018 yildan boshlab fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari (26.04.2018 yildagi PQ-3680-son qarorning 14-bandi)	5%

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob-kitobi har oyda ortib boruvchi yakun bilan soliq organlariga belgilangan shaklda taqdim etiladi[28]. Ayni paytda PF-5430-son Farmon talablarini hisobga olgan holda YaIT hisob-kitobi shakllariga o'zgartirishlar kiritilmagan, 2018 yil iyun uchun hisob-kitob davri tugaguncha kiritilishi ehtimoldan xoli emas. 2018 yil 1 iyungacha va undan keyin yuzaga kelgan soliq solinadigan bazani yil davomida turli stavkalar qo'llangani sababli ajratish lozim.

Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini hisoblab yozish va to'lash tartibi.

Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi jismoniy shaxslar davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilish chogida bir vaqtning o'zida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining sug'urta badallari to'lovchilari bo'ladilar**.**

Dehqon xo'jaligining davlat ijtimoiy sug'urtasiga tegishli shaxs bo'lish istagini bildirgan a'zosi belgilangan tartibda tuman (shahar) soliq organlarida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi sug'urta badallarining to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tishi kerak.

Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi jismoniy shaxslarga, dehqon xo'jaliklari a'zolariga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamlari beriladi.

Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi jismoniy shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydilar. Bunda tadbirkor va dehqon xo'jaligi a'zosining sug'urta badali miqdori bitta eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lmasligi, yoshga doir pensiya huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lib hisoblanuvchi tadbirkorlar uchun esa sug'urta badali miqdori O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining kamida 50 foizini tashkil qilishi kerak.

Sugurta badallari to'lovchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad soligini to'lash uchun belgilangan muddatlarda to'lanadi. Sugurta badallari naqdsiz hisob-kitoblar yo'li orqali yoki naqd pullar bilan bevosita byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobvaraqlariga to'lanadi. To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) albatta STIR va to'lov kirim qilinayotgan davr ko'rsatilishi kerak. Davr ko'rsatilmagan hollarda to'lov u amalga oshirilgan oy uchun kirim qilingan deb hisoblanadi.

Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi jismoniy shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan to'langan sug'urta badallari qaytarilmaydi.

Sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning haqiqatdagi hajmidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab yozish tartibi va to'lash muddatlari.

Sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning haqiqatdagi hajmidan ajratmalarning to'lovchilari bo'lib yuridik shaxslar hisoblanadi.QQS va aktsiz soligini to'lovchi yuridik shaxslar

[28] AV tomonidan 22.03.2013 yilda 2439-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan 10-ilova

sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning haqiqatdagi hajmidan ajratmalarni ko'rsatilgan soliq summalarini chegirgan holda amalga oshiradilar**.**

Majburiy ajratmalarga tortish ob'ekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) hisobot davrida (oyida) sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning haqiqiy hajmi - sanoat, transport va qishloq xo'jaligi korxonalari uchun;

b) korxonalarni komission taqdirlash summalari - vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi dilerlar va korxonalar uchun;

v) o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi - qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha - qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun;

g) tovar aylanmasi, bajarilgan ishlar, xizmatlar, hajmi - umumiy ovqatlanish, ta'minot-sotish tashkilotlari bilan birga tayyorlov, savdo korxonalari uchun;

d) yalpi daromad - ulgurji va chakana dorixona muassasalari uchun;

e) sotilgan mahsulotning butun hajmi, bunga konsignatsiya tovari qiymati ham kiradi - konsignatsiya shartnomalari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar uchun;

j) hisobot davrida olingan haqiqatdagi daromad - banklar, sug'urta tashkilotlari va ularning muassasalari uchun;

z) tadbirkorlik faoliyatidan olingan tushum summalari - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi notijorat, byudjet tashkilotlari uchun.

Sotilgan mahsulotning haqiqatdagi hajmidan majburiy ajratmalarning hisob-kitobi to'lovchilar tomonidan soliq organiga belgilngan shakl bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha har oyda o'sib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.

Majburiy ajratmalar har oy uchun yuridik shaxslar - to'lovchilar tomonidan bevosita byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobraqamlariga hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi**.**

Nazorat uchun savollar:

1. Pensiya jamg'armasining iqtisodiy mohiyatini tushuntiring?
2. Pensiya jamg'armasi qanday manbalar hisobidan shakllanadi?
3. Pensiya jamg'armasiga badallar ajratish mexanizmi qanday?
4. Jamg'arma mablag'lari qanday maqsadlarga ga yo'naltiriladi?
5. Jamg'armaning daromad va xarajatlarini tasarruf etish qanday organlar tomonidan amalga oshiriladi?
6. Davlat pensiyalarining qanday turlari mavjud ?
7. Pensiya tayinlash qonunchilikda uchun qanday talablar qo'yilgan?
8. Davlat pensiyalari qanday hollarda tayinlanadi ?
9. Davlat pensiyalarining hisoblash tartibi qanday ?
10. Davlat pensiyalariga qanday ustamalar belgilangan?
11. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
12. Vaqtincha mehnatga qobilyatsizlik bo'yicha nafaqa qaysi hollarda beriladi?
13. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni hisoblash tartibi qanday?
14. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalari qanday tartibda tayinlanadi va to'lanadi?
15. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallari deganda nimani tushunasiz ?
16. Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari qanday tartibda to'lanadi ?
17. Sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning haqiqatdagi hajmidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash tartibi va to'lash muddatlari qanaqa ?

5-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANDLIKKA KO'MAKLASHISH DAVLAT JAMG'ARMASI

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning maqsadi, mohiyati va ahamiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari.
3. Mamlakat mehnat bozorining shakllanishida ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning tutgan o'rni.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Bandlik fondi, ishsizlik, ishsizlik nafaqasi, ishsiz deb tan olish, yagona ijtimoiy to'lov, mehnat yarmarkasi, mehnat bozori, ijtimoiy so'rovlar, yangi ish o'rni, kredit, xalqaro kredit, migratsiya.

1. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning maqsadi, mohiyati va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish hamda mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) bo'limlarining samarali faoliyat ko'rsatishi tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 13 yanvardagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 31 dekabrdagi 606-sonli qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tarkibida tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrdagi 158-11 sonli "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi davlat maqsadli jamg'armasiga aylantirildi. Hozirgi vaqtda Jamg'arma faoliyati Vazirlar Mahkamasining 173-sonli qaroriga asosan tasdiqlanagan "O'zbekiston Respublikasi Davlat ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida tartibga solinadi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi byudjetdan tashqari maqsadli davlat jamg'armasi hisoblanadi, mahalliy va respublika darajalarida tashkil etiladi va uning mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolingan holda Davlat byudjeti tarkibida jamlanadi hamda Jamg'armaning mustaqil balansida aks ettiriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining byudjetdan tashqari maqsadli maxsus hisob raqamlarida jamlanadi. Bunda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda ish beruvchilar deb yuritiladi) ajratmalari hisobiga tashkil topadigan Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larining etmish foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari ixtiyorida qoladi, keyinchalik tumanlar va shaharlar o'rtasida taqsimlanadi, o'ttiz foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, tegishli hududiy mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarining to'lov topshiriqnomalari bilan pul o'tkazish yo'li bilan respublika darajasida markazlashtiriladi.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larini tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari tasarruf etadilar.

Quyidagilar Ish bilan ta'minlash jamg'armasining ***asosiy vazifalari*** hisoblanadi:

– ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish;

– mehnat bo’limlari ta’minotini moliyalashtirish;

– tijorat banklarida kredit liniyalari ochish yo’li bilan ish o’rinlarini saqlab qolish va yangi ish o’rinlari tashkil etish uchun kreditlar berish;

– fuqarolarni ishga joylashtirish, mehnat, aholini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo’yicha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, sotsiologik kuzatuvlar o’tkazish bilan bog’liq xarajatlarni mablag’ bilan ta’minlash.

Ko’rsatib o’tilgan ***vazifalarni amalga oshirish uchun*** O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning joylardagi organlari:

– ish beruvchilarning majburiy ajratmalarini O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining byudjetdan tashqari maqsadli maxsus hisob raqamlarida jamlaydilar;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasi mablag’laridan ishsizlik nafaqalarini, ishsiz fuqarolarga moddiy yordamni va qonun hujjatlarida ko’rsatilgan boshqa to’lovlarni o’z vaqtida tayinlaydilar, moliyalashtiradilar va to’laydilar;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasi mablag’laridan qonun hujjatlariga muvofiq qat’iy maqsadli foydalanadilar;

– ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimining barqarorligini ta’minlash va uni yanada takomillashtirish uchun oldini oluvchi chora tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida Ish bilan ta’minlash jamg’armasining moliyaviy ahvolini prognozlash bo’yicha aktuar hisob-kitoblarni amalga oshiradilar;

– majburiy ajratmalar miqdorlarini belgilash to’g’risida takliflar tayyorlaydilar;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasining kelgusi yil uchun daromadlari manbalari va ulardan foydalanish yo’nalishlari prognozi loyihasini ishlab chiqadilar va O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadilar;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasi byudjetining ijrosi to’g’risidagi har oylik hisobotlarni, shuningdek yiliga bir marta Ish bilan ta’minlash jamg’armasi daromadlari va ulardan foydalanishning ahvoli to’g’risidagi mustaqil auditorlik tekshiruvi natijalarini tayyorlaydilar va O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etadilar;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasi vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlarni o’z vakolatlari doirasida ishlab chiqadilar;

– joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ish bilan ta’minlash hududiy dasturlarini amalga oshirishda, haq to’lanadigan jamoat ishlarini tashkil etishda qatnashadilar;

– majburiy ajratmalar va to’lovlarning to’g’ri hisoblanishini va o’z vaqtida Ish bilan ta’minlash jamg’armasiga to’liq to’lanishini hisobga oladilar va nazorat qiladilar;

– ish beruvchilar tomonidan majburiy ajratmalar va to’lovlar to’g’ri hisoblab chiqilishini, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Ish bilan ta’minlash jamg’armasi bilan o’zaro hisob-kitoblarning ahvolini tekshiradilar;

– qonun hujjatlariga muvofiq majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish tartibini va to’lov muddatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma’muriy choralar qo’llaydilar;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasining to’lov sub’ektlari va moliyalashtirish ob’ektlari bo’yicha to’liq hisob-kitobni va elektron ma’lumotlar bazasi yuritilishini ta’minlaydilar. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Ish bilan ta’minlash jamg’armasiga taalluqli masalalar bo’yicha xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda hamkorlik qiladi.

Ish beruvchilar:

– majburiy to’lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda hisoblab chiqarish va Ish bilan ta’minlash jamg’armasiga to’lashga;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasining kreditlashga, haq to’lanadigan jamoat ishlarini tashkil etishga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan shaxslarni kasbga

tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ajratilgan mablag'larini sarflashning maqsadli yo'naltirilishiga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga;

– Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash bo'yicha belgilangan shakldagi hisobotlarning ishonchliligini va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashga majburdirlar.

2. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari.

Ish bilan ta'minlash ***jamg'armasi mablag'lari*** quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ish haqi jamg'armasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdordagi majburiy ajratmalari, ushbu xarajatlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi;

– tegishli byudjet mablag'larini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadigan miqdorlarda respublika va mahalliy byudjet mablag'laridan dotatsiyalar;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablar buzilganligi uchun joylardagi mehnat organlari tomonidan belgilangan tartibda solinadigan moliyaviy sanktsiyalar va qo'shilgan penyalar summasi;

– qo'shimcha va yangi ish o'rinlari yaratish uchun kichik biznes sub'ektlarini kreditlash uchun tijorat banklari tomonidan ochilgan kredit liniyalaridan foizlar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar.

Quyidagilar Ish bilan ta'minlash jamg'armasiga ajratmalar ***to'lashdan ozod etiladilar***:

– nogironlar jamoat tashkilotlariga qarashli o'quv-ishlab chiqarish va ishlab chiqarish korxonalari;

– protez-ortopediya buyumlari ishlab chiqarishga, nogironlarga protez qo'yish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan korxonalar;

– tarbiya va ta'lim muassasalari huzuridagi o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va o'quv-ishlab chiqarish korxonalari;

– byudjet ta'minotidagi teatr-tomosha tashkilotlari.

Ish bilan ta'minlash jamg'armasi mablag'larini jamlash va ulardan foydalanish uchun banklarda hisob raqamlari ochiladi.

Ish bilan ta'minlash ***jamg'armasi mablag'lari hisobiga*** quyidagilar amalga oshiriladi:

– mehnat organlarida ishsizlik maqomi olgan va ish qidiruvchi sifatida ro'yxatda turgan shaxslarni kasbga tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini mablag' bilan ta'minlash;

– ishsizlik bo'yicha nafaqalar, mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish uchun kompensatsiyalar to'lash va qonun hujjatlariga muvofiq ishsizlarga moddiy yordam berish;

– ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarini qoplash;

– haq to'lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlash;

– nogironlar va fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlari (ishlab chiqarishlar) tashkil etish tadbirlarini mablag' bilan qisman ta'minlash;

– mehnat organlari ta'minoti, barcha darajalardagi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarini (tuman va shahar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limlaridan tashqari) joylashtirish uchun binolar qurish va ularni rekonstruktsiya qilish, ularni moddiy-texnikaviy ta'minlash, kompyuterlar, nusxa ko'chirish va boshqa zarur texnika bilan jihozlash;

– axborot-ma’lumotlar va reklama-noshirlik ishlarini amalga oshirish;

– demografiya, aholini ish bilan ta’minlash va ijtimoiy himoya qilish, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni normalash va unga haq to’lash masalalari bo’yicha normativ-uslubiy va yo’riqnoma materiallar ishlab chiqishni mablag’ bilan ta’minlash;

– belgilangan tartibda respublika darajasida va hududiy darajada ijtimoiy kuzatuvlarni tashkil etish va o’tkazish, ish bilan ta’minlash masalalari bo’yicha aholining ayrim guruhlari o’rtasida anketa so’rovlari o’tkazish;

– respublika va hududiy mehnat bozori axborot tizimlarini yaratish va ularning dasturiy ta’minotini ishlab chiqish, shu jumladan texnika vositalari sotib olish;

– ish bilan band bo’lmagan aholiga yordam ko’rsatish, shu jumladan ishga joylashtirishga ko’maklashish va maslahat xizmatlari ko’rsatish bilan bog’liq xarajatlarni mablag’ bilan ta’minlash;

– aholini ish bilan ta’minlashga doir muammolar bo’yicha xalqaro hamkorlikni mablag’ bilan ta’minlash;

– ishchi kuchi eksport qilish masalalari bo’yicha xalqaro loyiha va shartnomalarni amalga oshirish, O’zbekiston Respublikasining chet ellarga ishga yuborilgan fuqarolarini ishga joylashtirishni tashkil etish, ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlash bilan bog’liq xarajatlarni mablag’ bilan ta’minlash;

– Ish bilan ta’minlash jamg’armasi mablag’larini ko’paytirishga yo’naltirilgan, aholini ish bilan ta’minlashga bevosita ko’maklashuvchi tijorat va xo’jalik hisobidagi faoliyatni amalga oshirish, mulkchilik va xo’jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalar tashkil etish;

– tijorat banklari tomonidan ochiladigan kredit liniyalari orqali xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga, shu jumladan kichik biznes sub’ektlariga, dehqon va fermer xo’jaliklariga, oilaviy tadbirkorlik sub’ektlariga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to’lov, ta’minlash va qaytarish shartlarida yangi ish o’rinlari yaratish uchun qisqa muddatli va o’rta muddatli kreditlar berish.

Bunda Ish bilan ta’minlash jamg’armasidan kreditlar ustuvor tartibda va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning hududiy bosh boshqarmalari takliflariga ko’ra yangi ish o’rinlari ustuvor ravishda yaratiladigan hududlarda, uzoqda joylashgan, borish qiyin bo’lgan va chegara tumanlarda, murakkab vaziyatda va ekologik noqulay sharoitli mintaqalarda yangi ish o’rinlari yaratish, shuningdek «Aholini ish bilan ta’minlash to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida ko’rsatilgan aholining alohida toifalarini ish bilan ta’minlash bilan bog’liq maqsadlar uchun beriladi.

Ish bilan ta’minlash jamg’armasi hisob raqamlariga:

– tekshirishlar natijasida majburiy ajratmalarga qo’shimcha hisoblangan mablag’lar summasidan;

– mehnat va aholini ish bilan ta’minlash to’g’risidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun undirilgan ma’muriy va moliyaviy sanktsiyalar summasidan tushadigan mablag’larning 15 foizi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining moddiy yordam jamg’armasiga yo’naltiriladi. Ushbu jamg’arma mablag’larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ish bilan ta’minlash jamg’armasi mablag’laridan foydalanish yo’nalishlari respublika va hududiy darajada ishlab chiqilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ish bilan ta’minlash dasturlari asosida belgilanadi.

Ish bilan ta’minlash jamg’armasining Qoraqalpog’iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari hisob raqamlarida etishmagan mablag’lari O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan Ish bilan ta’minlash jamg’armasi mablag’larining Respublika qismi hisobidan qoplanadi. Yil boshida

zarur hollarda Ish bilan ta’minlash jamg’armasi hisob raqamidagi bo’sh mablag’lar Davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun yo’naltirilishi mumkin.

Ish bilan ta’minlash jamg’armasi mablag’laridan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanilishiga yo’l qo’yilmaydi.

Ish beruvchilarning Ish bilan ta’minlash jamg’armasiga majburiy ajratmalari to’liq va o’z vaqtida tushishi ustidan nazorat O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, uning joylardagi organlari va soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishsizlik nafaqalari, shuningdek ishsizlarga kompensatsiyalar va moddiy yordam to’g’ri hisoblanishini nazorat qilish O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning viloyat bo’linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ish bilan ta’minlash jamg’armasi mablag’laridan foydalanilishini nazorat qilish O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi tomonidan, zarur hollarda, auditorlar va auditorlik firmalarini jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

3. Mamlakat mehnat bozorining shakllanishida ish bilan ta’minlashga ko’maklashuvchi jamg’armaning tutgan o’rni.

Aholini ish bilan ta’minlash O’zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi “Aholini ish bilan ta’minlash to’g’risida”gi Qonuni asosida tartibga solinadi. Ushbu qonun hujjati O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O’zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab kelayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga tatbiq etiladi. Ish bilan ta’minlanish - fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o’z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog’liq bo’lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir. Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo’lgan o’z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan haq to’lanadigan ishni bajarishga aloqasi bo’lmagan faoliyat bilan shug’ullanish mutlaq huquqi fuqarolarga tegishlidir. Majburiy mehnat, ya’ni biron-bir jazoni qo’llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash taqiqlanadi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Kishilarning ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo’lmasligi ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo’la olmaydi.

Quyidagilar ***ish bilan ta’minlangan*** deb hisoblanadi:

– yollanib ishlayotgan, shu jumladan ishni to’liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan, shuningdek haq to’lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo’lgan fuqarolar;

– betobligi, mehnat ta’tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishning to’xtatib qo’yilganligi munosabati bilan, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyida bo’lmaganda xodimning ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo’lmagan fuqarolar;

– o’zini ish bilan mustaqil ta’minlayotgan fuqarolar, shu jumladan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a’zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a’zolari;

– Qurolli Kuchlarda, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo’shinlarida xizmatni o’tayotgan, shuningdek muqobil xizmatni o’tayotgan fuqarolar;

– ta’lim to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan fuqarolar;

– qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar.

O’n olti yoshdan boshlab to pensiya bilan ta’minlanish huquqini olishgacha bo’lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo’lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro’yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o’tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar ishsiz deb e’tirof etiladi.

Shaxslarni ishsiz deb e'tirof etish to'g'risidagi qaror mahalliy mehnat organi tomonidan ular ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran o'n birinchi kundan kechiktirmay qabul qilinadi.

Quyidagilar ishsiz deb e'tirof etilmaydi:

– mehnat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun ichida taklif etilgan maqbul keladigan ishni ikki marta rad etgan shaxslar;

– ro'yxatga olingan kundan boshlab o'n kun ichida maqbul keladigan ishni qidirish maqsadida uzrsiz sabablarga ko'ra mehnat organiga kelmagan shaxslar. Taklif etilgan ishdan bosh tortgan kundan yoki maqbul keladigan ishni qidirish maqsadida uzrsiz sabablarga ko'ra mehnat organiga kelmagan kundan boshlab o'ttiz kalendar kun o'tganidan keyingina shaxs ish qidirayotgan sifatida qayta ro'yxatdan o'tishga haqli bo'ladi. Fuqarolarni ishsiz sifatida ro'yxatga olish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Birinchi marta ish qidirayotgan, kasbi (mutaxassisligi) bo'lmagan shaxslar uchun dastlabki kasb tayyorgarligini talab qilmaydigan ish, bunday ishni topib berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, ularning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda haq to'lanadigan boshqa ish, shu jumladan vaqtinchalik ish maqbul keladigan ish deb hisoblanadi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligiga mos bo'lgan, yoshini, sog'lig'i holatini, mehnat stajini va avvalgi mutaxassisligi bo'yicha tajribasini, yangi ish joyining transportda qatnash jihatidan qulayligini inobatga oluvchi ish maqbul keladigan ish deb hisoblanadi. Qonun 27-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan ishsizlikning dastlabki davri tugaganidan so'ng kasbiga (mutaxassisligiga) mos ish topib berish mumkin bo'lmagan taqdirda, uning qobiliyatini, kuchini, oldingi tajribasini va unga qulay bo'lgan o'qitish vositalarini inobatga olgan holda kasbini (mutaxassisligini) o'zgartirishni talab qiladigan ish maqbul keladigan ish deb hisoblanishi mumkin.

Quyidagi hollarda ish ***maqbul keladigan ish deb hisoblanishi mumkin emas***, agar:

– ish yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lsa;

– taklif etilgan ish doimiy yashash joyidan ancha uzoq bo'lsa va transportda qatnash jihatidan qulay bo'lmasa. Ish joyining transportda qatnash jihatidan qulayligini (yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan uzoqlikni) mazkur joyda jamoat transporti tarmog'ining rivojlanganligini hisobga olgan holda mahalliy davlat hokimiyati organi aniqlaydi;

– taklif etilgan ishda ish haqi shu mutaxassislik va malaka uchun belgilangan tartibda aniqlanadigan eng kam miqdordan oz bo'lsa;

– ishni rad etish uzrli sabablar bilan asoslangan bo'lsa.

Aholini ish bilan ta'minlash sohasidagi davlat siyosati ***quyidagi printsiplarga*** asoslanadi:

– mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli va mansab mavqeidan, dinga munosabati, e'tiqodidan, jamoat birlashmalariga mansubligidan, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlariga hamda ular mehnatining natijalariga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlardan qat'iy nazar teng imkoniyatlarni ta'minlash;

– kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta'minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;

– mehnat qilishning ixtiyoriyligi;

– ish bilan ta'minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta'minlash;

– ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun mavjud ish joylarini saqlab qolayotgan va yangi ish joylarini yaratayotgan ish beruvchilarni rag'batlantirish;

– ish bilan ta'minlash sohasidagi tadbirlarni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish;

– aholini ish bilan ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda davlat organlari, kasaba uyushmalari, xodimlarning vakillik organlari va ish beruvchilarning o’zaro hamkorligi;

– aholini ish bilan ta’minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik.

Davlat:

– ish bilan ta’minlash turini, shu jumladan turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini;

– ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g’ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan himoyalanishni;

– maqbul keladigan ish tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berishni;

– har kimga kasbga va ishga ega bo’lishda, mehnat qilish va ish bilan ta’minlanish shart-sharoitlarida, mehnatga haq to’lashda, xizmat pog’onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratishni;

– yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o’qitishni, mahalliy mehnat organlarida yoki ularning yo’llanmasi bilan boshqa o’quv yurtlarida stipendiya to’lab malakasini oshirishni;

– boshqa joydagi ishga qabul qilinganda sarf qilingan moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to’lashni;

– haq to’lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.

Davlat:

– ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo’lmagan shaxslarga, shu jumladan o’n to’rt yoshga to’lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg’iz ota, yolg’iz onalarga hamda ko’p bolali ota-onalarga;

– ta’lim muassasalarini tamomlagan yoshlarga;

– O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo’mita va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo’shinlaridan bo’shatilganlarga;

– nogironlarga va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslarga;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo’sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslarga qo’shimcha kafolatlarni ta’minlaydi.

Qo’shimcha kafolatlar qo’shimcha ish joylari, ixtisoslashtirilgan korxonalar, shu jumladan nogironlar mehnat qiladigan korxonalar barpo etish, ish o’rgatishning maxsus dasturlarini tashkil etish, korxona, muassasa va tashkilotlarga mazkur toifadagi fuqarolarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralar bilan ta’minlanadi.

Harbiy xizmatga chaqirilgan (kirgan) xodim zahiraga bo’shatilganidan yoki iste’foga chiqqanidan keyin, basharti O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidan, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo’mita va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo’shinlaridan bo’shatilgan kunidan boshlab uzog’i bilan uch oy ichida ishga joylashish masalasida ish beruvchiga murojaat etgan bo’lsa, avvalgi ish joyida ishga joylashish huquqiga ega. Harbiy xizmatga chaqirilgan (kirgan), lekin keyinchalik zahiraga bo’shatilgan yoki iste’foga chiqqan xodim, agar uning harbiy xizmatga chaqirilgan (kirgan) kunidan boshlab uch oydan ortiq vaqt o’tmagan bo’lsa, avvalgi ish joyiga (lavozimiga) qaytib kelish huquqiga ega. Korxona qayta tashkil etilganda harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslarni ishga joylashtirishni uning huquqiy vorisi, korxona tugatilganda esa - mahalliy mehnat organi amalga oshiradi. Xodimlarga qonunchilikda ko’rsatilgan kafolatlarni berish mumkin bo’lmagan hollarda, mahalliy mehnat organi ishga joylashtirishni, zarur hollarda esa, kasbi bo’yicha bepul o’qitishni ta’minlaydi. Bunday kafolatlar muqobil xizmatga chaqirilgan xodimlarga ham tatbiq etiladi.

Davlat organlaridagi yoki xodimlarning vakillik organlaridagi saylab qo’yiladigan lavozimlarga saylanganligi tufayli ishdan ozod qilingan xodimlarga saylab qo’yiladigan

lavozimdagi vakolatlari tugagandan keyin avvalgi ishi (lavozimi) beriladi, bunday ish (lavozim) mavjud bo'lmasa, avvalgisiga teng ish (lavozim) beriladi.

Har kim ish beruvchiga bevosita murojaat qilish yoki mehnat organlarining bepul vositachiligi orqali ish joyini erkin tanlash huquqiga ega.

Ish qidirayotgan va mehnat organlariga murojaat qilgan fuqarolar ta'min etiladigan ish turini, ish joyini va mehnat rejimini erkin tanlash maqsadida kasb-korga doir bepul maslahatlar olish, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tish, malaka oshirish hamda tegishli axborot olish huquqiga ega.

Belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga ega.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mamlakat tashqarisidagi hamda chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mehnat organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan bo'ysunish bo'yicha yuqori organga yoki mansabdor shaxsga yoxud bevosita sudga shikoyat qilish mumkin.

Davlat ishsiz shaxslarga quyidagilarni kafolatlaydi:

– ishsizlik nafaqasi to'lash;

– mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;

– ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda moddiy yordam berish;

– haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;

– mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

Mehnat shartnomasi(25-modda):

– xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etganligi sababli;

– texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi sababli;

– xodimning malakasi etarli bo'lmaganligi yoki sog'lig'i holatiga ko'ra bajarayotgan ishiga noloyiqligi sababli;

– shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga qayta tiklanishi sababli bekor qilingan hollarda ish qidirish davrida ikki oydan ortiq bo'lmagan davr mobaynida xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi saqlanib qoladi, bunda xodimga to'langan bir oylik ishdan bo'shatish nafaqasi ham qo'shib xisobga olinadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan kafolatlar mulkdor o'zgarganligi sababli korxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham tatbiq etiladi.

Agar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismida ko'rsatilgan xodimlar mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan boshlab o'n kalendar' kun mobaynida mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tsalar, mahalliy mehnat organi bergan ma'lumotnomaga binoan uchinchi oy uchun ham oldingi ish joylaridan o'rtacha ish haqi olish huquqiga ega bo'ladilar.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismida ko'rsatilgan xodimlarga uch oy mobaynida maqbul keladigan ish topib berilmagan taqdirda, ular ishsiz deb e'tirof etiladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismida ko'rsatilgan, mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin o'n kun ichida maxalliy mehnat organida ro'yxatga olingan va kasbi bo'yicha qayta o'qitilayotgan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda malakasini oshirayotgan xodimlarga qonunning 25- moddasi sakkizinchi qismida hamda 26-moddasida nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda stipendiya to'lanadi.

Agar ish beruvchi nochor (bankrot) deb topilsa, u bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan xodimlar ish haqi va o'zlariga tegishli boshqa to'lovlar xususida boshqa barcha kreditorlarning talablariga nisbatan imtiyozli huquqdan foydalanadilar.

Tugatilayotgan korxonalarning mablag'i bo'lmagan taqdirda, yuqorida ko'rsatilgan xodimlarga kompensatsiyalar Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tugatilishi, xodimlar soni (shtati) qisqartirilishi munosabati bilan ishdan ozod etilgan, mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin o'n kun ichida mehnat organlarida ro'yxatga olingan hamda kasbi bo'yicha qayta o'qitilayotgan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda malakasini oshirayotgan xodimlarga mehnatga oid munosabatlar to'xtatilgan kundan boshlab dastlabki uch oy davomida oldingi ishidagi o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda stipendiya to'lanadi.

Mehnat organi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ishdan bo'shatilayotgan shaxslarni ishga qabul qilishda ularning o'qishini tashkil etish xarajatlarini to'la yoki qisman qoplashi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli yoki o'zlariga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra kasb kasalligiga yo'liqish natijasida ishdan maxrum bo'lgan hamda ishga joylashishga va kasbga tayyorlashga va qayta tayyorlashga, malakani oshirishga muxtoj shaxslar ishdan ozod etilgan xodimlarga tenglashtiriladi.

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan, pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin (qonun hujjatlarida belgilangan umumiy asoslarga ko'ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil oldin) pensiyaga chiqish huquqi beriladi.

Qonunning 25-moddasida ko'rsatib o'tilgan shaxslardan tashqari ishidan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan, mehnat organlarida ro'yxatga olingan, qaramog'ida voyaga etmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan shaxslarga kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, malaka oshirish davrida oldingi ish joyidagi o'rtacha oylik ish haqining kamida etmish besh foizi (qaramog'ida bolalari va boshqa kishilar bo'lmaganlarga esa - ellik foizi) miqdorida, biroq qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan oz bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasida tarkib topgan o'rtacha ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda stipendiya to'lanadi.

Uzoq vaqt (bir yildan ko'proq) ishlamayotgan, birinchi marta ish qidirayotgan hamda kasbga tayyorlashga va qayta tayyorlashga, malaka oshirishga muhtoj shaxslarga aholining shu toifasi uchun nazarda tutilgan ishsizlik nafaqasidan oz bo'lmagan va qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda stipendiya tayinlanadi (26-modda).

Ishsizlik nafaqasi qonunning 3-moddasiga muvofiq ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga tayinlanadi. qaramog'ida uchtagacha kishi bo'lgan,o'ttiz besh eshga to'lmagan ishsiz erkaklarga ishsizlik nafaqasi ular haq to'lanadigan jamoat ishlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda ishtirok etgan taqdirda tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasi ularga mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan birinchi kundan e'tiboran yoziladi va to'lanadi.

Ishsizlik nafaqasi ko'pi bilan:

- ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan yoki uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan shaxslarga o'n ikki oylik davr mobaynida yigirma olti kalendar' hafta;

- ilgari ishlamagan va birinchi bor ish qidirayotgan shaxslarga esa o'n ikki oylik davr mobaynida o'n uch kalendar' hafta to'lanadi.

Ishsiz shaxs nafaqa olish davrida ish qidirishi va har ikki xaftada kamida bir marta mahalliy mehnat organida yo'qlamadan o'tishi kerak.

Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi.

Qaramog'ida o'n olti yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori o'n foizga oshiriladi.

Ish haqiga koeffitsientlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsientni qo'llagan holda aniqlanadi.Ishsizlik nafaqasi miqdorini hisoblab chiqishda rayon koeffitsientlarini qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ishdan va ish haqidan (29-modda) (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan taqdirda, ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga oldingi ish joyidagi o'rtacha ish haqining ellik foizi miqdorida, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan va nafaqani hisoblash paytida O'zbekiston Respublikasida tarkib topgan o'rtacha ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi to'lash kafolatlanadi.

Harbiy xizmatdan, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati organlaridan bo'shatilishi munosabati bilan ish haqidan maxrum bo'lgan shaxslar qonunning 29-moddasida nazarda tutilgan shartlar asosida ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

Harbiy xizmatdan, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati organlaridan bo'shatilgan hamda mahalliy mehnat organlariga murojaat qilishdan oldin ishlamagan shaxslarga nafaqa miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdori darajasida hisoblab chiqariladi.

Ilgari ishlamagan, birinchi marta ish qidirayotgan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularga qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida etmish besh foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga xarakat qilayotgan ishsiz shaxslarga quyidagi miqdorda nafaqa to'lash kafolatlanadi:

– mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek o'n ikki oy mobaynida xaq to'lanadigan ish bilan bandligi o'n ikki kalendar' xaftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatishni yoki malakasini oshirishni talab qilmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda;

– boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarga, maxalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining etmish besh foizi miqdorida.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar ishlab chikarishdan ajralgan holda kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tgandan, malaka oshirishni tugatgandan keyin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

Quyidagi hollarda ishsizlik nafaqasini to'lash bekor qilinadi:

– ishsiz shaxs-ishga joylashganda;

– ishsiz shaxs taklif qilingan maqbul keladigan ishni ikki marta rad etgan taqdirda;

– qaramog'ida uchtagacha kishi bo'lgan, o'ttiz besh eshga to'lmagan ishsiz erkak haq to'lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etishni rad etgan taqdirda;

– ishsiz shaxs qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lgan taqdirda;

– ishsiz shaxs sudning hukmi bilan qamoq yoki ozodlikdan maxrum etish tariqasidagi jazoga hukm etilgan taqdirda;

– ishsizlik nafaqasini olib turgan davrda mahalliy mehnat organini xabardor qilmay vaqtinchalik bajariladigan ishga joylashilgan taqdirda;

– ishsizlik nafaqasini aldov yo'li bilan olgan taqdirda;

– ishsiz shaxs vafot etgan taqdirda.

– Quyidagi hollarda ishsizlik nafaqasini to’lash to’xtatib qo’yiladi:

– ishsiz shaxs kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga yuborilgan bo’lsa, stipendiya olgan holda kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o’tish yoki malaka oshirish davrida;

– ishsiz shaxs ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasida davolash kursini o’tayotgan bo’lsa, bunday muassasada bo’lgan davrida;

– ishsiz shaxs haq to’lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etayotgan bo’lsa, bunday ishlarda ishtirok etgan davrida.

Ishsiz shaxs uzrsiz sabablarga ko’ra belgilangan muddatda maxaliy mehnat organiga kelmagan taqdirda, ishsizlik nafaqasini to’lash uch oygacha muddatga to’xtatib qo’yilishi yoki nafaqa miqdori kamaytirilishi mumkin.

Ishsizlik nafaqasini to’lashning belgilangan muddati o’tishi munosabati bilan ishsizlik nafaqasini olish huquqidan maxrum bo’lgan ishsiz fuqarolarga Ish bilan ta’minlashga ko’maklashuvchi davlat jamg’armasidan yoki mahalliy byudjetlardan ajratiladigan moddiy yordam ko’rsatilishi mumkin.

Ish bilan ta’minlashga ko’maklashuvchi davlat jamg’armasi yoki mahalliy byudjetlar mablag’laridan ajratiladigan moddiy yordam ko’rsatish tartibi, miqdori va shartlari tegishincha O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Bandlik jamg’armasini tashkil etishning zarurligi.
2. Bandlik jamg’armasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Jamg’armaning mablag’lari qanday manbalar hisobidan shakllanadi ?
4. Jamg’arma mablag’lari qanday maqsadlarga sarflanadi ?
5. Kimlar ish bilan ta’minlangan deb hisoblanadilar ?
6. Ish bilan ta’minlashda qanday huquqlar mavjud ?
7. Aholini ish bilan ta’minlash organlarini ayting ?
8. Ishdan mahrum bo’lgan chog’da qanday ijtimoiy kafolatlar beriladi ?

6-MAVZU: DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDAN TUSHGAN MABLAG'LAR JAMG'ARMASI

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining tashkil etilishi zarurligi va ahamiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mablag'larini shakllantirish.
3. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mablag'laridan foydalanish.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Xususiylashtirish, raqobat, tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, yalpi ichki mahsulot, modernizatsiyalash, Savdo-sanoat palatasi, menejment, moliyaviy boshqaruv, "nol" xarid qiymati, investor, monopoliya.

1. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining tashkil etilishi zarurligi va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash davlat qo'mitasi Davlat mulki jamg'armasi va Davlat mulkini boshqarish bo'yicha qo'mita negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 7 fevaldagi 758 sonli "Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 martdagi 171-sonli "Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasi to'g'risida"gi farmonlariga asosan tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 4 maydagi "o'zbekiston respublikasi davlat mulki qo'mitasining nomini o'zgartirish to'g'risida"gi PF-3603-sonli Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining nomi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi Davlat mulki qo'mitasi deb o'zgartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4483-sonli Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi 5016-sonli Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etildi.

Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyundagi 391-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan tartibga solinadi.

Xususiylashtirilgan korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tiklash va samaradorligini oshirishni har tomonlama keng qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydigan yangi ish o'rinlarini yaratish, ushbu maqsadlarda vakolatli davlat organlari, moliya hamda boshqa bozor tuzilmalarining Savdo-sanoat palatasi hamda mahalliy

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan mustahkam hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining g'oyat muhim vazifasi hisoblanadi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

tarmoqlar, hududlar va turli xususiylashtirish shakllari bo'yicha muttasil yangilanib turuvchi ma'lumotlar bazasini hamda xususiylashtirilgan ob'ektlar reestrini, shuningdek, davlat aktivlari reestrini shakllantirish;

xususiylashtirilgan korxonalar faoliyati moliyaviy-iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini soliq, iqtisodiyot va statistika organlari bilan birgalikda doimiy asosda tahlil qilib borish, buning asosida faoliyat ko'rsatmayotgan, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni, bo'sh yotgan va samarasiz foydalanilayotgan ob'ektlar hamda yer uchastkalarini aniqlash;

ilgari xususiylashtirilgan korxonalar samaradorligining pastligi hamda ishlamayotganligi sabablari va omillarini, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari, bo'sh yotgan va qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni aniqlash;

yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish va modernizatsiyalash hamda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ruxsat beruvchi hujjatlarni olishda, kommunikatsiyalarga ulanishda va tijorat banklaridan kreditlar ajratilishida ularga ko'maklashish maqsadida aniq xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirishning "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta'minlash;

Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda xususiylashtirilgan ob'ektlar negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tadbirkorlarga biznes yuritish va biznes-rejalarni ishlab chiqish asoslari, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment, moliyaviy boshqaruv va boshqa fanlarni kasb-hunar kollejlari bazasida o'tkaziladigan kurslarda o'qitishni tashkil qilish, bunda tajriba almashish uchun respublikamizda ishlayotgan katta muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkorlar va xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va yangi investorlarni jalb etish dasturlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda ishtirok etish;

davlat aktivlarini boshqarish, davlat ulushiga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlari faoliyatini monitoring qilish va tahlil etish, ularda korporativ boshqaruvning zamonaviy xalqaro standartlari va metodlarini joriy etish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiy mulkdorlarga, shu jumladan, "nol" xarid qiymati bo'yicha sotishning ochiq-oydinligi va shaffofligini ta'minlash, investorlar tomonidan qabul qilingan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi ustidan monitoring olib borish;

monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, raqobatni va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish, baholash, rieltorlik va birja faoliyatini litsenziyalash, reklama bozorini tartibga solish;

kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, rahbar va mutaxassislar, shu jumladan, idoraviy tuzilmalar rahbarlari hamda mutaxassislarining ish shakllari va uslublarini takomillashtirish, zimmasiga yuklangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun ularning mas'uliyatini oshirish.

2. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mablag'larini shakllantirish.

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tuzilmasida hududiy filiallar bilan birgalikda Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi tashkil etilsin, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi:

kasb-hunar kollejlari negizida, mashg'ulotlardan bo'sh paytlarda biznesni yuritish va biznes-rejalarni ishlab chiqish asoslari, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment,

moliyaviy boshqaruv va boshqa zarur fanlarni o’qitgan holda xususiylashtirilgan korxonalar negizida loyihalarni amalga oshirayotgan tadbirkorlar uchun o’quv kurslarini tashkil etish;

tadbirkorlar tomonidan investitsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish bo’yicha amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq zarur ma’lumotlarni olishda ko’maklashish, shuningdek, investitsiya jarayonini amalga oshirishning barcha bosqichlarida tadbirkorlarga hamrohlik qilish;

xodimlarni tanlash va o’qitishda, ularning kasbiy malakasini doimiy oshirib borishda tadbirkorlarga yordam ko’rsatish;

o’qishni tashkil qilish uchun oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari o’qituvchilarini, vazirliklar va idoralar mutaxassislarini, respublikamizda ishlayotgan katta muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkorlar va xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

markaz faoliyati yo’nalishlari bo’yicha xalqaro moliya institutlari, xorijiy donorlar va chet mamlakatlardagi tadbirkorlarni o’qitish markazlari bilan hamkorlik qilish.

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, O’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi markazi, Mehnat vazirligi, Adliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi, Davlat bojxona qo’mitasi, Markaziy bank va tijorat banklari, Savdo-sanoat palatasi Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o’qitish respublika markazining o’quv kurslarini o’tkazishda faol ishtirok etadilar.

Jamg’arma mablag’lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) Jamg’armaga yo’naltiriladigan xo’jalik jamiyatlaridagi davlat ulushi bo’yicha dividendlar;

b) Jamg’armaga yo’naltiriladigan davlat mulki ijarasidan tushadigan mablag’lar, ijara to’lovini to’lash kechiktirilganligi uchun penya va shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar summasi;

v) jamlanadigan boshqa manbalar, shu jumladan:

korxonalarni, xo’jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aktsiyalar (ulushlar)ni, yer uchastkalarini (shu jumladan, yakka tartibda uy-joy qurish (dehqon xo’jaligini yuritish) uchun yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi) va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni (keyingi o’rinlarda davlat aktivlari deb ataladi) sotishdan tushgan mablag’lar;

Jamg’arma mablag’lari hisobidan ilgari berilgan qarzlar bo’yicha qarz oluvchilar tomonidan olingan qarzlarning asosiy summasi va ular bo’yicha hisoblangan foizlar tarzida qaytarilgan tushumlar;

Jamg’armaning vaqtincha bo’sh mablag’larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

tuzilgan va bekor qilingan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari), berilgan qarzlar bo’yicha tushgan penyalar va jarimalar;

xo’jalik jamiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilganda davlat ulushi bo’yicha tushumlar;

protokolni yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan yoki uni rad etgan auktsionlar, tanlovlar (tenderlar) yoki ommaviy oferta g’oliblaridan ushlab qolingan zakalat summalari;

davlat aktivlarini sotishda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun neustoyka summalari;

Jamg’armaning mablag’lari hisobidan ilgari o’tkazilgan mablag’lar qaytarilishidan tushumlar;

sud qarorlari bo’yicha tushumlar;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mablag’lar Jamg’armaning O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G’aznachiligi va uning hududiy bo’linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlarida jamlanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi mablag'laridan foydalanish.

Jamg'arma mablag'larini taqsimlash, Nizomga[29] muvofiq taqsimlanadigan mablag'lardan tashqari, quyidagi nisbatlarda amalga oshiriladi:

a) 96,5 foizi - kichik tadbirkorlik sub'ektlarining xususiylashtirilgan ob'ektlar va korxonalar negizida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga maqsadli yo'naltirish uchun tijorat banklariga;

b) 1,5 foizi - mablag'larni maqsadli ravishda bozor infratuzilmasini rivojlantirishga va tadbirkorlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, shu jumladan, tadbirkorlar uchun tashkil etilgan o'quv kurslarini moliyalashtirishga yo'naltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga;

v) 2 foizi - tasarruf etish va boshqarish funktsiyalarini amalga oshirish, shu jumladan, davlat mulki va xususiylashtirilgan ob'ektlar elektron bazasi va reestrini shakllantirish, xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda Davlat raqobat qo'mitasi deb ataladi)ning byudjetdan tashqari jamg'armasiga.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob'ektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 17 yanvardagi PF-4933-son Farmoniga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki ob'ektlarini sotishdan tushadigan mablag'lar, shuningdek davlat aktivlarini sotishdan tushadigan mablag'larning 25 foiz miqdoridagi qismi Davlat raqobat qo'mitasi hududiy organlari tomonidan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladi, ushbu Nizomning 7-bandiga muvofiq Davlat raqobat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tasarrufida qoldiriladigan, shuningdek, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga yo'naltiriladigan auktsion savdolarida fuqarolarga yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini sotishdan tushadigan tushumning 10 foizi mablag'lar bundan mustasno.

Bunda:

tushgan mablag'lardan davlat aktivini sotish bilan bog'liq xarajatlar (baholovchi tashkilotlar, savdolar tashkilotchilari, vositachilar va depozitariylar xizmatlarini to'lash xarajatlari) chegiriladi. Davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) bekor qilingan taqdirda tegishli byudjetlarga, Davlat raqobat qo'mitasiga va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga avval yo'naltirilgan mablag'lar qaytarilmaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlariga, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga mablag'lar ularning tushishiga ko'ra har haftada yo'naltiriladi;

davlat aktivlarini sotishdan tushadigan mablag'larning 25 foizi miqdoridagi qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltirilgan hollarda mablag'larning (Davlat raqobat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tasarrufida qoldiriladigan mablag'lardan tashqari) qolgan qismi ushbu Nizomning 4-bobida nazarda tutilgan maqsadlarga yo'naltiriladi.

[29] "O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyundagi 391-son qaroriga 1-ILOVA

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida aniq davlat aktivini sotishdan tushgan mablag’lar boshqa maqsadlarga to’liq yoki qisman yo’naltirilgan taqdirda, Nizomning 7-bandi mablag’larning qolgan qismiga tatbiq etiladi.

Bunda tushgan mablag’lar nazarda tutilgan maqsadlarga:

sotib olish to’lovlari (shu jumladan, hisoblangan taqdirda - penyalar) to’liq to’langandan keyin yo’naltiriladi, O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg’armalari va davlat boshqaruv organlari va/yoki byudjet tashkilotlari hisob raqamlariga yo’naltiriladigan mablag’lar bundan mustasno;

davlat aktivlarining tuzilgan va bekor qilingan oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) bo’yicha penya va jarimalar summasi, shuningdek ushbu davlat aktivini sotish bilan bog’liq xarajatlar (baholovchi tashkilotlar, savdolar tashkilotchilari, vositachilar va depozitariylar xizmatlarini to’lash xarajatlari) chegirilgan holda yo’naltiriladi.

Davlat aktivlari oldi-sotdisi bo’yicha tuzilgan va bekor qilingan shartnomalar, berilgan qarzlar bo’yicha tushgan penya va jarimalar summalari quyidagi tartibda taqsimlanadi:

50 foizi - Davlat raqobat qo’mitasining byudjetdan tashqari jamg’armasiga o’tkaziladi;

qolgan qismi - Nizomning 7-bandiga muvofiq taqsimlanadi.

Jamg’arma mablag’lari hisobidan berilgan qarzlarning asosiy summasi va ular bo’yicha hisoblangan foizlar tarzida qaytarilgan tushumlar summasi to’liq miqdorda Jamg’arma hisobiga o’tkaziladi.

Davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomasi (bitimi) bekor qilinganda:

mablag’larni sotib oluvchiga qaytarish, agar sudning qarorida yoki shartnoma tomonlarining alohida kelishuvi bilan boshqacha hol nazarda tutilmagan bo’lsa, to’langan mablag’lardan penyalar yoki jarimalar summasini ushlab qolgan holda davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomasi (bitimi) shartlariga muvofiq amalga oshiriladi;

penyalar va jarimalar summasini taqsimlash mazkur shartnoma (bitim) bo’yicha ilgari to’langan va taqsimlanmagan mablag’lar Jamg’arma hisob raqamlarida mavjud bo’lganda, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlarida nazarda tutilgan maqsadlar uchun o’tkazilgan mablag’lar Jamg’armaga qaytarilganda (undirilganda) mazkur Nizomning 10-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlarida nazarda tutilgan maqsadlar uchun ilgari o’tkazilgan mablag’lar mablag’ oluvchilar tomonidan Jamg’armaga qaytarilishi lozim, O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg’armalari va davlat boshqaruv organlari va/yoki byudjet tashkilotlari hisob raqamlariga yo’naltirilgan mablag’lar bundan mustasno.

Mablag’larni Nizomning 7-bandiga muvofiq taqsimlash quyidagilarni chegirgan holda amalga oshiriladi:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan Jamg’armaning umumiy mablag’lari hisobidan bir yo’la to’lovlar;

xususiylashtirilgan qurilishi tugallanmagan ob’ektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida tashkil etilgan xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlik sub’ektlariga ko’maklashish tadbirlarini (simpoziumlar, konferentsiyalar, forumlar, seminarlar, trening va o’quv kurslari, tashriflar, aktsiyalar, ko’rgazma va tanlovlar, ommaviy axborot vositalarida chiqish va yoritishlar va boshqalar) o’tkazish xarajatlari;

belgilangan tartibda bekor qilingan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) bo’yicha Davlat raqobat qo’mitasi va uning hududiy organlari tomonidan xaridorlarga qaytarilgan mablag’lar;

talabgorlar tomonidan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) tuzish uchun deponentlangan, lekin ular bo’yicha shartnomalar (bitimlar) tuzilmagan va ularning egalariga qaytarilishi kerak bo’lgan mablag’lar;

Jamg'armaga noto'g'ri tushgan va ortiqcha o'tkazilgan, shuningdek aniqlashtirilgungacha summalar;

davlat aktivlarini sotish, shu jumladan aktsiyalarni ikkilamchi ommaviy taklif qilish, davlatga tegishli aktsiyalarga bo'lgan huquq hisobini yuritish bo'yicha depozitariy xizmatlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

Davlat raqobat qo'mitasi yoki uning hududiy organlari buyurtmalariga asosan davlat aktivlarini xususiylashtirish, davlat korxonalarini qayta tashkil etish, davlat aktivlarini xo'jalik jamiyatlariga operativ boshqarish huquqi bilan va ustav fondiga berish maqsadida hamda davlat manfaatlarini ko'zlab boshqa hollarda baholashda baholovchi tashkilotlar xizmatlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan shartlar va mezonlarga asosan jalb qilinganda, amaliy tadqiqotlarni bajarish, normativ-huquqiy hujjatlar, metodik hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish, ishlab chiqish, davlat aktivlarini sotishdan oldingi tayyorlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot, auditorlik, moliya, konsalting, boshqa xorijiy va mahalliy va xorijiy tashkilotlar, mustaqil ekspertlar xizmatlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

yuridik shaxslarning aktsiyalari (ulushlari, paylari)ni, shuningdek boshqa aktivlarni davlat manfaatlarini ko'zlab sotib olish bilan bog'liq xarajatlar;

davlat aktivlarini boshqarish bo'yicha xizmatlar haqini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

sud qarorlari asosida amalga oshirilgan xarajatlar.

Davlat raqobat qo'mitasi va uning hududiy organlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirishda tovar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar quyidagi holatlarda tanlov (tanlab olish)ni o'tkazmasdan tuzilishi mumkin:

davlat aktivlari to'g'risidagi reklamalarni va axborot tusidagi e'lonlarni ommaviy axborot vositalarida joylashtirish, shuningdek reklama va e'lonlarni tashqi reklama vositalarida (bilbordlar, bannerlar va boshqalarda) joylashtirish;

davlat aktivlarini sotishda, shuningdek yuridik shaxslarning aktsiyalari (ulushlari, paylari)ni va boshqa aktivlarni davlat manfaatlarini ko'zlab sotib olishda birja va birjadan tashqari savdolarga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan xizmatlar ko'rsatish;

Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirish, raqobatni rivojlantirish va korporativ boshqaruv muammolari tadqiqotlari markazi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar, metodik hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni amalga oshirish;

Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi va Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazida Davlat raqobat qo'mitasi va uning tarkibiy bo'linmalari xodimlarini, shuningdek davlat ishonchli vakillari va xususiylashtirilgan korxonalar negizida loyihalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va o'qitish;

Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi "Privatinformsistem" axborot texnologiyalari markazi" DUK tomonidan zamonaviy axborot-texnologik kompyuter dasturlarini, elektron ma'lumotlar bazasi va reestrlarini, lokal kompyuter tarmog'ini ishlab chiqish, joriy etish va ular bo'yicha xizmat ko'rsatish;

Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolari o'tkazish bo'yicha Davlat tender komissiyasi qarorlari asosida mahalliy ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan davlat aktivlarini sotish bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish;

baholovchi tashkilotlar tomonidan xizmatlar ko'rsatish. Baholovchi tashkilotlar xizmatlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan Nizomga muvofiq qoplanadi.

Jamg'armaning joriy moliya yili yakuni bo'yicha qoldiq mablag'lari olib qo'yilmaydi va keyingi yilga o'tadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi qachon tashkil etilgan?

2. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi mablag’larning hisobi, taqsimlanish tartibini ayting

3. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi mablag’larining shakllantirish manbalari nimalardan iborat?

4. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi mablag’larning taqsimlanish nisbatlarini tushuntiring

8-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASI.

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tashkil etilishi, maqsadi va vazifalari.
2. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini shakllantirishning asosiy manbalari
3. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, modernizasiya qilish, loyihalarni moliyalashtirish, qayta qurollantirish, infratuzilmani shakllantirish, telekommunikasiya, xalqaro moliya institutlari, xorijiy kreditorlar.

1.O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tashkil etilishi, maqsadi va vazifalari.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotga davlat kapital qo'yilmalarini safarbar etishda davlatning aniq maqsadlarga mo'ljallangan jamg'armalari muhim ahamiyatga ega. Shunday jamg'armalardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3751-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi resurs bazasini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2010 yil 11 avgustdagi PQ-1387-son qaroriga muvofiq Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ustav kapitali belgilangan 10 mlrd AQSh dollari miqdorida shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining 2012-2016 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ustav kapitalini bosqichma-bosqich 15 mlrd AQSh dollariga yetkazish taklifi berildi.

Mazkur jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Markaziy bankining taklifiga binoan davlat maqsadli jamg'armasi sifatida tashkil etilgan, shu bilan birga, O'zbekiston hududida o'zlari uchun g'oyat muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan xalqaro va xorijiy jamg'armalar hamda investorlar hukumat qarorlariga binoan Jamg'arma hammuassislari sifatida qo'shilishi, mazkur moliya institutlarining vakillari Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tarkibiga kiritilishi mumkin.

Jamg'armaning ***asosiy vazifalari*** quyidagilardan iborat:

– davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan, tijorat banklari, xorijiy jamg'arma va investorlar hamda boshqa manfaatdor tuzilmalarning moliyaviy mablag'larini jamlab borish;

– iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va modernizasiya qilishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;

– strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni, birinchi navbatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;

– yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnik jihatdan qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur'at va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar moliyalashtirilishini ta'minlash;

– etakchi tarmoqlarni modernizasiya qilish uchun muhim ustuvor ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun xorijiy texnologiyalar va uskunalarni sotib olishga

mablag'larni maqsadli yo'naltirgan holda respublikaning tijorat banklariga Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilangan tartibda kredit liniyalarini ochish;

– birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarning amalga oshirilishini moliyalashtirish;

– kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini imtiyozli asosda, shu jumladan keyinchalik Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash yo'li bilan moliyalashtirish;

– respublikaning xalqaro kommunikasiyalar tarmog'iga integrasiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yo'laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo'l bilan chiqishni ta'minlaydigan transport hamda telekommunikasiyalar infratuzilmasini modernizasiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;

– davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lashni moliyalashtirish;

– xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qo'shma moliyalashtirilishini tashkil etishni ta'minlash.

Yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda Jamg'arma ***quyidagi funksiyalarni*** bajaradi:

– navbatdagi yil uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko'rsatkichlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturining asosiy parametrlari bilan bog'liq holda Jamg'arma mablag'larining kelib tushish va ulardan foydalanish prognozlarini ishlab chiqadi va belgilangan muddatlarda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashga taqdim etadi;

– kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini tuziladigan shartnomalar asosida kreditlaydi;

– davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qaytarib bermaslik asosida mablag'larni beradi;

– yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritadi (korxona yoki tashkilot ustav kapitali (jamg'armasi)ning 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda);

– Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha va Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar hamda foizsiz kreditlar beradi, ajratilgan kreditlar miqdori keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg'arma kreditini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda, ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo'shiladi;

– yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Iukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar beradi;

– moliyalashtirish shartlari va Jamg'arma mablag'larini qaytarish mexanizmi to'g'risida imzolanadigan bosh bitimlar asosida, har bir tijorat banki uchun har yili belgilanadigan limitlar doirasida tijorat banklarini moliyalashtirishni amalga oshiradi;

– Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi va tijorat banklariga berilgan mablag'larning o'z vaqtida qaytarilishi ustidan doimiy ravishda monitoring olib boradi hamda kelib tushish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha Jamg'arma mablag'larining hisobini yuritadi;

– tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar va ular bo'yicha amalga oshirilayotgan operasiyalar to'g'risidagi har qanday ma'lumotni olish huquqiga ega bo'lgan holda, tijorat

banklari va qarz oluvchi korxonalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan ularning faoliyatini o'rganadi;

– Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshiradi;

– Jamg'arma faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'radi yoki belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jamg'arma mablag'larining bo'sh qoldiqlarini ishonchli boshqarish to'g'risida shartnomalar tuzadi;

– Jamg'arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

2.Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini shakllantirishning asosiy manbalari

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini shakllantirishning ***asosiy manbalari*** quyidagilardan iborat:

– strategik resurslarga jahon narxlarining qulay konyunkturasi natijasida, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subektlardan olinadigan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan navbatdagi yilga Davlat byudjetini (asdiqlash chog'ida belgilanadigan ayrim soliq va to'lov turlari bo'yicha hosil bo'ladigan qo'shimcha tushumlar;

– hukumatning xorijiy valutadagi aktivlarining bir qismi;

– O'zbekiston Respublikasining xorijiy sheriklar bilan mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitimlari doirasida mahsulotni sotishdan oladigan daromadlari;

– davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valutasiga sotishda davlat byudjeti daromadlari rejasidan ortiqcha tushadigan mablag'lar;

– Jamg'arma aktivlarini boshqarishdan olinadigan investitsiya daromadlari;

– O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushum va daromadlar.

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi hisobvaraqlarda chet el valyutasida shakllantiriladi.

Jamg'arma vakolatli banklarni moliyalashtirishni taklif etiladigan investitsiya loyihalari hamda ochiladigan kredit liniyalarining samaradorligi va o'zini qoplash muddatlarini hisobga olgan holda moliyalashtirish shartlari va Jamg'arma mablag'larini qaytarish mexanizmi to'g'risida imzolanadigan bosh bitimlar asosida amalga oshiradi.

Jamg'arma tomonidan beriladigan kredit resurslari bo'yicha foiz stavkasi yiliga 6 foizgacha tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanadi.

Davlat byudjeti hisobiga qoplanadigan Jamg'arma kreditlarini qaytarish O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan xorijiy valyutani qoplash kuniga belgilangan kursida so'mda, keyinchalik xorijiy valyutani o'rnatilgan tartibda Jamg'arma hisob raqamlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jamg'arma hisobidan moliyalashtiriladigan (qo'shma moliyalashtiriladigan) import kontraktlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan import kontraktlari uchun belgilangan tartibda ekspertizadan o'tadi.

3.Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi.

Mazkur jamg'armaning mablag'larini ***quyidagi maqsadlarda ishlatish*** ko'zda tutilgan:

a) avvalo yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek transport va telekommunikasiya sohasida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan, xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarda O'zbekiston Respublikasi ulushini qo'shma moliyalashtirish;

b) kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini

moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

v) yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

g) davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash;

d) iqtisodiyot tarmoqlarini modernizasiyalash, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha Iukumat tomonidan tasdiqlangan dasturlar doirasida, tijorat banklariga xorijiy valyutada ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish;

e) ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo'li bilan moliyalashtirish;

j) yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Iukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar berish;

z) birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarini, Davlat byudjeti va investitsiya dasturining tasdiqlangan parametrlari doirasida, grant asosida moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish);

i) tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo'shma moliyalashtirish;

k) Jamg'armani boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash.

Mablag'larni berish muddati va shartlari Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilanadi. Jamg'arma tomonidan beriladigan kredit resurslari bo'yicha foiz stavkasi yiliga 6 foizgacha tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanadi.

Jamg'armaning kredit resurslari shartnomada belgilangan chet el valyutasida ajratiladi.

Tijorat banki marjasining eng yuqori chegarasi Jamg'arma va tijorat banki o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasida har bir loyiha bo'yicha alohida belgilanadi.

Ajratilgan mablag'larning qaytarilishi tijorat banklari tomonidan kechiktirilgan holatlarda har bir kechiktirilgan kun uchun muddati kechiktirilgan to'lovlar bo'yicha qarzdorlik summasining 0,01 foizi miqdorida (qarzga olingan mablag'lar hajmining 10 foizidan oshmagan holda) penya undiriladi.

Dastlab, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ustav kapitali 1 mlrd. AQSh dollari miqdorida belgilangan edi. 2007-yilning 1-yanvarigacha jamg'armaning ustav kapitaliga 500 mln. dollar mablag' jalb etildi[30]. 2007-yil oxiriga kelib, 1132 mln. dollar, 2008-yil yakunlari bo'yicha esa 1,2 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag'jalb qilingan[31]. Bugungi kunda (ya'ni 2009-yil yakunlariga ko'ra) bu jamg'armaning jamg'armasi 3,7 milliard dollarni tashkil etmoqda[32].

"Jamg'armaning asosiy vazifasi faqat mablag'larni jamlash hamda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik muhim loyihalarni moliyalashtirish bilan cheklanmaydi, - deb ta'kidlaydi. Prezidentimiz

[30] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007-yil 13-fevral.

[31] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2007-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2008-yil 11-fevral.

[32] Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: «O'zbekiston», 2010.

I.Karimov, - balki xofijiy investorlar - chet el kompaniyaiari, banklari, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda o'zaro teng shartlarda investitsiya loyihalarini moliyalashirishni ham o'z ichiga oladi".

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining strategik muhim loyihalarni mustaqil ravishda hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan birgalikda moliyalashtirish borasidagi roli ortib bormoqda. 2010 yilda ushbu jamg'armaning qariyb 330 million dollar miqdoridagi mablag'i o'zlashtirildi va bu 2009 yilga nisbatan 25,6 foizga ko'pdir.

O'tgan davrda Jamg'arma mablag'lari hisobidan 14 ta yirik investitsiya loyihasi moliyalashtirildi. O'zbekiston-Ummon qo'shma investitsiya kompaniyasi ishtirokida to'qimachilik, telekommunikatsiya tarmoqlari va moliya sektorida umumiy qiymati qariyb 80 million dollarlik 3 ta investitsiya loyihasini moliyalashtirish ishlari boshlandi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining tarkibiy o'zgarishlardagi roli ortib borayotganini hisobga olib, 2014 yilgacha uning nizom jamg'armasini ikki barobar, ya'ni 5 milliard dollardan 10 milliard dollarga bosqichma-bosqich ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ayni paytda biz mamlakatimizdagi o'z ichki resurslarimizning ko'lamini kengaytirish bo'yicha ham doimiy ish olib borishimiz darkor. Bu borada Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining rolini kuchaytirish g'oyat muhim o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda 6 milliard dollardan ortiq mablag' jamlangan ushbu Jamg'arma, avvalo, strategik muhim investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar bilan birgalikda moliyalashtirishda yetakchi sheriklardan biri sifatida faoliyat olib borishi kerak.

2011 yilda mazkur Jamg'armaning mablag'lari hisobidan qiymati 780 million dollardan ortiq bo'lgan 24 tadan ziyod loyihani moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 2,1 barobar ko'pdir.

Bu loyihalar sirasiga, eng avvalo, Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Qalmoqqir konini kengaytirish va rekonstruktsiya qilish, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz moslamasini qurish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining beshta energiya blokini yil davomida ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining misni boyitish fabrikasini rekonstruktsiya qilish va boshqa loyihalar kiradi.

Jamg'armaning xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasidagi samarali hamkorligiga misol sifatida Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasida umumiy qiymati 1 milliard 280 million dollarlik ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasini keltirish mumkin.

Ushbu loyihani amalga oshirishda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan tashqari Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi kabi xorijiy sheriklar investor sifatida ishtirok etmoqda.

Birinchidan, keyingi yillarda bozor islohotlarini amalga oshirish va iqtisodiyolni liberallashtirish natijasida mamlakatimiz iqtisodiy (araqqiyotning yuksak sur'atlariga erishmoqda. Istiqbolli barqaror iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam poydevorini yarafish maqsadi-da iqtisodiyotni tizimli va izchil tarkibiy yangilash, iqtisodiy o'sish-ning lokomotivi bo'lishi lozim bo'lgan sohalar, tarmoqlar va ishlab chiqarishiarni jadal rivojlantirish lozim.

Ikkinchidan, respublikada mamlakat farovonligi yoiida halito'liq foydalanilmayotgan g'oyal katta salohiyat mavjud bo'lib, eng av-valo bu O'zbekiston ega bo'lgan mineral xomashyoning boy za-xiralariga taalluqlidir. Umuman olganda respublikadagi foydali qa-zilma resurslari qariyb 11 Irln. AQSh dollari miqdorida baholan-moqda, shuiardan qidirib topilganlari atigi 17% ni tashkil etadi. Mazkur salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida xomashyoni qidirish, qazib olish va qayta ishlash uchun keng miqyosli investitsiyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integ-ratsiyalashuvini ta'minlash, o'zbek tovarlarining jahon bozorlariga kirib bonshini kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish istiqbol-lari yuqpri bo'lgan, lekin hozirgi vaqtda yetarlicha rivojlanmagan hududlarda

transport kommunikatsiyalari, zamonaviy ishlab chiqarisli va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojiantirilish zarur. Burring uchun mazkur mintaqalarga yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlardagi investitsiyalarni safarbar etish lozim.

To'rtinchitsian, bugungi kunda mavjud xomashyo salohiyatini kompleks ravishda chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan ishlab chiqarishiarni jadal rivojlantirish lozim. O'zbekiston dunyoda paxta yetishtiruvchi va eksport qiluvchi eng katta daviatlardan biri ekanligini e'tiborga olganda, to'qimachilik sanoatini o'ziga xos bir misol sifatida keltirish mumkin. Paxta xomashyosini chuqur qayta ish'lash hisobigagina to'qimachilik sanoatiga sarflangan har bir dollarga qo'shimcha ravishda 7 dollarlik mahsulot olish mumkin.

Beshinchidan, bugungi kunda iqtisodiyotning hech birtarmog'i ishlab chiqarish samaradorligini yangi darajaga ko'tarish va mahisulotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beruvchi zamo-naviy axborot texnologiyalarini qo'llamasdan faoliyat ko'rsata olmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, yuksak texnologiyalarni rivojlantirish va ularni avvalo axborot-kommunikatsiya sohasida ishlab chiqarishga amalda joriy etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotni modtsrnizatsiya qilish va yangiiash, aholi farovonligini barqaror oshirib borish vazifalarini bajarish uchun ichki resurslarni jalb qilishda byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati ortib bormoqda. Bunda infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va xalq farovonligini ta'minlash maqsadlariga erishish ko'zda tutilgan. Bugungi kunda faqatgina davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari emas, baiki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va korxonalarning mablag'larini jalb qilish yo'li bilan iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1.Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat?

2. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining funktsiyalarini sanang?

3. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlarini shakllantirish manbalari nimalardan iborat?

4. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining xarajatlari yo'nalishlarini aytib bering?

10-MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLARDA DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARI FAOLIYATI

REJA:

1. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va xususiyatlari.
2. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning tarkibi va turlari.
3. Xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg'armalarning shakllanish mexanizmi.
4. Xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg'armalardan foydalanish yo'llari.

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR: Modernizatsiya jamg'armasi, Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasi, Milliy ilmiy jamg'arma, Byuro standartlarining ilmiy jamg'armasi, Milliy korporatsiya jamg'armasi, Keksayganda, nogironliknida va boquvchisini yo'qotganda sug'urtalash jamg'armasi, Davlat xizmatchilarini sug'urtalash jamg'armasi, Muhtojlarga yordam jamg'armasi.

1. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va xususiyatlari.

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda moliya tizimining qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor qaratilishi tabiiy hol, albatga. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda respublikamiz moliya tizimida muhim o'rin tutgan davlat maqsadli jamg'armalarining samarali boshqarilishida rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan o'rinli foydalanilmoqda.

Ma'lumki, xorijiy mamlakatlar moliya tizimida maqsadli jamg'armalar alohida o'rin tutadi. Ularda jamlanadigan mablag'lar hajmi yuqori bo'lib, masalan, Frantsiyada maxsus jamg'armalarning miqdori jihatidan mamlakatning davlat byudjetiga yaqin. Yaponiyada davlat xarajatlarining yarmidan ko'pi ana shunday jamg'armalar hisobidan moliyalashtirilsa, Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich byudjetning uchdan bir qismini tashkil etadi. Albatta, bu jamg'armalarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Davlat bu jamg'armalarning mablag'lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga asosan kambag'allik va aholi o'rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish maqsadida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha davlat chora-tadbirlari tizimi ijtimoiy siyosat deb yuritiladi. Keng ma'noda "ijtimoiy siyosat" deganda shaxsning hayot faoliyatini shunday sharoitlarini yaratish va tutib turish bo'yicha ko'rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi. U o'z navbatida shaxsning rivojlanishiga yordam beradi va uning ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradi.

Amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, G'arb mamlakatlarida jamg'armalar va notijorat tashkilotlarning vakolatli mulk negizida tuzish keng tarqalgan. Jamg'armalar va notijorat tashkilotlarning ayni shu turlari muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko'proq yo'naltirilgan. Bu tashkilotlar byudjeti bir kator manbalar: ta'sislarning ta'sis hujjatida belgilangan tushumlar, hukumat subsidiyalari va soliq to'lashdagi imtiyozlari ko'rinishida, a'zolarning badallik vznoslari va ixtiyoriy badallari, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning mulkiy badallari va xayriya ulushlari hisobidan, notijorat tashkilotlar tuzilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidan olingan tushumlar, aksiya, obligasiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan olinadigan dividendlardan olinadigan daromadlardan shakllandi.

«Insoniyat taraqqiyoti» konsepsiyasi paydo bo'lishi bilan kambag'allikka, savodsizlikka, ishsizlikka qarshi kurashga oid maxsus bandlik sxemalari va vositalari ishlab chiqildi, ijtimoiy investitsiya jamg'armalari paydo bo'ldi, aholini ish bilan ta'minlash masalasiga e'tibor kuchaydi. Xalqaro mehnat tashkiloti rahbarligida, butun dunyo miqyosida mehnat bilan bandlik, aholini

oziq-ovqat, turar joy, kiyim-kechak bilan ta'minlash, ta'limga va sog'liqni saqlashga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga aniq reja asosida yordam ko'rsatishga kirishildi.

Jahon tajribasida byudjetdan tashqari jamg'armalarning juda ko'p turlari mavjud, lekin bu jamg'armalarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Ijtimoiy yo'naltirilgan jamg'armalar (pensiya jamg'armalari, majburiy tibbiy sug'urta jamg'armalari, davlat bandlik jamg'armalari, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash umummilliy jamg'armalari) va o'z yo'nalishi va manbalariga ega iqtisodiy jamg'armalar.

«Ijtimoiy jamg'armalar - aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan resurslardir. Ushbu jamg'armalarning kengayish zaruriyati ishlab chiqarishning rivojlanishi, yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchilarning soni, ilmiy-texnik rivojlanish bilan vujudga kelgan jamiyatning turli guruhlari qarashlari orasidagi farqning va mamlakat aholisining yosh darajasi ortishi natijasida vujudga keldi. Oxirgi o'n yillikda sanoati rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy jamg'armalari hajmi absolyut miqdorda 5-6 barobarga ortdi». Ijtimoiy jamg'armalar hajmining ortishi ijtimoiy to'lovlarni oshirish imkonini berdi, Jamg'armalar uch manba hisobidan tashkil topadi: sug'urtalanuvchilarning sug'urta badallari, tadbirkorlarning sug'urta badallari va davlat subsidiyalari.

Sug'urtalanuvchilarning badallari bevosita ularning foydasidan ajratiladi va mohiyatiga ko'ra, to'g'ri maqsadli soliq hisoblanadi. Badal stavkalari ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda daromad hajmidan katiy nazar, ma'lum foizlarda belgilanadi va bu yillik maksimal badal summasi yoki maksimal daromad stavkasini belgilashda inobatga olinadi. Sug'urtalanuvchilar va tadbirkorlar uchun esa sug'urta stavkalari amal kiladi. Ba'zi davlatlarda (GFR) stavkalar ikkala guruh to'lovchilari uchun bir xil bo'lsa, boshqa bir mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Frantsiya) stavkalar turlicha bo'ladi. Ko'p davlatlarda sug'urtalanuvchilar uchun stavkalar daromadiga ko'ra foiz hisobida belgilanadi, tadbirkorlar uchun esa jami ish haqi jamg'armasiga emas, balki oldindan belgilab qo'yilgan jami maksimal ish haqiga qarab belgilanadi va maksimal hajmdan oshgan summa hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham kompaniyada malakali mutaxassislar ulushining ko'pligi ular ish haqining ijtimoiy jamg'armalarga shunchalik kam pul mablag'lari o'tkazishiga olib keladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, maxsus jamg'armalarning mablag'larini ishlatilishiga qarab iqtisodiy, ijtimoiy, shaxsiy va mol-mulkini sug'urtalash, ilmiy-tadqiqot, harbiy-siyosiy, xalqaro jamg'armalarga bo'linadi. Iqtisodiy jamg'armalarning mablag'lari xususiy kompaniyalar va kam rentabelli davlat korxonalarini, asosan, iqtisodiyotni rivojlanish sikllarining krizis paytida moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Iqtisodiy jamg'armalar xo'jalik faoliyatini tartibga solish uchun mo'ljallangan bo'ladi, masalan investitsiya va kon'yunkturaga oid jamg'armalar shular jumlasidandir. Bunday jamg'armalarning mablag'lari davriy inqiroz davrida «xususiy kompaniyalar va past rentabelli davlat korxonalariga yo'naltiriladi. Bunday yordamlar esa, beg'araz subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ko'rinishida ko'rsatiladi.

AQShda federal byudjetning mablag'lari hisobidan shakllanadigan iqtisodiyotni qayta qurish va rivojlantirish jamg'armasi mavjud. Uning asosiy vazifasi - xususiy sanoat kompaniyalarini bank operasiyalarida sug'urtalashdan iborat.

Frantsiyada ikkinchi jahon urushi tamom bo'lgandan keyin «Modernizatsiya jamg'armasi» shakllandi, boshqa jamg'armalar bilan birlashgandan so'ng, 1955 yilda «Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasi» shakllantirildi. Jamg'arma investitsiya dasturlarini, shuningdek, mintaqalarni rivojlantirish rejalarini, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni, ishchi kuchlarini qayta tayyorlash va sanoat korxonalarini industrial markazlardan boshqa rayonlarga o'tkazishni moliyalashtiradi. Milliylashtirilgan va xususiy korxonalarga umudavlat rivojlantirish dasturlari asosida mablag'lar qaytarilmaydigan ssuda va uzoq muddatli imtiyozli kredit ko'rinishida beriladi.

Fan va texnika yanada taraqqiy etishi natijasida, sanoatda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlovchi va shu yo'nalishdagi turli tadqiqotlarni amalga oshiruvchi davlat ilmiy markazlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot jamg'armalari tashkil qilinish zaruriyati

tug'ildi. Shunga ko'ra ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turli ilmiy, jamg'armalar tashkil qilingan bo'lib, ular federal byudjet tushumlari, sanoat korxonalari foydalaridan ajratmalar, shu bilan birga, universitet va kollejlardan tushadigan badallar hisobidan shakllanadi. Bu jamg'arma fundamental tadqiqotlar bo'yicha turli dasturlar, ilmiy darajaga erishganlik uchun mukofotlar, ilmiy markazlar qurish, kadrlar tayyorlash, tajriba o'tkazuvchi kompaniyalar faoliyati va undan olingan natijalarni sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilish va boshqa shu kabi sohalarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi.

2. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining tarkibi va turlari.

Xorijiy mamlakatlarda amaldagi maqsadli jamg'armalarning tasniflanishini ko'rib chiqamiz.

Maqsadli jamg'armalar huquqiy maqomi va ishlatilish maqsadlariga ko'ra farqlanadi. Huquqiy maqomiga ko'ra maxsus jamg'armalar davlat va mahalliy jamg'armalarga ajratiladi. Federativ davlatlar **(**AQSh, Kanada)da federasiya a'zolari ham maxsus jamg'arma tashkil qilish huquqiga ega. Davlat maxsus jamg'armalari markaziy hokimiyat ixtiyorida bo'ladi. Bularga eng muhim jamg'armalar: investitsiya, valyuta, ijtimoiy sug'urta va boshqa jamg'armalarni kiritishimiz mumkin. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyorida esa ko'p miqdorda mahalliy jamg'armalar mavjud bo'lib, ulardan eng kattasi zayom jamg'armasi hisoblanadi. Buyuk Britaniyada bunday jamg'armalar XIX asrdan buyon mavjud, bulardan, asosan, kapital jamg'armalarni moliyalashtirishda foydalaniladi.

Maxsus jamg'armalar huquqiy asosi va mablag'larning ishlatish maqsadiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ular markazlashgan va mahalliy jamg'armalar bo'lishi mumkin. Markazlashgan jamg'armalar-investitsiya jamg'armasi, valyuta jamg'armasi bo'lishi mumkin. Mahalliy jamg'armalarning soni juda ko'p. Masalan, Buyuk Britaniyada barpo etilgan jamg'armaning mablag'lari, asosan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Maqsadli jamg'armalar ishlatilish maqsadlariga kura, iqtisodiy, ilmiy-tadqiqiy, kredit, ijtimoiy, shaxsiy va mulk sug'urtasiga oid, harbiy-siyosiy yoki davlatlararo rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari asosida faoliyat yurituvchi jamg'armalarga bo'linishi mumkin. Kredit jamg'armalari Frantsiyada katta ahamiyatga ega bo'lib, ular jumlasiga «Frantsiya banki», «Tashqi savdo banki», "Depozit-omonat kassa jamg'armalari"ni kiritishimiz mumkin.

AQSh da 2 ta yirik jamg'arma mavjud. Ular «Milliy ilmiy jamg'arma» va «Byuro standartlarining ilmiy jamg'armasi» deyiladi. Birinchi jamg'armaning mablag'lari Federal byudjetdan ajratilagan mablag'lar, sanoat korxonalarining foydasidan ajratmalar hisobiga va universitet va kollejlarning ajratmalari hisobga shakllanadi. Jamg'armadan fundamenal tadqiqot dasturlarini amalga oshirish, ilmiy izlanishlar uchun mukofotlar, ilmiy markazlar qurilishi uchun, kadrlar tayyorlash kabi xarajatlar moliyalashtiriladi.

Ikkinchi jamg'armadan kompaniyalarning tadqiqotlar o'tkazishiiga sharoit yaratish, ilmiy izlanishlarni sanoat va qishloq xo'jaligiga yetkazish uchun moliyalashtiriladi.

Buyuk Britaniyada davlat byudjetiga bog'liq bo'lmagan va alohida mustaqil balansga ega bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish «Milliy korporasiya jamg'armasi» mavjud. Uning mablag'lari yangi ixtirolarni ishlatish huquqi beradigan lisenziyani sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga shakllanadi. Davlat jamg'armaga muddatsiz avanslar va har yili subsidiyalar beradi. U ilmiy tekshirish natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etayotgan xususiy korxonalarni kapital qo'yilmalarini va unga bog'liq muammolarni hal qilish xarajatlarini moliyalashtiradi.

Buyuk Britaniyada Milliy korporasiya jamg'armasi davlat byudjetidan holi ravishda tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha mustaqil balansga ega. Davlat bu jamg'armaga muddatsiz avans va yillik subsidiyalar beradi. Bu mablag'lar hisobidan esa turli muammolarning ilmiy echimlari va olingan natijalarni ishlab chiqarishga tatbiq etuvchi xususiy muassasalar faoliyati moliyalashtirib boriladi. Shuningdek, davlat universitetlari, milliy va xususiy kompaniyalar laboratoriyalarida olib boriladigan tajriba ishlarini qo'llab-quvvatlab, ularni sanoatda o'zlashtirilishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Ijtimoiy jamg'armalar aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan resurslardir. Keyingi yillarda ijtimoiy jamg'armalarning hajmi AQSh da ijtimoiy dasturlarning amalga oshirish uchun turli darajada boshqariladigan ko'p sonli ijtimoiy jamg'armalar faoliyat ko'rsatadi. Bulardan uchta eng yirik jamg'armalarni ko'rsatish mumkin. «Keksayganda, nogironliknida va boquvchisini yo'qotganda sug'urtalash jamg'armasi», «Davlat xizmatchilarini sug'urtalash jamg'armasi», «Muhtojlarga yordam jamg'armasi» mavjud.

«Yaponiyada davlatning maxsus jamg'armalari moliya resurslarini tashkil etishning shakli bo'lib, ular markaziy yoki mahalliy hukumat tasarrufida va maqsadga qaratilgan holda mavjud bo'ladi. Ular moliya tizimining muhim bo'lagi hisoblanadi. Bu jamg'armalarni tashkil etish va sarflash tartibi moliya huquqi orqali aniq va qatiy belgilanadi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari davlat mulki hisoblanadi va ko'rsatilganlaridan boshqa maqsadlarga sarf qilinishi mumkin emas. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari markazlashgan yagona pul jamg'armasi - byudjetdan ancha avval maxsus jamg'armalar va o'ziga xos hisobraqamlar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Davlat o'zining faoliyat doirasini kengaytirilishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj seza boshladi. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus jamg'armalarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi»[33]. Bu jamg'armalar hajmining kengayishiga bir qator sabablar mavjud: birinchidan, davlat organlarida tadbirkorlikning ho'jalik hayotiga aralashishi va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha mablag'lar paydo bo'lmoqda, ikkinchidan, bu jamg'armalar byudjetdan mustaqil holda davlat tomonidan alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muhim muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan, uchinchidan, byudjetdan tashqari jamg'armalar ma'lum sharoitlarda, ya'ni aktiv qoldiqqa ega bo'lganda byudjet taqchilligini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Yaponiyada byudjetdan tashqari jamg'armalarning faoliyati - milliy daromadni davlat tomonidan aholikikg ma'lum ijtimoiy guruhlar foydasiga qayta taqsimlash usulidir. Yaponiyada quyidagi byudjetdan tashqari jamg'armalar faoliyat ko'rsatadi: «Sog'liqni saqlashni sug'urtalash jamg'armasi», «Milliy pensiya jamg'armasi», «Ishlab chiqarishda ko'rilgan zararni sug'urtalash jamg'armasi», «Ishsizlikni sug'urtalash jamg'armasi».

Yaponiyada ham turli xildagi iqtisodiy jamg'armalar mavjud:

- investitsiyaviy byudjet yoki davlat investitsiyalari va karzlari dasturi;
- markaziy va mahalliy hukumatning avtonom byudjetlari;
- maxsus hisobraqamlar.

Eng yirik jamg'armalardan biri- «Investision byudjet» bo'lib, uning maqsadi - davlat tomonidan investitsiyalar yo'naltirish va qarzlar berish dasturini bajarishdir. Bu jamg'arma sug'urta qilingan, jamg'arilgan pensiya va boshqa mablag'lardan shakllanadi va subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ko'rinishida davlat sektorini moliyalashtirishga ishlatiladi. Pasaytirlgan narx va ta'riflar siyosatidan davlat korporasiyalar faol faoliyat ko'rsatishishi uchun sharoit yaratadi. «Investision byudjet» jamg'armasi korporasiyalarga shunday xizmat ko'rsatib, mazkur jamg'arma yordamida keng tarmoqli xususiy sektorni qo'llab-quvvatlaydi.

Yaponiyada juda ko'p kredit jamg'armalari mavjud. Jumladan, moliyaviy korporasiyalar jamg'armalari (uy-joy qurilishini moliyalashtirish korporasiyalari, kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirish korporasiyalari) va maxsus banklar jamg'armalari (Yaponiya eksport va import banki, Yaponiya rivojlantirish banki, qishlok xo'jaligi uchun markaziy kooperativ banki) mavjud. Moliyaviy korporasiyalar jamg'armalari byudjet mablag'lari, shuningdek, beriladigan kreditlar foizlari hisobiga tashkil etiladi. Bu jamg'armalar inkirozga uchragan korxonalarni moliyalashtirish yoki boshqa kredit manbasiga ega bo'lmagan kompaniyalarga moliyaviy yordam berish maqsadida ularga chegirma foizlarda qarz beradi.

Yaponiyada trast jamg'armalariga tushadigan jamg'armalar qisman davlat obligasiyalarini sotib olishga yo'naltiriladi, ularning katta qismi esa davlat moliya institutlarini, mahalliy organlar byudjetlarini va davlat korporasiyalarini moliyalashtirish, shuningdek, davlat byudjetidagi maxsus hisobraqamga yo'naltiriladi. Nafaqa va sug'urta badallari bilan birgalikda,

[33] Vahobov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. T.: Sharq. 2003. №7. -117 b.

ularning tushumi va sarfini hisobga olgan holda, ular «Investitsiyalar va qarzlar bo'yicha davlat dasturi» deb ataladigan dasturni belgilaydi. «Investitsiyalar va qarzlar bo'yicha davlat dasturi» qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlangan bo'lib, «ikkinchi» byudjetga aylanadi.

Davlat moliya institutlari milliy iqtisodiyotning ustuvor, joriy vazifalarini har tomonlama va tezkor qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi». Bu institutlar mintaqaviy rivojlanishni moliyalashtirish tizimini tashkil qiladi. Davlat moliya institutlari mustaqil bo'lib, «o'z-o'zini moliyalashtirish» tamoyiliga asoslangan holda ish olib borib, investitsiyalash va kreditlar bo'yicha mustaqil hamda xolis, siyosiy va moliyaviy nuqtai nazardan qarorlar qabul qiladi.

Kredit jamg'armalari davlat jamg'arma kassalari va boshqa kredit tashkilotlari ixtiyoridagi mablag'lar bo'lib, qaytarib berish va foiz to'lash sharti bilan beriladi. Bu jamg'armalardan davlat buyurtmalari bajariladi va mamlakat bevosita rivojlanib boradi. Shuni hisobga olgan xolda, har qanday iqtisodiyotda ham maqsadli jamg'armalarning mavjudligi shu davlatning barqaror taraqqiyoti mezonidir.

Yaponiyada esa soliq tushumlarini qayta taqsimlashni amalga oshiruvchi maxsus hisobraqam mavjud. Soliq tushumlarining ma'lum qismi uning hisobraqamida jamlanib, ehtiyojlariga ko'ra mahalliy byudjetlarga o'tkazib beriladi. Uning qayta taqsimlanishi aholi sonidagi farqlar va hududlar iqtisodiyoti rivojlanish darajasiga qarab, amalga oshiriladi.

Germaniyadagi ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tarkibida juda ko'p avtonom jamg'armalar bor, ular ijtimoiy sug'urtaning alohida turlarini qamrab oladi. «Ishchi va xizmatchilarning pensiya jamg'armasi», «Bemorligi uchun sug'urta jamg'armasi», «Ishsizlikdan sug'urtalash jamg'armasi» va boshqalar.

Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy jamg'arma mavjud: «Milliy sug'urtalash jamg'armasi» va «Davlat tashkilotlarining pensiya jamg'armasi».

3. Xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg'armalarning shakllanish mexanizmi.

Bir qator xorijiy mamlakatlarda ham belgilangan maqsadni ko'zlab yo'l jamg'armalari tashkil etiladi.Ularning tashkil etish manbalari,mamlakatimizdagi mavjud jamg'armalardan birmuncha farq qiladi. AQShda yo'l jamg'armasining shakllantirish manbalari engil va yuk avtomobillari egalaridan avtomobillarini sotganligi uchun soliq,yangi ko'prik va yo'llar o'tganligi uchun maxsus yig'im va boshqalar hisoblanadi. Ko'prik va yo'llarga nazorat-ruxsatnoma punktlari tadbiq etiladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy maqsadlarga mo'ljallangan byudjetdan tashqari jamg'armalar jahon iqtisodiy inqirozi (1929-1933 yillarda) shakllana boshlangan.Ularning asosiy maqsadi,beqaror iqtisodiy vaziyatdan vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilik davrida korxonalar tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat edi.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarini tashkil etishning birinchilardan bo'lib tashabbuskori sifatida,moliyaviy korporatsiyalarni rekonstruktsiyalash jamg'armasini tashkil etgan mamlakat AQSh bo'ldi. G'arbiy Germaniyaning urush tugagandan keyin tashkil etilgan urush oqibatlarini rartaraf etish jamg'armasi hozirda ham ishlab chiqarishni modernizatsiyalash maqsadida og'ir sanoatni moliyalashtirish ishlarini davom ettirmoqda. Vengriyada korxonalarni sanatsiyalash kommissiyasining maxsus jamg'armasi mavjud bo'lib, kekonstruktsiya qilinayotgan korxonalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshiradi. Ish bilan ta'minlash siyosatini moliyalashtirish, ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish masalalariga oid xalqaro huquqiy asoslar xalqaro Mehnat Tashkilotining bir qator konvensiya va tavsiyalarida,jumladan, 1934 yildagi "Ishsizlikdan sug'urtalanish va ishsiz shaxslarga ko'rsatiladigan yordam turlari to'g'risida"gi 44-son Tavsiyalarida o'z aksini topgan.

Xorijiy mamlakatlar maxsus jamg'armalariga turli xil avtonom va birlashtirilgan byudjetlar, byudjetdan tashqari jamg'armalar, maxsus smeta va hisobraqamlarni kiritishimiz mumkin. Ularga eng avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalar yuklatiladi. Davlat bunday jamg'armalar

mablag'lari hisobidan ishlab chiqarish jarayoniga aralashishi, korxonalarga turli xil subsidiyalar va kreditlar taklif qilishi, shu bilan birga, tashqi qarzlarni to'lashi va aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish chora-tadbirlarini ko'rishi mumkin. Maxsus jamg'armalardagi mablag'larning ishlatilishi maqsadli xarakterga ega. Masalan, ijtimoiy sug'urta jamg'armasidan pensiya va nafaqalar to'lanadi, kredit jamg'armalaridan muassasa va tashkilotlarga, kompaniyalarga va boshqa mamlakatlarga ssudalar beriladi.

Masalan, aksariyat rivojlangan davlatlardagi ijtimoiy sug'urta jamg'armalari sug'urtalanuvchilarga pensiya va to'lovlarni to'lashi, shu bilan birga nafaqat mamlakat miqyosidagi tadbirkorlarga, balki chet mamlakatlarga ham ssuda mablag'lari berish maqsadida tashkil qilingan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hamma maqsadli jamg'armalarda ham xarajat turlari aniq ko'rsatilavermaydi, Bunga misol qilib, Buyuk Britaniya bosh g'aznachisi jamg'armasini olishimiz mumkin. Bu jamg'arma vazirlik va idoralar hisobidagi qoldiq mablag'lardan tashkil topgan bo'lib, boshqa jamg'armalardagi muvozanatni saqlab turishga yo'naltiriladi.

Frantsiyada, ikkinchi jahon urushi tugatilgandan so'ng, modernizasiya jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, 1955 yilda boshqa jamg'armalarga qo'shib yuborilishi natijasida «Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasi»ga aylantirildi. Unga byudjet ajratmalari bilan bir qatorda, ssuda kapitali bozoridagi qarz mablag'lari ham kelib tushadi. Jamg'arma asosan, investision dasturlarni moliyalashtirish bilan birga, hududiy rivojlantirish rejalari, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ish kuchini qayta tayyorlash va sanoat markazlaridagi korxonalarni qoloq hududlarga o'tkazish ishlarini amalga oshiradi. Mablag'lar umumdavlat rivojlantirish dasturiga ko'ra investitsiya qilgan milliy va xususiy korxonalarga qaytarilmas moliyaviy yordam yoki uzoq muddatli kreditlar shaklida beriladi.

Frantsiyada alohida ahamiyatli jamg'armalarga quyidagilar kiradi: «Bemorligi, nogironligi, bolaliligi uchun sug'urta jamg'armasi», «Pensiya jamg'armasi», «Oilalarga yordam jamg'armasi», «Ishsizlarga yordam milliy jamg'armasi».

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aksariyat davlatlardagi amaldagi byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar faoliyati mamlakat ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, kichik tadbirkorlik taraqqiyotiga keng yo'l ochib berish bilan birga, ilm-fan sohasini yanada takomillashtirish va shu orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

4. Xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg'armalardan foydalanish yo'llari.

Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning izchil faoliyati natijasida aholi kuchli ijtimoiy himoya qilinishi bilan birga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham rivojlanishi mumkin.

Hozirgi kunda respublika oliy o'quv yurtlarida ilmiy xodimlar olib borayotgan ishlari, kelgusida nafaqat mamlakatning har qanday sohasini rivojlantirishga asos bo'lishi, balki, mamlakat ilmiy salohiyat darajasining yuqori bo'lishi va fan-texnika taraqqiyoti jarayonida mamlakatimizning rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Vengriyada byudjet islohotlarining muvaffaqiyatli borishi bilan ijtimoiy yordamlar ko'rsatilishiga muhtojlik mezoni o'rniga aholining o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyilini ustunligi egallaydi. Davlat bunga birinchidan, aholining mablag' jamg'arishini rag'batlantiradi, ijtimoiy maqsadlar hamda davlat ijtimoiy xizmatlariga muqobil tadbirkorlik, homiylik shakllarini tanlash imkoniyatini yuzaga keltiradi, natijada davlat nobyudjet va xususiy moliyalashtirish nisbatlari tizimida o'zgarishlar yuz beradi.

Polshada 1996 yidda SYEYM-Polsha parlamenti 10 ta qonun loyihasidan iborat bo'lgan pensiya tizimini isloh qilish chora-tadbirlari paketini muhokama qilishga kirishdi. Ushbu qonun loyihalarida bosqichma-bosqich pensiya yoshini oshirish, pensiya ta'minoti bo'yicha davlat majburiyatlarini sezilarli darajada qisqartirish ko'zda tutildi. Uzoq kelajakda davlat pensiyalari o'rtacha ish haqining 20 foizigacha qisqardi, qolgan qismini esa Xususiy Pensiya Jamg'armalari

o’z zimmalariga oldi. Shu tarzda Polshada bir necha o’n yil davomida davlat pensiyasining ustunlik ahamiyatini bosqichma-bosqich kapitallashgan pensiya tizimi egallab oldi.

Chexiyada pensiya tizimini isloh qilishning boshqacha, yanada ehtiyotkorona yo’li tanlab olindi. Mazkur yo’l uzoq kelajakda ham davlat pensiyasining ustuvor ahamiyatini saqlab qolishni nazarda tutadi. Markaziy va Sharqiy Yevropaning boshqa mamlakatlari singari Chexiyada ham pensiyaga doir yoshni oshirish ko’zda tutilmoqda. Davlat pensiyasini tartibga solish tadbirlari davom etmoqda, uni indeksasiya qilish xukumat vakolatiga berilgan. Davlat pensiyasi barqarorligini mustahkamlash chora-tadbirlari bilan parallel ravishda davlat byudjeti badallari orqali ixtiyoriy sug’urta badallarini to’plovchi va asosiy davlat pensiyasiga qo’shimcha pensiya bilan ta’minlovchi pensiya kassalari qo’llab-quvvatlanmoqda. Chexiyada 45 ta shunday kassalar amal qiladi, ixtiyoriy pensiya kassalari a’zolari taxminan ish haqining 3 foizi miqdorida a’zolik badali to’laydi.

Qozog’iston hukumati pensiya tizimidagi inqiroz va islohotlar o’tqazishga ehtiyojlarni tan oldi va 1995 yil dekabrda «1996-1998 yillarda islohotlarni chuqurlashtirish» deb nomlangan reja qabul qilindi. U iqtisodiy islohotlarni qisqa va uzoq muddatli strategiyalarini qamrab oldi. Bu strategiya quyidagi elementlardan iborat:

– tabiiy monopoliya va maishiy xizmat sohalarini tezkor xususiylashtirish;
– xorijiy investitsiya va xususiy sektorni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash;
– kapital bozorlarini shakllantirish;
– markaziy bank va tijorat banklarni isloh qilish;
– korxonalar buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarga majburiy o’tishini hisobga olib, buxgalteriya hisobini isloh qilish.

1996 yilda xalqaro donorlar tomonidan qo’llab-quvvatlanayotgan hukumatda pensiya islohoi bo’yicha ishchi guruhi tashkil qilindi. 1997 yil martida shu guruh pensiya tizimida ko’zda tutilayotgan islohatlar konsepsiyasini chop etdi va joylarga tarqatdi. May oyida konsepsiya qayta ko’rib chiqildi va guruh a’zolari taklif qilayotgan islohotlarning asosiy tarkibiy qismlarini tushuntirish uchun mamlakat bo’yicha tarqalib ketishdi. Viloyat ma’muriyati, kasaba uyushmalari vakillari, pensionerlar guruhlari va ommaviy axborot vositalari bilan uchrashuvlar o’tkazildi va joylarda mazkur islohotlarning mohiyati tushuntirildi. 1996 yil may oyida mehnatkashlar tomonidan amalga oshiriladigan ixtiyoriy o’tkazmalar imkoniyatlarini yaratish va pensiya jamg’armasiga xususiy ajratmalar qilish uchun pensiya qonuni o’zgartirildi.

MDH mamlakatlari Qozog’iston Respublikasi pensiya islohotlarini amalda joriy etish bo’yicha etakchi davlat hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Qozog’iston bunday islohotning muhimligini tushunib etdi va Chili modeliga asoslangan islohotlar boshlab yuborildi. Agar islohotlar modeliga e’tibor beradigan bo’lsak, uni davlat korxonalarini xususiylashtirishni tezlashtirish va kapital bozorlarni rivojlantirish bilan chambarchas bog’liqligini ko’rish mumkin. MDH davlatlarida yaqin vaqtlargacha, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirliklari tomonidan hududiy bandlik xizmati organlari faoliyatlarining samarali yoki samarasiz ekanligi quyidagi ikkita ko’rsatkich bilan baholanardi:

– aholini ish bilan ta’minlash jamg’armasiga yig’ilgan sug’urta ajratmalari va bu mablag’larning ishsizlarga nafaqa to’lovlari uchun etarliligi;
– ishsizlik darajasi, mehnat organlari ro’yxatidan o’tgan jami ishsizlar sonining jami iqtisodiy faol aholiga nisbati. Bu ko’rsatkichlar va natijalar bandlik xizmati faoliyatining samarali yoki samarasiz ekanligini baholash uchun etarli hisoblangan.

Shuningdek, hududiy bandlik xizmati organlari ichki faoliyatlarida quyidagi:

– ishsizlar soni;
– bitta ishsizga to’g’ri keladigan bo’sh ish joylari soni;
– o’z vaqtida va to’liq ishsizlik nafaqalarining to’lovi, jami ishsizlardan hisobga olinganlar hissasi va hisobdan chiqarilganlar hissasi;
– jami ishsizlar ichida nafaqa oluvchilar hissasi va boshqalardan foydalanilgan.

Ko’pgina mamlakatlarda ishsizlikni sug’urtalash jamg’armalari mablag’laridan, nafaqat ishsizlik nafaqasini to’lash uchun, balki shu bilan birga ish bilan ta’minlash borasidagi faol siyosatni amalga oshirishda quyidagi maqsadlarda:

1. Iqtisodiy sabablarga ko’ra qisqartirilgan ish haftasiga o’tgan xodimlarga to’liq ish haqini to’lash;
2. Ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlashni tashkil etish va rag’batlantirish;
3. Ishsiz shaxs tomonidan o’z ishini tashkul etish yordam ko’rsatish;
4. Ishsiz shaxslarni muddatidan oldin pensiyaga chiqarish, vaqtinchalik ish bilan ta’minlash, ishsiz shaxslarni ishga olayotgan tadbirkorlarga subsidiyalar berish kabi maxsus dasturlarni qisman yoki to’liq moliyalashtirish uchun ham foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyoti shakllangan mamlakatlarda ish bilan ta’minlashga ko’maklashish tadbirlarini moliyalashtirish ikki yo’nalishda rivojlangan.

Birinchi yo’nalish-ishsizlikni sug’urtalashning davlat tomonidan boshqarilishi. Germaniya va Italiyada tegishli davlat boshqaruv organlarining ish bilan ta’minlash borasidagi ishida ish beruvchilar va xodimlarning vakillari ham ishtirok etish huquqiga egadir.

Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Finlandiyada tadbirkorlar va xodimlar vakillaridan iborat maxsus maslahat qo’mitalar tashkil etilgan bo’lib, ular ishsizlarga ijtimoiy yordam ko’rsatish jamg’armalarining boshqaruvini davlat organlari bilan birgalikda amalga oshiradilar.

Ikkinchi yo’nalish-ishsizlikni sug’urtalashning jamoa tashkiloti, masalan, kasaba uyushmalari tomonidan boshqarilishi. Bu yo’nalish ishsizlikni ixtiyoriy ravishda sug’urtalsh an’anasi asosida tashkil topgan va hozirgi vaqtda Shvetsiya, Finlandiya va boshqa bir qator mamlakatlarda mavjud.

Ko’pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikni sug’urtalash jamg’armalarining mablag’lari ish beruvchilar va xodimlar tomonidan sug’urta badallari hisobida shakllanadi. Turli mamlakatlarda sug’urta badallarini to’lashdagi ish beruvchilar va xodimlar ulushlari har xil. Masalan: Germaniyada ish beruvchilar va xodimlar, tegishli ravishda ish haqi jamg’armasidan va ish haqidan 2,15 % miqdorida, ya’ni baravar ulushga sug’urta badallarini to’laydilar.

Bir qator mamlakatlarda ish beruvchilarning ulushi ko’proq. Masalan: Kanadada ish beruvchilar ish haqi jamg’armasidan 3,29%, Frantsiyada mutanosib ravishda 4,2%, 2,31%, Yaponiyada 0,9% va 0,55% miqdorida badal to’laydilar. Ayrim mamlakatlarda AQShda ish beruvchilar ish haqi jamg’armasining 6,2% (shundan 0,8% federal jamg’armaga va 5,4% shtat jamg’armasiga), Shvetsiyada 2,18%, Italiyada 1,6% miqdorida badal to’laydilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Qaysi davlatlarda birinchilardan bo’lib byudjetdan tashqari jamg’armalari tashkil etilgan?
2. Ishsizlikni sug’urtalash mablag’lari qanday maqsadlarda sarflanadi?
3. Yaponiyada byudjetdan tashqari qanday jamg’armalar tashkil etilgan?
4. Xorijiy mamlakatlardagi maqsadli jamg’armalarni tasniflang.
5. Xorijiy mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg’armalardan foydalanish yo’llarini ayting.

1-ILOVA

Nogironlik mehnatda mayib bo'lish oqibatida kelib chiqqan deb hisoblanadigan nogironlik sabablari RO'YXATI

Agar nogironlikni keltirib chiqaruvchi jarohatlanish, zaharlanish, oftob urishi, kuyish, sovuq urishi, cho'kish, elektr toki yoki yashin urishi, shuningdek tabiiy ofatlar yoki avariyalar tufayli salomatlikning boshqacha shikastlanishi quyidagi hollarda sodir bo'lsa (huquqqa qarshi xatti-harakatlardan tashqari), nogironlik mehnatda mayib bo'lish tufayli sodir bo'lgan deb hisoblanadi:

a) mehnat vazifalarini bajarishda (shu jumladan, xizmat safari vaqtida), shuningdek korxona yoki tashkilot manfaatlari yo'lida hatto maxsus topshiriqsiz biron ish bajarganda ham;

b) korxona, tashkilot hududida yoki boshqa ish joyida ish vaqti davomida (belgilangan tanaffus vaqti ham shunga kiradi), shuningdek ish boshlanishi yoki tugashi oldidan ishlab chiqarish qurollarini, kiyim-bosh va boshqalarni tartibga keltirish uchun zarur bo'lgan vaqt davomida;

v) ish vaqti davomida (belgilangan tanaffuslar ham shunga kiradi) korxona, tashkilot yoki boshqa ish joyi yaqinida, agar u yerlarda bo'lish ichki mehnat tartibi qoidalariga zid bo'lmasa;

g) ishga borayotganda yoki ishdan qaytayotganda;

d) vaxtali shaharcha hududida vaxta-ekspeditsiya usuli bilan ishlaydigan va tabiiy ofat vaqtida smenali dam olishda bo'lgan xodim bilan yuz berganda;

e) davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda ro'yxatga olingan jamoat tashkilotlarining topshiriqlarini (garchi bu topshiriqlar asosiy ish bilan bog'liq bo'lmasa ham) bajarishda;

j) inson hayotini saqlab qolish, O'zbekiston Respublikasi davlat va jamoat mulkini, fuqarolar mulkini, huquq-tartibotni qo'riqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarosi burchini bajarish vaqtida;

z) ish kuni davomida ma'muriyatning (bo'lim, bo'linma, sex, uchastka rahbarlarining va shu kabilarning) xodimning vazifasiga kirmaydigan topshiriqlarini bajarish vaqtida;

i) donorlik vazifalarini bajarish munosabati bilan.

2-ILOVA

Kasb kasalliklari RO'YXATI

1. Zaharli kimyoviy moddalar ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar:

1.1. Nafas olish a'zolarining zahar ta'sirida zaharlanishi:
1.1.1. Rinofaringolaringit
1.1.2. Yuqori nafas yo'llari shilliq pardalarining yallig'lanishi
1.1.3. Burun parda devorining teshilishi
1.1.4. Traxeit
1.1.5. Bronxit (barcha shakllari)
1.1.6. Pnevmoskleroz
1.2. Zaharli anemiya
1.3. Zaharli gepatit
1.4. Zaharli nefropatiya
1.5. Asab tizimining zaharlanishi:
1.5.1. Polinevropatiya
1.5.2. Entsefalopatiya
1.5.3. Nevrozsimon holat

1.6. Ko’zlarning zahar ta’sirida zararlanishi:
1.6.1. Katarakta
1.6.2. Kon’yunktivit
1.6.3. Keratokon’yunktivit
1.7. Suyaklarning zahar ta’sirida zararlanishi:
1.7.1. Osteoporoz
1.7.2. Osteoskleroz
1.7.3. Jag’ suyaklarining nekrozi
1.8. Teri kasalliklari:
1.8.1. Epidermoz
1.8.2. Kontaktli dermatit
1.8.3. Fotodermatit
1.8.4. Onixiya
1.8.5. Paranixiya
1.8.6. Zaharli melanodermiya
1.8.7. Yog’li follikulitlar
1.8.8. Ekzema
1.9. Metall va ftoroplastli (teflonli) bezgak

2. Sanoat aerozollari va changlari ta’sirida paydo bo’ladigan kasalliklar:

2.1. Pnevmokoniozlar
2.1.1. Silikoz
2.1.2. Silikatozlar
2.1.3. Metallokoniozlar
2.1.4. Aralash changdan paydo bo’ladigan pnevmokoniozlar va boshqalar
2.1.5. Giperseziluvchan pnevmonitlar
2.2. Biossinoz
2.3. Kasb bilan bog’liq surunkali bronxit (noqulay ob-havo sharoitlari bilan bog’liq barcha changli, zaharli-changli shakllari):
noobstruktiv
obstruktiv
astmatik
2.4. Yangidan paydo bo’lgan o’smalar

3. Fizik omillar ta’sirida paydo bo’ladigan kasalliklar:

3.1. Ionlovchi nurlanish ta’sirida paydo bo’ladigan kasalliklar:
3.1.1. Nur kasalligi
og’ir nurlanish kasalligi
surunkali nurlanish kasalligi
3.1.2. Mahalliy nurlanish (og’ir va surunkali)
3.2. Noionlovchi nurlanishlar ta’siridan paydo bo’ladigan kasalliklar:
3.2.1. Vegeto-qon tomirlari distoniyasi
3.2.2. Astenik sindrom
3.2.3. Asteno-vegetativ sindrom
3.2.4. Gipotalamiya sindromi
3.3. Lazerli nurlanish bilan to’qimalarning mahalliy shikastlanishi:
3.3.1. Terining kuyishi
3.3.2. Ko’z muguz pardasining shikastlanishi
3.3.3. Ko’z to’r pardasining shikastlanishi
3.4. Tebranish kasalligi

3.5. Koxlear nevrit (neyrosensor karlik)
3.6. Qo'lning vegetativ-sensor (angionevroz) yoki sensomotor polinevropatiyasi
3.7. Elektrooftalmiya
3.8. Katarakta
3.9. Dekompression (kesson) kasalligi va uning asoratlari
3.10. Qizib ketish:
3.10.1. Oftob urishi
3.10.2. Tomir tortishishi sindromi
3.11. Past harorat ta'sirida paydo bo'ladigan kasalliklar:
3.11.1. Obletirillovchi endarteriit
3.11.2. Vegetativ-sensor polinevropatiyasi
3.12. Onixodistrofiya, mexanik epidermiozlar (omozolellik va boshqalar)

4. Alohida a'zolar va tizimlarning jismoniy zo'riqishi va toliqishi tufayli kelib chiqadigan kasalliklar:

4.1. Koordinatorli nevrozlar, shu jumladan, pischiy spazm
4.2. Periferik asab tizimi kasalliklari:
4.2.1. Mono- va polinevropatiya, shu jumladan, qo'llarning kompression va vegetativ-sensor polinevropatiyasi;
4.2.2. Bo'yin va bel-dumg'aza reflektor sindromlari (neyrotomir, miotonik, neyrodistrofik)
4.2.3. Bo'yin-elka, bel-dumg'aza radikulopatiyasi
4.2.4. Bo'yin-elka, bel-dumg'aza radikulomielopatiyasi
4.3. Tayanch-harakatlanish apparati kasalligi:
4.3.1. Yelka oldi va yelka kamari surunkali miofibrozlari, tendovaginitlar
4.3.2. Stenozlovchi ligamentozlar, stiloidozalar (tirsak va yelka) epikondilozlari
4.3.3. Funktsiyalar buzilgan holda periartrozlar (elka-kurak, tirsak, tizza, aynan o'sha lokalizatsiyaning deformatsiyalovchi osteoartrozlari); bursitlar, aseptik osteonekrozlar
4.4. Bachadon, moyliq devorlarining tuban siljishi va tushishi
4.5. Oyoqlardagi tomirlarning varikonoz kengayishi, yallig'lanishi (tromboflebit) va trofik o'zgarishlar asorati
4.6. Ovoz apparatlarining zo'riqishidan paydo bo'ladigan kasalliklar:
4.6.1. Surunkali laringit
4.6.2. Vazomotorli monoxordit
4.6.3. Ovoz burmalari tugunlari ("xonandalar tugunchalari")
4.6.4. Ovoz burmalarining kontaktli yaralari
4.6.5. Fonosteniya
4.7. Uzoqni yaxshi ko'rmaslikning kuchayishi
4.8. O'pka emfizemasi
4.9. Nevrozlar

5. Biologik omillar natijasida kelib chiqadigan kasalliklar

5.1. Xodimlar ish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan yuqumli va parazit kasalliklar:
5.1.1. Sil kasalligi
5.1.2. Brutsellyoz
5.1.3. Manqa kasalligi
5.1.4. Kuydirgi
5.1.5. Kana entsefaliti
5.1.6. Ornitoz
5.1.7. Sut sog'uvchilar tuguni
5.1.8. Toksoplazmoz

5.1.9. Virusli gepatit
5.1.10. Teri mikozasi
5.1.11. Rozenbax erizepiloidi
5.1.12. Qichitma, qo'tir
5.1.13. Sifilis - zaxm

5.2. Disbakterioz, teri va shilliq pardalar kandidomikozi, vistseral kandidoz

6. Allergik kasalliklar:

6.1. Kon'yunktivit
6.2. Rinit, rinofaringit, rinifaringolaringit, rinosinusit
6.3. Bronxial astma
6.4. Astmatik bronxit
6.5. Ekzogen alveolit
6.6. Dermatit, ekzema, toksikodermiya
6.7. Kvinke shishi, eshak yemi, anafilaktik esog'ish (sadma)
6.8. Zaharli-allergik gepatit
6.9. Markaziy va periferik asab tizimi zararlanishi va boshqalar

7. Ish joyida kantserogen moddalar ta'sirida paydo bo'ladigan yangi o'smalar:

7.1. Teri shishi (giperkeratozlar, epiteliomalar, papillomalar, saraton, leykokeratozlar)
7.2. Og'iz bo'shlig'i va nafas olish a'zolarining shishi
7.3. Jigar shishi
7.4. Oshqozon raki
7.5. Leykozlar
7.6. Qovuq shishi (papillomalar, saraton)
7.7. Suyak shishi

1.2. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

I. UMUMIY QOIDALAR

"Davlatining maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari" fanini chuqur o'zlashtirishda amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg'ulot – o'quv materialini jamoa bo'lib o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Shuningdek, amaliy mashg'ulot – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini fanning ishchi o'quv dasturida ko'zda tutilgan hajmdagi amaliy mashg'ulot soatlarida talaba tomonidan fan o'qituvchisining bevosita rahbarligi asosida auditoriyada o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Amaliy mashg'ulotning asosiy *maqsadi* pedagog-xodimning rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini auditoriya sharoitida bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdir. Amaliy mashg'ulotga talaba darsliklar, o'quv adabiyotlari, gazeta va jurnallar, radio va televideniye, elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalari, Internet resurslari, ZiyoNET materiallari va fanning o'quv-uslubiy majmualaridan foydalangan holda tayyorgarlik ko'rib kelishi nazarda tutiladi.

Talabaning amaliy mashg'ulotdagi bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 10-iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

II. "DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALAR" FANINING HAR BIR MAVZUSI BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTNI TASHKIL QILISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

1-MAVZU: "DAVLAT MAQSADLI VA BUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALAR" FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari haqida tushuncha.
2. "Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari " fanining predmeti va maqsadi.
3. "Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari " fanining zarurligi va vazifalari.
4. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining turlari.

1-topshiriq: davlat maqsadli fondlarining mohiyati, zarurligi va ahamiyatini chizmada aks ettiring.



2-topshiriq: Mamlakatimizda qanday davlat maqsadli fondlari mavjud? Keltirilgan chizmani davom ettirishingiz mumkin.



3-topshiriq: Amaliy mashg'ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

4-topshiriq: Davlat maqsadli jamg'armalarining funksiyalarini izohlab bering.



Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.
2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. – 202 б.
3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: “Адолат”, 2009. – 172 б.
4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.
5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

2-MAVZU: DAVLAT MAQSADLI VA BUDJETDAN TASHQARI JAMG’ARMALARINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

Amaliy mashg’ulot rejasi:

1. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalarining guruhlanishi.
2. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalarining jamlanma budjet tarkibidagi o’rni.
3. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslari.
4. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari ijrosini amalga oshiruvchi organlar.
5. Davlatning maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg’armalarning tushumlarini to’plash va taqsimlash.
6. Davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalarini boshqarishning tartibga solinishi.

1-topshiriq: Davlat maqsadli jamg’armalari bilan nodavlat fondlarning farqli jihatlarini chizma asosida izohlang.



2-topshiriq: O’zbekistonda mavjud davlat maqsadli fondlari ularning asosiy vazifalariga oid jadvalni to’ldiring.

№	Davlat maqsadli jamg’armalari	Tashkil etilgan sanasi	Asosiy vazifalari	Huquqiy asosi
1				
…				

3-topshiriq: Davlat maqsadli jamg’armalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonuniy-huquqiy hujjatlar va ularning mazmunini taqdimot asosida yoritib bering.

4-topshiriq: byudjetdan tashqari fondlarni tartibga solib turuvchi hujjatlarning ro’yxatini shakllantiring va har biriga qisqacha izoh yozing.

№	Hujjat nomi
1	…

5-topshiriq: Xorijiy mamlakatlarda maqsadli fondlar tizimini tartibga solib turuvchi hujjatlar nomi va qisqacha izohi keltirilgan taqdimot tayyorlang. Besh yoki oltita rivojlangan davlatlar misolida.

6-topshiriq: Amaliy mashg’ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.
2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. – 202 б.
3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: “Адолат”, 2009. – 172 б.
4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.
5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

3-MAVZU. BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Mamlakatda pensiya ta'minotini amalga oshirishda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining o'rni va ahamiyati.
2. Pensiya jamg'armasining daromadlari, ularning tarkibi va shakllanish mexanizmi.
3. Pensiya jamg'armasining xarajatlari va ularning tarkibi.
4. Pensiyalarning turlari, ularni belgilash va hisoblash tartibi.
5. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda Pensiya jamg'armasi faoliyatining muammolari va ularni bartaraf etish choralari

1-topshiriq: Keltirilgan jadvalni to'ldiring va to'ldirilgandan so'ng oxirida qisqacha izoh yozing.

Nafaqa turi	Nafaqa miqdori	Moliyalashtirish manbasi	Asos bo'lgan hujjat nomi
Yoshga doir pensiyalar			
Nogironlik bo'yicha pensiyalar			
Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi			
Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi			
Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa			
Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa			
Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa			
Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa			
Ishsizlik bo'yicha nafaqa			
Ish beruvchi tomonidan to'lanadigan nafaqa			

2-topshiriq: Birinchi topshiriqda berilgan pensiya va nafaqalarning har biri bo'yicha keying amaliy mashg'ulotda taqdimot yoki referat tayyorlang.

3-topshiriq: Amaliy mashg'ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 248 b.

2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. – 202 б.
3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: “Адолат”, 2009. – 172 б.
4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.
5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

4-MAVZU: O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI YO’L JAMG’ARMASI

Amaliy mashg’ulot rejasi:

1.O’zbekiston Respublikasi Yo’l jamg’armasini tashkil etishning maqsadi va vazifalari.
2.Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida jamg’armaning tutgan o’rni.
3.Respublika Yo’l jamg’armasi moliyaviy resurslarining shakllanishi.
4.Yo’l jamg’armasi xarajatlarini amalga oshirish yo’nalishlari.
5.Yo’l jamg’armasining faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

1-topshiriq: Quyidagi chizmada Yo’l fondining moliyaviy manbalarini keltiring va izohlang.



2-topshiriq: Quyidagi jadvalni to’liq shakllantiring va qisqacha izoh yozing.

№	Yo’l fondining moliyaviy manbalari	Moliyaviy manbalar
1	Soliqli daromadlar	

№	Yo’l fondining moliyaviy manbalari	Moliyaviy manbalar
2	Soliqsiz daromadlar	
3	Boshqa daromadlar	

3-topshiriq: Yo’l fondi hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlarini guruhlang.



4-topshiriq: Yo’l jamg’armasi hisobidan amalga oshiriladigan davlat iqtisodiy-ijtimoiy dasturlari



5-topshiriq: Amaliy mashg'ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 248 b.
2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. – 202 б.
3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: "Адолат", 2009. – 172 б.
4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.
5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

5-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANDLIKKA KO'MAKLASHISH DAVLAT JAMG'ARMASI

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'armaning maqsadi, mohiyati va ahamiyati.
2. Mamlakat mehnat bozorining shakllanishida Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi ning tutgan o'rni.
3. Jamg'arma moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari. Jamg'arma xarajatlarining tarkibi va tuzilishi.
4. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi sharoitida ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma faoliyatidagi moliyaviy muammolar va ularni hal etish yo'llari.

1-topshiriq: Mamlakatimizda necha xil pensiya mavjud? Ularni tayinlash, hisoblash va to'lash tartibi bo'yicha har bir pensiya turi uchun alohida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq: Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiyalar va nafaqalarni to'lash tartibi bo'yicha sxema ishlab chiqing.

3-topshiriq: O'zbekistonda pensiyaning tayanch miqdorlarini 2012-2017 yillar kesimida huquqiy asoslari bilan tahliliy jadval shakllantiring.

4-topshiriq: Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan qanday pensiyalar to'lanadi?

5-topshiriq: Yoshga doir pensiyani hisoblashda pensiyaning tayanch miqdori qanday hisoblanadi? Bu bo'yicha formula tuzing.

6-topshiriq: Pensiyani hisoblashda o'rtacha pensiya miqdori qanday hisoblaniladi? Bu bo'yicha formula tuzing.

7-topshiriq: Pensiyani hisoblashda o'rtacha oylik ish haqi qanday hisoblaniladi? Bu bo'yicha formula tuzing.

8-topshiriq: Pensiyani hisoblashda ish haqining yakka tartibdagi koeffitsienti qanday hisoblaniladi? Bu bo'yicha formula tuzing.

9-topshiriq: O’rtacha eng kam oylik ish haqi qanday hisoblaniladi? Bu bo’yicha formula tuzing**.**

10-topshiriq: Amaliy mashg’ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.

2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. – 202 б.

3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: “Адолат”, 2009. – 172 б.

4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.

5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

6-MAVZU: DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISHDAN TUSHGAN MABLAG’LAR JAMG’ARMASI

Amaliy mashg’ulot rejasi:

1. O’zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasining tashkil etilishi zarurligi va ahamiyati.
2. O’zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi mablag’larini shakllantirish.
3. O’zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi mablag’laridan foydalanish.

1-topshiriq: Quyidagi jadvalni to’ldiring va qisqacha izoh keltiring.

Mezonlar	**Taqsimlanuvchi pensiya tizimi**	**Jamg’ariladigan pensiya tizimi**
MAQSADI		
MOLIYALASHTIRISH METODI		
DEMOGRAFIK OMIL TA’SIRI		

2-topshiriq: Pensiya ta’minotining iqtisodiy va ijtimoiy mazmunlarini quyidagi chizmada izohlang.



3-topshiriq: Keyingi amaliy mashg'ulotda O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi o'zgarishlar haqida taqdimot tayyorlang.

4-topshiriq: Amaliy mashg'ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 248 b.
2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. – 202 б.
3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: "Адолат", 2009. – 172 б.
4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.
5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

7-MAVZU: TA'LIM VA TIBBIYOT TIZIMIGA YO'NALTIRILGAN DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARNING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. Ta'lim va tibbiyot tizimiga yo'naltirilgan davlat maqsadli jamg'armalarining zarurligi va ahamiyati
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, uning moliyaviy resurslarining shakllanishi, xarajatlarining tarkibi va tuzilishi.
3. O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Kitob jamg'armasining mohiyati, mazmuni va zarurligi.
4. Ta'lim va tibbiyor tizimiga yo'naltirilgan jamg'armalar faoliyatini boshqarish va takomillashtirish yo'llari.

1-topshiriq: Keltirilgan jadvalni tegishli so'rovlar bo'yicha to'ldiring va qisqacha izoh yozing.

Nafaqa turi	Nafaqa miqdori	Manba	Xorijiy mamlakatlardagi ko’rinishi (qisqacha izoh)
Yoshga doir nafaqalar			
Nogironlik bo‘yicha nafaqalar			
Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi			
Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi			
Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa			
Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa			
Qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqa			
Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa			
Ishsizlik bo‘yicha nafaqa			
Ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan nafaqa			

2-topshiriq: Hozirgi kunda Respublikamizda ijtimoiy ta’minot bo’yicha nafaqa oluvchilar qanchani tashkil etadi? Bu bo’yicha 2012-2017 yillar kesimida o’sish-kamayish dinamikasini ishlab chiqing.

3-topshiriq: Ijtimoiy nafaqalarning turlari bo’yicha ularni tayinlanishi, hisoblanishi va to’lanishi bilan bog’liq bo’lgan masalalar tuzing. Yechimi aniq bo’lsin.

4-topshiriq: Amaliy mashg’ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.

2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. – 202 б.

3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: “Адолат”, 2009. – 172 б.

4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.

5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

8-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASI.

Amaliy mashg'ulot rejasi:

4. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tashkil etilishi, maqsadi va vazifalari.
5. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini shakllantirishning asosiy manbalari
6. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi.

1-topshiriq: Amaliy mashg'ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

9-MAVZU: SUG'ORILADIGAN ERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH JAMG'ARMASI

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1. O'zbekiston Respublikasi "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash" jamg'armasi faoliyatining zarurligi, maqsadi va vazifalari.
2. Jamg'arma moliyaviy resurslarning shakllanishi.
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash" jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish.

1-topshiriq: Aholiga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar qaysi manbalardan amalga oshiriladi? Manbalari bo'yicha jadval shakllantiring.

2-topshiriq: Davlat byudjetining ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining besh yillik (2012-2017) tahlilini qiling.

3-topshiriq: Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi turg'un muassasalarning bugungi holatini aks ettiruvchi jadvalni shakllantiring.

Ko'rsatkichlar	2014 yil	2015 yil	2016 yil
Qariya va nogironlar (katta yoshdagi) uchun uy-internatlar soni			
ularda o'rinlar soni			
ularda yashovchilar soni			
Nogiron bolalar uchun uy-internatlar soni			
ularda o'rinlar soni			
ularda yashovchilar soni			

4-topshiriq: O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga beriladigan bepul eng zarur mahsulotlar ro'yxati va ularning me'yorlari tegishli me'yoriy hujjatlarda qanday?

№	Mahsulotlar nomi	Natural me'yor

5-topshiriq: Respublikamizda aholiningboquvchisiz, qarovsiz qolgan hamda mehnat qobiliyatini yo'qotgan qatlamiga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatishning qanday shakl va usullarini bilasiz? Bu bo'yicha keying amaliy mashg'ulot darsida taqdimot tayyorlang.

6-topshiriq: Amaliy mashg'ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 248 b.

2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. – 202 б.

3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: "Адолат", 2009. – 172 б.

4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.

5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

10-MAVZU: XORIJIY MAMLAKATLARDA DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARI FAOLIYATI

Amaliy mashg'ulot rejasi:

1.Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini tashkil etilishi.

2.Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining tarkibi va turlari.

3.Jamg'armalar daromadlarining shakllanishi va xarajatlari ijrosining tashkil etilishi.

4.O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari asosida davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish.

5.O'zbekiston davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari bilan rivojlangan davlatlar ilg'or tajribalari tahlili.

1-topshiriq: Xorijiy mamlakatlarda qanday davlat maqsadli fondlar mavjud? Ro'yxatini shakllantiring.

2-topshiriq: Quyidagi keltirilgan jadval ma'lumotlarini to'ldiring.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning byudjetdan tashqari fondlarning moliyaviy resurslariga oid jadvalni to'ldiring

№	Mamlakat	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017

3-topshiriq: Xorijiy mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshlari qanday? Kamida 20 ta taraqqiy etgan mamlakatlar misolida bo'lsin.

Mamlakatlar	Pensiyaga chiqish yoshi									
	2013		2014		2015		2016		2017	
	Ayol	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol	Erkak

4-topshiriq: Amaliy mashg'ulot davomida mavzu yuzasidan glossariy shakllantiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 248 b.
2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. – 202 б.
3. Хаитов А.А., Зиядуллаев М.М. Ўзбекистонда пенсия таъминоти ва хориж тажрибаси. –Т.: "Адолат", 2009. – 172 б.
4. Тухтарова М. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения. – Т.: «NORMA», 2010. – 360 с.
5. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

II-BO'LIM. MUSTAQIL TA'LIM

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassisllarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahatlari va tavsiyalari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ta'limning *asosiy maqsadi* pedagog-xodimning rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ta'limning *vazifalari* quyidagilardan iborat:

– kerakli ma'lumotlarni izlab topish, bilim olish va uni mustahkamlashning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

– axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

– an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;

– elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;

– yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;

– ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

– ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;

– ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi *shakllardan* foydalanish mumkin:

– fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

– amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;

– ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

– amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;

– ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

– uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Faning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va

qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn auditoriyada amaliy mashg'ulotlarda himoya qilinadi.

Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari, qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi.

Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin. Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va auditoriyada amaliy mashg'ulotda himoya qiladi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriq- lar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Maslahat soatlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin). Test, savol va topshiriqlar majmuasi auditoriyada amaliy mashg'ulotda himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedra ilmiy seminarlarida, talabalarning ilmiy to'garagi mashg'ulotlarida yoki institutda tashkil qilingan talabalarning ilmiy anjumanlarida himoya qilinadi.

Mazkur fandan talabalar belgilangan mavzulardan biri bo'yicha mustaqil ta'lim kompleksini bajaradilar. Mustaqil ta'lim kompleksida talaba mavzuga oid moliyaviy-budjet qonunchiligi sharxini, budjet amaliyotidagi uslubiy ta'minotni, ilmiy va maxsus adabiyotlar hamda boshqa manbalardagi materiallarning, statistik ma'lumotlarning tahlilini qamrab oluvchi tadqiq namunasini bajaradi va uning natijalari talabalar bilimini baholash reyting tizimi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar ma'ruzalar mavzulari, amaliy mashg'ulotlari mavzulari va bitiruv-malakaviy ishlarining

mazmuniga mos keladi va talaba bilimi hamda kasbiy ko'nikmalariga javoban ular tadqiq jarayoni uzluksizligini asoslashga qaratilgan.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalariining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni.
2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ahamiyati.
3. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalariining ahamiyati.
4. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalariining jamlanma byudjet tarkibidagi o'rni.
5. Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asoslari.
6. Pensiya jamg'armasining mablag'larini boshqarishni takomillashtirish.
7. Pensiya jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish yo'llari.
8. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida Yo'l jamg'armasining o'rni.
9. Yo'l jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish yo'llari.
10. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishning xususiyatlari.
11. O'zbekiston Respublikasi ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasining o'rni va ahamiyati.
12. Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, uning moliyaviy resurslarining shakllanishi, xarajatlarining tarkibi va tuzilishi.
13. O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Kitob jamg'armasining mohiyati.
14. O'zbekiston Respublikasi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatining zarurligi va bugungi kundagi ahamiyati.
15. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining o'rni.
16. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini samarali boshqarish yo'llari.
17. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining tarkibi va turlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

III-BO'LIM. GLOSSARIY

O'ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O'ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
Budjetdan tashqari fondlar	Non-budget funds	Внебюджетные фонды	A) ijtimoiy: ijitmoiy sug'urta fondi; pensiya fondi; bandlik fondi; majburiy tibbiyot sug'urtasi fondi; b) noijtimoiy: yo'l fondi; ekologiya va boshqa fondlardan iborat bo'lib, ularning barchasi budjet tizimida konsolidatsiyalanadi.
Budjet dotatsiyasi	Budgetsubsidies	Бюджетные субсидии	O'z daromadlari va budjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag'lar etishmagan holda quyi budjetning harajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.
Budjet profitsiti	Budgetsurplus	Бюджетный избыток	Muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.
Budjet ssudasi	Budget loan	Бюджетный кредит	Yuqori budjetdan quyi budjetga yoki respublika budjetdan rezident – yuridik shaxsga yoki xorij davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.
Budjet subventsiyasi	Budget subventions	Бюджетных субвенций	Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ma'lum maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga tekingi (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.
Budjet tashkilotlari	Budget organizations	Бюджетные организации	Davlat budjetida unga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq faoliyatni moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lgan budjetdan mablag' ajratish nazarda tutilgan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.
Davlat budjeti	State budget	Госбюджет	Davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag'larining) markazlashtirilgan fondi

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
			bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Daromad solig’i	Incometax	Подоходный налог	To’g’risoliqlarning asosiy shakli. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning jami daromadidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqxujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarini chegirgan holda foizdahisoblangan ulushi.
Daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya	Income declaration	Декларация о доходах	Dvidentlar – taqsimlashga mo‘ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxona sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma‘lum davrdan so‘ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to‘lanadigan daromad.
Dotatsiya	Subsidy	Субсидия	Davlat budjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag‘lari, (ziyon) larni qoplash uchun korxona va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabalarga ko‘ra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.
Imtiyoz	Privilege	Льгота	Ma‘lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to‘liq) ozod etish, ma‘lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo‘lish, masalan, soliq imtiyoziga.
Mahalliy budjet	The local budget	Местный бюджет	Davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
			davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Penya	Fine/surcharge	Пеня	Qonunchilikda nazarda tutilgan yoki shartnoma majburiyati bo’yicha belgilangan vaqtdan kechikkan har bir kun uchun bitim bo’yicha qayd etilgan summaning foizdagi ulushi ko’rinishida qo’llaniladi.
Soliq agenti	Taxagent	Налоговый агент	Yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o‘tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o‘z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to‘lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko‘rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo‘lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o‘tkazib beradi.Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida e’tirof etiladi.
Soliqlar	Taxes	Налоги	Qonunda beliglangan tartibdastavka bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolar (yuridik va jisoniy shaxslar)dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy budjetga olinadigan majburiy to‘lovlar. Soliq, yig‘im, poshlina va boshqa to‘lovlar deyilganda qonuniy aktlar asosida beliglangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budjetlarga yoki budjetdan tashqaridagi fondlarga majburiy badallarning to‘lanishi tushuniladi. Belgilangan tartibda

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
			olinadigan soliqlar, yig‘imlar, poshlinalar va boshqa to‘lovlarning yig‘indisi soliq tizimini tashkil etadi.
Soliq bazasi	The tax base	Налоговая база	Soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo‘llaniladigan ob’ektning miqdoriga ham bog‘liq bo‘ladi.
Soliq siyosati	Tax policy	Налоговая политика	Bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.
Soliq siyosati strategiyasi	Tax policy	Стратегия налоговая политика	Soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta’minlash ko‘zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.
Soliq siyosati taktikasi	Tax policy and tactics	Тактика налоговая политика	Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya’ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
Soliq sub’ekti	The subject of tax	Субьекти налога	Soliq to‘lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq sub’ekti - bu soliqqa oid munosabatlarning tashkil etuvchi tomonlarning o‘zaro majmuasi bo‘lib, unda bir tomondan soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo‘mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspektsiyalari qatnashadi.
Soliq ob’ekti	The object of the tax	Объект налогообложения	Soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq ob’ekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi.
Soliq organlari	Tax authorities	Налоговые органы	Soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o‘rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida budjetga o‘tkazilishi ustidan nazoratni ta‘minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvining markaziy organi (Davlat soliq qo‘mitasi), viloyat, tuman va shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir.
Soliq inspeksiyalari	Tax inspection	Налоговая инспекция	Davlatsoliq qumitasiing yagona tizimi tarkibiga

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
			kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzililishi funktsional belgigako‘ra aniqlanadi. Buning asosi sifatida turli belgilar: mulkchilik shakli, xo‘jalik faoliyatining turli, to‘lovlar hajmi, soliqlarning turlari va o‘.k.lar olinishi mumkin. Fuqarolarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiyasi nazorati ostida bo‘lgan hudud uchastkalarga bo‘linadi.
Soliq imtiyozlari	Tax incentives	Налоговые льготы	Soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha turli xil engilliklar bo‘lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to‘liq yoki qisman va boshqa ko‘rinishlarda berilishi mumkin.
Soliq manbai	A source of tax	Источник налога	Bu soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlari manbai, ya’ni daromadi. Soliq ob’ekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo‘yicha, masalan, daromad (foyda)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo‘yicha soliq ob’ekti ham soliq manbai ham bir xil bo‘ladi, ya’ni nima ob’ekt bo‘lsa, uning o‘zi manba hisoblanadi.
Soliq stavkasi	Tax rate	Ставка налога	Soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat‘iy soliq stavkalari daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarida o‘rnatiladi.
Soliqqa tortish birligi	Unit of taxation	Единица налогообложения	Bu ob’ektning o‘lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig‘ida ob’ektning o‘lchov birligi bo‘lib uning so‘mdagi bahosi ifodalansa, yer solig‘ida o‘lchov birligi bo‘lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
Soliqqa tortish predmeti	The subject of taxation	Предметом налогообложения	Soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo‘lgan huquq emas, balki ularning o‘zidir, ya’ni soliq solish ob’ekti bo‘lib biror-bir soliq predmetiga bo‘lgan huquq tushunilsa, predmet bo‘lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o‘zi tushuniladi.
Soliq tizimi	The tax system	Налоговая система	Mamlakat doirasida (hududida) to‘lovlardan (yuridik va jisoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar,yig‘imlar va boshqa to‘lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig‘indisi.
Soliq qonunchiligi	Tax legislation	Налоговое законодательство	Davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi va to‘xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me’yorlar yig‘indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.
Soliq badallari (to‘lovlari)	Tax payments (payments)	Налоговые платежи (платежи)	Soliq qonunchiligi bo‘yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, hisoblangan yoki qat‘iylashtirilgan summalardir. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo‘yicha qonunga binoan aniqlanadi.
Soliq tushumlari	Tax revenues	Налоговые поступления	Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi ha rbir soliq va boshqa majburiy to‘lovlarga mo‘ljallangan qism, band, kod va moddaga

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
			muvofiq vakolotli banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to‘lovlari) va moliyaviy sanktsiyalar.
Soliq hisob-kitoblari	Tax calculations	Налоговые расчеты	Yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko‘zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq organlariga taqdim etilib, o‘zida ma‘ulm hisobot davri mobaynida to‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan to‘lovlar summasini aks ettiradi. Soliq summalarini hisoblash tartibi soliq qonunchiligiga ko‘ra har bir soliq turi bo‘yicha alohida-alohida belgilangan.
Soliq nazorati	Financial control	Налоговые контроль	Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlash ustidan nazorat.
Soliqqa tortilmaydigan oborot	Tax-exempt turnover	Необлагаемый оборот	Qonunga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilmaydigan oborot.
Soliqdeklaratsiyasi	Tax Declaration	Налоговая декларация	Soliq to’lovchining soliq organiga ma’lum bir davr oralig’idaolgan daromadlari hamda unga qo’llaniladigan chegirma va imtiyozlarni o’zida aks ettirgan maxsus shakldagi rasmiy bayonoti. Soliq organi unga va amaldagi soliq stavkalariga asoslanib, to’lanishi belgilangan soliq summalari undirilishini nazorat qiladi.
Soliq majburiyati	Taxliabilities	Налоговые обязательства	Soliqlarni hisoblash va to’lash yuzasidan talab etiladigan va bajarilishi shart bo’lgan majburiyatlarni o’zida aks ettirgan iqtisodiy munosabatlar majmui. Bu jarayonda davlat o’zining vakolatli organlari orqali soliq to’lovchidan mazkur majburiyatlar bajarilishini talaba etish huquqiga egadir.

O’ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	O’ZBEK TILIDAGI MAZMUNI
Soliq mexanizmi	The tax mechanism	Налоговый механизм	Davlat, jamiyat va alohida sub’ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish yuzasidan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag’lari fondlarini tashkil etish bilan bog’liq ob’ektiv munosabatlarni boshqarish usullari yig’indisi.
Soliq yuki	The tax burden	Налоговое бремя	Soliq to‘lovchining muayyan vaqt oralig‘ida to‘lagan soliqlari yig‘indisini ifodalaydi. Bunda soliq to‘lovchilarning to‘laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to‘lovlarining yig‘indisini ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to‘lovchilar zimmasiga qancha to‘g‘ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi.
Soliq organi	Taxauthority/ taxbodies	Налоговый орган	Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, soliqlar undirilishini amalga oshiruvchi davlat organlari tizilmasi.
Soliq Organlarining vakolatlari	The competence of the tax authorities	Компетенция налоговых органов	Soliq organlarining huquq va majburiyatlari majmui.
Soliq to’lovchi	Taxpayer	Налогоплательщик	Qonunchilikka ko’ra, tegishli soliqlarni to’lash majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.
Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish	International double taxation	Международное двойное налогообложение	Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to’lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o’xshash soliq turi bilan bir vaqtning o’zida soliqqa tortish ifodalanadi.

IV-BO’LIM. ILOVALAR

4.1. FAN DASTURI

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLANDI”
O’quv ishlari bo’yicha prorektor

_____ O’.Axmedov
2018 yil “ ” _____

DAVLATNING MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG’ARMALARI

FAN DASTURI

Ta’lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta’lim yo’nalishi:	5230600	–	Moliya

Termiz – 2018 y

Fan dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 201__ yil “___” _____dagi “___” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

To’lakov U.T. – TerDu, “Moliya” kafedrasi kata o`qituvchisi
Maxmudov O.T. – TerDu, “Moliya” kafedrasi kata o`qituvchisi

Taqrizchilar:

Xatamov O.Q. – TerDu “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., prof.
Avazov E.X. – TerDu “Moliya” kafedrasi mudiri, i.f.n., dots.

Iqtisodiyot va turizm
fakulteti dekani:
2018 yil “_____”_____ _____ A.Absamatov
(imzo)

“Moliya”
kafedrasi mudiri:
2018 yil “_____”_____ _____ E.Avazov
(imzo)

I. O’quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o’rni

Ushbu o’quv dasturida “Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari” fanining mazmuni, predmeti, maqsadi va vazifalari, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi, O’zbekiston Respublikasi Yo’l jamg’armasi, Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag’lar jamg’armasi, O’zbekiston Respublikasining Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi, Ta’lim va tibbiyot tizimiga yo’naltirilgan davlat maqsadli jamg’armalarning faoliyatini tashkil etish, Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi, O’zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi, Boshqa byudjetdan tashqari davlat jamg’armalari hamda xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari faoliyati kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o’z aksini topgan. “Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari” fanini chuqur o’rganish davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalar bilan bog’liq muammolarni hal qilishda muhim rol o’ynaydi.

“Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari” fani tanlov fan sifatida o’qitilishi rejalashtiriligan. “Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari” fani “Moliya” ta’lim yo’nalishida o’qitiladi.

II. O’quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o’qitishdan maqsad – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo’lib yetishadigan talabalar uchun byudjetlararo munosabatlar, unda mahalliy byudjetning o’rni bo’yicha ko’nikma va malakalar shakllantirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko’nikmalar, byudjet munosabatlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yidagi talablar qo’yiladi. Talaba:

davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning ijtimoiy iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, taraqqiyot bosqichlari, maqsadi va vazifalari, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarni boshqarish va tartibga solish asoslari, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning faoliyati, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning daromad va xarajatlari, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning o’rtasidagi o’zaro munosabatlar haqida.tasavvurga ega bo’lishi;

davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning rivojlanish qonuniyatlarini, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning faoliyatini baholash va tahlil qilish uslubiyotini, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarningistiqbolini belgilash asoslarini, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning investitsion faoliyatini, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining rivojlanish strategiyasi va taktikasini, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarni tashkil etish tamoyillarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning ko’rsatkichlarini prognoz hisob-kitobini tuzish, ijrosi yakunlarini tahlil etish, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning hozirgi holatini tahlil qilish va undagi o’zgarishlarni ko’ra olish, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalar faoliyatini nazorat qilish organlari faoliyatini tashkil etish, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari faoliyatini tartibga solish, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning g’aznachilik ijrosini tashkil qilish, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarning ijrosi bo’yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish bo’yicha, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining boshqarish organlari faoliyatida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo’yicha ***ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak.***

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

“Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarii haqida tushuncha. “Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarii” fanining predmeti va maqsadi. “Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarii” fanining zarurligi va vazifalari. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining turlari.

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati, funksiyalari. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining guruhlanishi. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining jamlanma byudjet tarkibidagi o’rni. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarii faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslari. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarii ijrosini amalga oshiruvchi organlar. Davlatning maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg’armalarning tushumlarini to’plash va taqsimlash. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariini boshqarishning tartibga solinishi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi

Mamlakatda pensiya ta’minotini amalga oshirishda byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining o’rni va ahamiyati. Pensiya jamg’armasining daromadlari, ularning tarkibi va shakllanish mexanizmi. Pensiya jamg’armasining xarajatlari va ularning tarkibi. Pensiyalarning turlari, ularni belgilash va hisoblash tartibi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda Pensiya jamg’armasi faoliyatining muammolari va ularni bartaraf etish choralari.

O’zbekiston Respublikasi Yo’l jamg’armasi

O’zbekiston Respublikasi Yo’l jamg’armasini tashkil etishning maqsadi va vazifalari. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida jamg’armaning tutgan o’rni. Respublika Yo’l jamg’armasi moliyaviy resurslarining shakllanishi. Yo’l jamg’armasi xarajatlarini amalga oshirish yo’nalishlari. Yo’l jamg’armasining faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

O’zbekiston Respublikasining Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi

O’zbekiston Respublikasi ish bilan ta’minlashga ko’maklashuvchi jamg’armaning maqsadi, mohiyati va ahamiyati. Mamlakat mehnat bozorining shakllanishida Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi ning tutgan o’rni. Jamg’arma moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari. Jamg’arma xarajatlarining tarkibi va tuzilishi. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi sharoitida ish bilan ta’minlashga ko’maklashuvchi jamg’arma faoliyatidagi moliyaviy muammolar va ularni hal etish yo’llari.

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag’lar jamg’armasi

Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi zarurligi va ahamiyati. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi daromadlarining shakllanishni boshqarish va tartibga solish. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi mablag’lari xarajatlarining asosiy yo’nalishlari. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasi faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishining hozirgi zamon xususiyatlari.

Ta’lim va tibbiyot tizimiga yo’naltirilgan davlat maqsadli jamg’armalarning faoliyatini tashkil etish

Ta’lim va tibbiyot tizimiga yo’naltirilgan davlat maqsadli jamg’armalarining zarurligi va ahamiyati. Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasi, uning moliyaviy resurslarining shakllanishi, xarajatlarining tarkibi va tuzilishi. O’zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Kitob jamg’armasining mohiyati, mazmuni va zarurligi. Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg’armasi. Ta’lim va tibbiyot tizimiga yo’naltirilgan jamg’armalar faoliyatini boshqarish va takomillashtirish yo’llari.

O’zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi

O’zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi faoliyatini tashkil etilishining zarurligi, maqsadi va vazifalari. Jamg’arma faoliyatini shakllantirish uchun moliyaviy resurslarining shakllanish yo’llari hamda jamg’armaning xarajatlar yo’nalishlari. Jamg’arma mablag’larining nazoratini tashkil etish. Iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi sharoitida O’zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi mablag’larini samarali boshqarish yo’llari.

Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi

O’zbekiston Respublikasi Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi faoliyatining zarurligi, maqsadi va vazifalari. Jamg’arma moliyaviy resurslarning shakllanishi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi faoliyatini takomillashtirish.

Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari faoliyati

Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari faoliyatini tashkil etilishi. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining tarkibi va turlari. Jamg’armalar daromadlarining shakllanishi va xarajatlari ijrosining tashkil etilishi. O’zbkistonda xorijiy mamlakatlar ilg’or tajribalari asosida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish. O’zbekiston davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari bilan rivojlangan davlatlar ilg’or tajribalari tahlili.

IV. Amaliy mashg’ulotlar bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati
3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi
4. O’zbekiston Respublikasi Yo’l jamg’armasi
5. O’zbekiston Respublikasining Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi
6. Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag’lar jamg’armasi
7. Ta’lim va tibbiyot tizimiga yo’naltirilgan davlat maqsadli jamg’armalarning faoliyatini tashkil etish
8. O’zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi
9. Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi
10. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalari faoliyati

Amaliy mashg’ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademguruhga bir o’qituvchi tomonidan o’tkazilishi lozim. Mashg’ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o’tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo’llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

18. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni.
19. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining ahamiyati.
20. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining ahamiyati.
21. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalariining jamlanma byudjet tarkibidagi o’rni.
22. Davlat maqsadli jamg’armalari faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslari.
23. Pensiya jamg’armasining mablag’larini boshqarishni takomillashtirish.
24. Pensiya jamg’armasi faoliyatini takomillashtirish yo’llari.
25. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida Yo’l jamg’armasining o’rni.
26. Yo’l jamg’armasi faoliyatini takomillashtirish yo’llari.
27. Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasining faoliyatini tashkil etilishi va boshqarilishning xususiyatlari.
28. O’zbekiston Respublikasi ish bilan ta’minlashga ko’maklashuvchi davlat jamg’armasining o’rni va ahamiyati.
29. Ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasi, uning moliyaviy resurslarining shakllanishi, xarajatlarining tarkibi va tuzilishi.
30. O’zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Kitob jamg’armasining mohiyati.
31. O’zbekiston Respublikasi Sug’oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg’armasi faoliyatining zarurligi va bugungi kundagi ahamiyati.
32. O’zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasining o’rni.
33. O’zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi mablag’larini samarali boshqarish yo’llari.
34. Xorijiy mamlakatlarda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalarining tarkibi va turlari.

Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo’yicha kurs ishi. Fan bo’yicha kurs ishi o’quv rejada ko’rsatilmagan.

VI. Asosiy va qo’shimcha o’quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta’minoti. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.
2. Қосимова Г.А., Каримова З.Х. Бюджетдан ташқари фондлар. Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. – 202 б.
3. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O’quv qo’llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2010, 595 b.
4. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. PUBLIC BUDGETING SYSTEMS. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

Qo’shimcha adabiyotlar

5. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.

7. Мирзиёев Ш.М.Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 104 б.

8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 56 б.

9. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 48 б.

10. Pulatov D.X., Nurmuxamedova B.I. G‘aznachilik. Darslik. T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.

11. Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 448 b.

12. Қосимова Г.А., Ботиров А.А. Жамғариб бориладиган пенсия таъминоти. Монография. – Т.: “Tamaddun”, 2015. – 108 б.

13. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. – М.: «Вузовский учебник», 2011. – 224 с.

Internet saytlari

14. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal.

15. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

16. www.pfru.uz – O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi rasmiy sayti.

17. www.mineconomy.uz – O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi rasmiy sayti.

18. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti.

19. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi rasmiy sayti.

20. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi.

21. www.publicfinance.uz – O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi.

22. www.ziyonet.uz – O’zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog’i.

23. www.uza.uz – O’zbekiston Respublikasi Axborot agentligi rasmiy sayti.

24. www.xb.uz – O’zbekiston Respublikasining Xalq banki rasmiy sayti.

4.2. ISHCHI O`QUV DASTURI

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro’yxatga olindi	**«Tasdiqlayman»**
	Termiz davlat universiteti
№BD-5230600	o’quv ishlari bo’yicha prorektor
	_____ O`.Axmedov
2018 yil “___” _____	2018 yil «____» _____

DAVLATNING MAQSADLI VA BUDJETDAN TASHQARI JAMG’ARMALARI

fanidan

ISHCHI O`QUV DASTURI

Bilim sohasi:	**200000**	**-** Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	**230000**	- Iqtisod
Ta’lim yo’nalishi:	**5230600**	- Moliya

TERMIZ-2018

Fanning ishchi o’quv dasturi namunaviy o’quv reja hamda namunaviy o’quv dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

To’lakov U.T. – TerDU, “Moliya” kafedrasi kata o`qituvchisi
Maxmudov O.T. – TerDU, “Moliya” kafedrasi kata o`qituvchisi

Taqrizchilar:

Xatamov O.Q. – TerDU “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., prof.
Avazov E.X. – TerDU “Moliya” kafedrasi mudiri, i.f.n., dots.

Fanning ishchi o’quv dasturi Iqtisodiyot kafedrasining 2018 yil ___ avgustdagi 1-sonli yig’ilishida muhokama qilingan va muhokamadan o’tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:_____ Avazov E.X.

Fanning ishchi o’quv dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti muhokama etilgan va universitet o’quv-uslubiy Kengashi muhokamasiga tavsiya qilingan (2018 yil ___ avgustdagi 1-sonli bayonnoma)**.**

Fakultet Kengashi raisi:_____ Absamatov A.E.

Fanning ishchi o’quv dasturi Termiz davlat universiteti O’quv-uslubiy Kengashining 2018 yil ___ avgustdagi ___ - sonli majlisida muhokama etilib, o`quv jarayonida foydalanishga tavsiya etildi.

O’quv-metodik boshqarma boshlig’i:_____Mustafoyev U.

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirish davom etmoqda. Umumdavlat moliya tizimining bo'g'ini - davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va xarajatlarini maqsadli yo'naltirilishini samarali tashkil etish amalga oshirilmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida real iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida talab etilayotgan ta'lim va mutaxassisliklarning yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish, davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish; o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirish belgilandi. Shu nuqtai-nazardan ta'kidlash joizki, ushbu tizimga xizmat qiluvchi muayyan bilim va ko'nikmaga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlash davr talabidir.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

"Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari" fanining asosiy maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarini g'aznachilik tizimi asosida boshqarish va nazorat jarayonlarining muhim yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish; O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda davlat maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish; ijtimoiy va iqtisodiy fondlarning moliyaviy jihatlarini ochib berish; maqsadli fondlarni shakllantirishning xorij tajribalarini o'rganish; davlat budjeti tarkibidagi maqsadli fondlarning daromadlarini shakllantirish mexanizmini ko'rib chiqish; davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlarni va xarajatlarni boshqarish jarayonlariga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tadbik etish masalalarini aniqlash; O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi sharoitida davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarini oshirish va xarajatlarini optimallashtirish yo'llarini belgilashdan iborat.

Mazkur fanni o'qitishda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlardan, shuningdek, o'qitishning interaktiv uslublari va vositalaridan foydalaniladi.

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari va ularni shakllanirish hamda xarajatlarin moliyalashtirish munosabatlarini tashkil etish nazariyasi va amaliyotiga oid bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy va umumiqtisodiy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda, davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari va moliyaviy qonunchilik borasidagi yangiliklardan, mamlakat va xorijiy davlatlar davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining budjetning g'azna ijrosi orqali amalga oshirilishi amaliyotidan xabardor bo'lishlari lozim.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

"Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mohiyati, zarurligi, belgilari va funktsiyalari;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanishi mazmuni, vazifalari, taraqqiyot bosqichlari;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining boshqarish va tartibga solish asoslari;
- xorijiy mamlakatlarda davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyati;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlarining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari;
- davlat budjeti va davlatning maqsadli, budjetdan tashqari jamg'armalarining o'rtasidagi munosabatlarning shakllari;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatini tashkil etish shakllari haqida *tasavvurga ega bo'lishi kerak.*
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining rivojlanish qonuniyatlarini;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatini baholash va tahlil qilish uslubiyotini;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining istiqbolini belgilash asoslarini;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatining tashkil etilishi va o'ziga xos xususiyatlarini;
- markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining g'aznachilik tizimi sharoitida davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatidagi vakolatlari va hududlar moliyaviy-investitsion faoliyati asoslarini;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining rivojlanish strategiyasi va taktikasini;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining faoliyatini tashkil etish tamoyillarini *bilishi va ulardan foydalana olishi lozim;*
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, budjetdan tashqari fondlar ijrosi yakunlarini tahlil etish bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish va natijalarini baholash bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining hozirgi zamon holati va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining nazorat organlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari iste'molchilari majburiyatlarini bajarish bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari bo'g'inlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining g'aznachilik xizmati ishini tashkil etish bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish bo'yicha;
- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining ijrosi natijalarini hisob-kitob qilish bo'yicha;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining boshqarish organlari faoliyatida zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish bo'yicha;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining amaliyotiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish bo'yicha;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;*

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining resurslarini boshqarishning asosiy usullarini, davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining budjetdan tashqari fondlar bo'g'inlarida moliyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari;

- makrodarajada va hududlar miqyosida davlat budjet siyosatining amal qilishi;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'larini investitsiya qilish tamoyillari;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining prognozlashtirish usullarini, rivojlanish dasturlarini tuzish asoslari;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining daromadlarini shakllantirish va xarajatlarni optimallashtirishning kontseptual asoslari;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish asoslari;

- ijtimoiy sohalarni davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'laridan moliyalashtirish mexanizmlari;

- davlat budjeti bilan birgalikda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash usullari;

- davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining bo'g'inlari faoliyatini tartibga solish uslublari;

- barcha darajadagi davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirish va taqsimlashning optimal modelining qurilishi yuzasidan tegishli *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

"Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari" fanini o'zlashtirishda o'quv rejasida rejalashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisodiy nazariya), umumkasbiy (statistika, makroiqtisodiyot, moliyaviy va boshqaruv tahlili, soliqlar va soliqqa tortish) va ixtisoslik (davlat budjeti, davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar, g'aznachilik, davlat pensiya ta'minoti) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Mamlakatda davlatning funktsiya va vazifalarini mablag' bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari umumdavlat moliya tizimining bir bo'g'ini sifatida davlatning alohida vazifalarini mablag' bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuning uchun davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining alohida talablar qo'yiladi. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalarining maqsadga muvofiq tarzda o'z vaqtida shakllanishi va ishlatilishini tashkil etish mamlkat ijtimoiy –iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi. "Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari" fani ixtisoslik fani sifatida o'qitiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni

o’zlashtirishda darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan; ma’ruza, amaliy darslarida mos ravishda ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg’ulotlari mazmuni

Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari haqida tushuncha. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalarining zarurligi va vazifalari. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalarining turlari. O’zbekiston Respublikasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi sharoitida iqtisodiy yo’naltirilgan jamg’armalar va ijtimoiy yo’nalishdagi jamg’armalaring amal qilishi. Davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg’armalari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.

“Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg’armalar” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

